

L.Z.Ibragimov, J.A.Namozov

QISHLOQ XO'JALIGI GEOGRAFIYASI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**Sharof Rashidov nomidagi
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

L.Z. IBRAGIMOV, J.A.NAMOZOV

**QISHLOQ XO‘JALIGI
GEOGRAFIYASI**

(O‘quv qo‘llanma)

Samarqand - 2025

UDK: 551.4.37

BBK 26.8

Q - 35

Ibragimov L.Z., Namozov J.A. Qishloq xo‘jaligi geografiyasi. [O‘quv qo‘llanma]. – Samarqand: “SamDU nashriyoti”, 2025. – 160 b.

Mazkur qo‘llanmada qishloq xo‘jaligi geografiyasining hozirgi zamon mazmuni, tadqiqot obyekti va predmeti, shakllanishi hamda rivojlanish xususiyatlari, uning tarmoqlar tarkibi, tadqiqot usullari ko‘rib chiqilgan. Qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlari geografiya, geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishlarida tahsil oluvchi talabalar uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, undan magistrantlar, ilmiy xodim-izlanuvchi va tadqiqotchilar hamda va qishloq xo‘jaligi geografiyasi bilan qiziquvchilar ham foydalanishi mumkin.

Mas’ul muharrir: *M.R.Usmanov – geografiya fanlari doktori, professor.*

Taqrizchilar: *Jumaboyev T.J. – Samarqand davlat universiteti Ijtimoiy - iqtisodiy geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.n.*
Musayev B.M. – Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasi dotsenti, PhD.

SamDU Kengashining 2025-yil 5-iyuldagi yig‘ilishining qarori (13-sonli bayonnomasi) bilan o‘quv qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan

ISBN 978-9910-9891-3-1

**© Ibragimov L.Z., Namozov J.A.,
Qishloq xo‘jaligi geografiyasi. 2025.**

MUNDARIJA	
Kirish	4
BIRINCHI BOB. QISHLOQ XO‘JALIGI GEOGRAFIYASINI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI	
Birinchi mavzu. Kirish. Qishloq xo‘jaligi geografiyasi fanining predmeti, tadqiqot usullari va vazifalari.....	7
Ikkinchi mavzu. Qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi omillar, joylanish va rivojlanish qonuniyatlari.....	13
Uchinchi mavzu. Yer sayyorasining sathi, uning qit’alari taqsimlanishi, yerlarning kengayish muammolari.....	21
To‘rtinchi mavzu. Qishloq xo‘jaligining xalq xo‘jaligida tutgan o‘rni.....	26
Beshinchi mavzu. Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslari va ulardan foydalanish.....	38
IKKINCHI BOB. QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARI TARKIBI	
Oltinchi mavzu. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari haqida umumiy tushuncha.....	51
Yettinchi mavzu. Dehqonchilik tarmoqlari geografiyasi.....	59
Sakkizinchi mavzu. Donli ekinlar geografiyasi.....	70
To‘qqizinchi mavzu. Kartoshkachilik, sabzavot, poliz va mevachilik geografiyasi.....	76
O‘ninchi mavzu. Texnik ekinlar geografiyasi.....	82
O‘n birinchi mavzu. Chorvachilik va uning tarmoqlar tarkibi.....	89
UCHINCHI BOB. XORIJIY DAVLATLARDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANISHI	
O‘n ikkinchi mavzu. Rivojlangan davlatlar qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanish xususiyatlari.....	98
O‘n uchinchi mavzu. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligining o‘rni va rivojlanish xususiyatlari.....	104
TO‘RTINCHI BOB. O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROSANOAT MAJMUASI	
O‘n to‘rtinchi mavzu. O‘zbekiston agrosanoat majmuasi. O‘zbekiston yer fondi.....	117
O‘n beshinchi mavzu. O‘zbekiston qishloq xo‘jalik tarmoqlari geografiyasi.....	131
Glossariy	150
Foydalanilgan adabiyotlar	157

O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha taraqqiyot strategiyasida ishlab chiqarish kuchlarini, xususan, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini jadal rivojlantirish va oqilona hududiy tashkil etish masalalariga katta ahamiyat berilgan. Mamlakat iqtisodiy strategiyasining o‘zagini tashkil etgan sanoat hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorigi va uning sifat ko‘rsatkichlarini rivojlantirish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida xalqaro tashkilotlar va ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xarita”si tasdiqlandi.

Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish qishloq joylarida hayot sifatini yaxshilash, bugungi va kelajak avlodlar uchun zaruriy miqdordagi oziq-ovqat ta‘minotini shakllantirish, fermer va dehqon xo‘jaliklari uchun yetarli daromadga ega bo‘lish imkoniyatini ta‘minlashni anglatadi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish jarayonlari, tabiiy, moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini, uning tarmoqlarini samarali hududiy tashkil etish bilan uzviy bog‘liq. Iqtisodiy

dasturlar, xususan sanoat va qishloq xo'jaligini kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish tarmoq va hududiy rejalashtirish tamoyillarini samarali amalga oshirishni talab qiladi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish jarayonidagi birinchi qadam oldingi yoki an'anaviy jamiyatlardagi kabi qishloq xo'jaligini statik, ya'ni o'zgarmas deb qarashdan voz kechish bo'ldi. Biroq, qishloq xo'jaligini rivojlantirish muammosi - statik qishloq xo'jaligini zamonaviy dinamik sektorga aylantirish emas, balki soha mahsuloti va hosildorligi o'sish sur'atlarini iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida boshqa tarmoqlaridagi o'sish darajasiga mosligini ta'minlash hisoblanadi.

Kompleks dasturlar, masalan, agrar soha tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari eng muhim vazifalar (tarmoqlararo tavsifdagi)ni amalga oshirishda resurslarni jamlash imkoniyatini yaratadi. Ushbu dasturlar o'rta va uzoq muddatli tavsifga ega bo'ladi. Iqtisodiyotdagi hududiy mutanosibliklar va yangi hududlarni industrial o'zlashtirish talablaridan kelib chiqib tuziladi. Shu nuqtai nazardan yirik hududiy ishlab chiqarish, shuningdek, qishloq xo'jaligi majmualari (klasterlari)ni shakllantirish dasturlari katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi geografiyasida "joylashtirish" bilan bog'liq barcha amaliy masalalarning yechimlarini topish muhim ahamiyatga ega. Agrosanoat tarmoqlarini oqilona hududiy tashkil etishni ilmiy asoslash, bu jarayonda zamonaviy tadqiqot usullaridan, turdosh fanlar tadqiqot natijalaridan samarali foydalangan holda amalga oshirish zarur. Ularning ichida iqtisodiy geografiya, xususan, qishloq xo'jaligi geografiyasi fani muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligi geografiyasi fani-mamlakatning umumiy, mintaqaviy, iqtisodiy, texnik va tabiiy sharoitlariga asoslangan holda, moddiy ishlab chiqarishning yirik va yetakchi tarmog'ini hududiy tashkil qilishning obyektiv qonuniyatlari va o'ziga xos (maxsus) xususiyatlarini o'rganadi.

Ilm-fan sifatida qishloq xo'jaligi geografiyasi mazkur tarmoqlar ichida va uning qirrasida turli hududiy tizimlarni shakllanish jarayonlarini asoslab beruvchi nazariy xulosalarni yaratish bilan shug'ullanadi. Qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etish bilan bog'liq

iqtisodiy-geografik tadqiqotlarning ko‘lami kengaymoqda. Ammo shu bilan birgalikda ularni hududiy tashkil etish bilan bog‘liq juda ko‘p nazariy masalalar o‘z yechimini topganicha yo‘q. Masalan, qishloq xo‘jaligi rayonlashtirishini iqtisodiy rayonlashtirish tizimidagi o‘rnini belgilash, rayonlarga ajratish mezonlari bilan bog‘liq uslubiy tadqiqotlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Talabalarning fanga oid ilmiy dunyoqarashini oshirishda ko‘pgina fanlar qatori qishloq xo‘jaligi geografiyasi fani ham oliy ta‘lim tizimida yuqori malakali geograf mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqsadda tayyorlangan “Qishloq xo‘jaligi geografiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma o‘ziga tegishli fan tarmoqlari bilan bog‘liq holda o‘rganishga qaratilgan.

Qo‘llanma “Qishloq xo‘jaligi geografiyasi” fanining o‘quv dasturi asosida yozilgan bo‘lib, unda o‘qitishning yangi usullari, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda har bir mavzuning maqsadi, mazmuni, mohiyati va ahamiyati yoritilgan, hamda mavzular bo‘yicha nazorat va muhokama uchun savollar, tayanch iboralar va foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan. “Qishloq xo‘jaligi geografiyasi” Oliy o‘quv yurtlarining geografiya ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi muammolari bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar ham foydalanishi mumkin.

O‘JALIGI GEOGRAFIYASI FANINING PREDMETI,

Reja:

1. Qishloq xo‘jaligi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning yetakchi tarmog‘i sifatida.
2. Fanning o‘rganish obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari.
3. Qishloq xo‘jaligi geografiyasi fanining tadqiqot usullari.
4. Qishloq xo‘jaligi geografiyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqalari.

Tayanch iboralar: qishloq xo‘jaligi geografiyasi, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi, dehqonchilik, chorvachilik, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining mavsumiyligi, tovar qishloq xo‘jaligi, an’anaviy qishloq xo‘jaligi, kartografik, taqqoslash, statistika, rayonlashtirish, balans, tarixiy, tizim – tarkib, ekstropolyatsiya usullari.

1. Qishloq xo‘jaligi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning yetakchi tarmog‘i sifatida

Qishloq xo‘jaligini o‘rganish iqtisodiy geografiyaning to‘ng‘ich yo‘nalishidir. Shu bois ko‘pgina mamlakatlarda, jumladan O‘zbekistonda ham iqtisodiy geografiyaga oid tadqiqotlar tarixi qishloq xo‘jaligini o‘rganishdan boshlanadi. Qishloq xo‘jaligi jamiyat rivojlanishi, ijtimoiy mehnat taqsimotining dastlabki shakllaridandir. Shuning uchun yer yuzasidagi eng qadimiy madaniyat o‘choqlari – Nil daryosining quyi qismi, Mesopotamiya, Hind-Gang pasttekisligi, Xuanxe vodiysi, Movarounnahr va boshqalar sug‘orma dehqonchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan. Xo‘jalikning bu turi esa o‘z navbatida jamiyat taraqqiyoti, aniq fanlar rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi xalq xo‘jaligining muhim tarkibiy qismidir. U jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan turli xil mahsulotlar ishlab chiqaradi. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi dehqonchilik (dala ekinlari, sabzovot, poliz, uzum, meva va boshqalar) va chorvachilik (qoramolchilik, cho‘chqachilik, qo‘ychilik, yilqichilik parrandachilik va boshqalar)ni o‘z ichiga oladi.

Dunyoning ayrim mamlakatlarida qishloq xo'jaligiga o'rmon xo'jaligi ham kiritiladi. Bu tarmoqlarning o'zaro bog'liq holda rivojlanishi qishloq xo'jaligida mavjud texnikadan va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlari, sanoatning ko'plab tarmoqlari (yengil va oziq-ovqat sanoati, farmasevtika, parfyumeriya va boshqalar) uchun xomashyo yetkazib beradi. Qishloq xo'jaligi xomashyosidan ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari xalq iste'mol mollarining 3/4 qismini tashkil etadi.


Qishloq xo'jaligi moddiy ishlab chiqarishning eng qadimiy va eng keng tarqalgan tarmog'idir. Dunyoda birorta mamlakat yo'qki, uning aholisi qishloq xo'jaligi va unga yondosh tarmoqlar - o'rmon xo'jaligi, ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullanmasin. Dunyoda bu sohalar deyarli 1,5 mlrddan ortiq aholini band qilgan. Qishloq xo'jaligi xalq xo'jaligining tarmog'i sifatida ishlab chiqarish usuliga xos umumiy iqtisodiy qonunlar asosida rivojlanadi.

2. Fanning o'rganish obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari

Qishloq xo'jaligining rivojlanishi, hududiy tarqalishi va joylashuvi qishloq xo'jaligi geografiasining shakllanishi uchun zamin yaratdi. Bu fan qishloq xo'jaligining paydo bo'lish vaqtidan boshlab vujudga keldi va rivojlanib kelmoqda. *Qishloq xo'jaligi geografiasini fani iqtisodiy geografianing muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining hududiy muammolarini, joylashishi va ixtisoslanishi, rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.* Qishloq xo'jaligi geografiasini o'zining o'rganish obyekti, predmeti va tadqiqot metodlariga ega. *Qishloq xo'jaligi - shu nomli fanning o'rganish obyekti tashkil etadi.* Qishloq xo'jaligi geografiasining predmeti qishloq xo'jaligining rivojlanishi va unga xos bo'lgan xususiyatlar, tabiiy sharoitning qishloq xo'jaligi taraqqiyotiga ta'siri, suv, mehnat va moliyaviy resurslar, ishlab chiqarish fondlari, qishloq xo'jaligi infrastrukturasi kabilardan iborat.

3. Qishloq xo'jaligi geografiasini fanining tadqiqot usullari

Qishloq xo‘jaligi geografiyasini o‘rganishda ko‘plab metod va usullardan foydalaniladi. Ular jumlasiga kartografik, taqqoslash, statistika, rayonlashtirish, balans, tarixiy, tizim – tarkib, ekstrapolyasiya va boshqa usullarni kiritish mumkin (1-rasm). Agrogeografik tadqiqotlarda kartografik metod muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining asoschilaridan biri N.N.Baranskiy ta’biri bilan aytganda, “geografiya karta bilan boshlanib, karta bilan nihoyasiga yetishi kerak”. Karta o‘rganilayotgan hududning kichraytirilgan tasviridir. Ushbu metodda voqea-hodisalar haqidagi barcha birlamchi ma’lumotlar oynadek aks etadi. Muayyan hududda qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishda taqqoslash metodining roli katta. Jumladan, mintaqalarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ixtisoslashuvdagi tafovutlar taqqoslash metodi yordamida o‘rganiladi.



1-chizma. Qishloq xo‘jaligi geografiyasi fanining tadqiqot usullari

Ko‘plab fanlar singari qishloq xo‘jaligi geografiyasi uchun ham statistika metodi eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlardan biridir. Statistik raqamlar, jadvallar, diagramma, grafik va chizmalarni o‘rganish va ularni tahlil qilish asosida agrogeografik bilimlar ortib boradi.


Balans metodi – iqtisodiy geografiya va iqtisodiyot fanlarida eng ko‘p qo‘llaniladi. Balans – biron-bir faoliyatning muvozanatga keltirish lozim bo‘lgan tomonlar o‘rtasidagi nisbatlarning miqdoriy ifodasi bo‘lib, qishloq xo‘jaligi geografiyasida mehnat resuslari balansi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari balansini tuzishda, umuman olganda, qishloq xo‘jaligiga oid statistik ma’lumotlar va jadvallarni tuzishda hamda ularni tahlil qilishda keng foydalaniladi.

Qishloq xo‘jaligi geografiyasida keng qo‘llaniladigan metodlardan yana biri rayonlashtirish metodidir. Qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining hududiy tarkibini chuqur tadqiq etishda, mintaqaviy siyosat yuritishda rayonlashtirish metodining amaliy ahamiyati yuqoridir. Umuman geografiya fanida bo‘lganidek, qishloq xo‘jaligi geografiyasida ham hududiy tarkib, hududiy tizim va hududiy majmua muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo‘jaligining tarmoqlar tarkibi tabiiy shart-sharoitlar, iqtisodiy omillar va qonuniyatlar bilan bog‘liq holda o‘ziga xos hududiy majmualarni shakllantiradi. Fanning eng muhim vazifasi ham aynan ana shunday hududiy majmualarni aniqlash hamda uni kompleks rivojlantirish asosida qishloq xo‘jaligini rayonlashtirishdan iborat.

4. Qishloq xo‘jaligi geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi

Qishloq xo‘jaligi geografiyasi geografiya va iqtisod fanlari oralig‘ida shakllangan iqtisodiy geografiyaning eng qadimiy tarmog‘i bo‘lganligi uchun u iqtisodiy geografiya, shuningdek, iqtisodiyot va tabiiy geografiya qonuniyatlariga amal qiladi. Qishloq xo‘jaligi geografiyasi bilan uzviy aloqador fanlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Geografiya fanlari.
2. Iqtisodiyot fanlari.



2-chizma. Qishloq xo'jaligi geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi

Qishloq xo'jaligi geografiyasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlariga amal qiladi. Ushbu fan o'z mazmuniga ko'ra agrogeografik munosabatlarni o'rganadi. Uning mazmun va mohiyatini qishloq xo'jaligining shakllanishi, majmual rivojlanishi, ixtisoslashuvi va hududiy tashkil etilishiga ta'sir etuvchi qonuniyatlar tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi geografiyasida agrar tarmoqlar har tomonlama, xususan, tarmoq va hududiy tarkibi chuqur o'rganiladi. Shuning uchun bu jarayon turli fan vakillarining ilmiy hamkorligini talab etadi. Iqtisodiy geografik, xususan, agrogeografik tadqiqotlar respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qishloq xo‘jaligi asosiy tarmoq sifatida.
2. Qishloq xo‘jaligi geografiyasining tadqiqot obyekti va predmeti nima?
3. Fanning asosiy maqsadi va vazifalari.
4. Qishloq xo‘jaligi geografiyasining iqtisodiy geografiya fanlari tizimida tutgan o‘rnini tushuntiring.
5. Qishloq xo‘jaligi geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.
6. Qishloq xo‘jaligi geografiyasining tarmoqlar tarkibini aniqlang.
7. Qishloq xo‘jaligi geografiyasining tadqiqot usullari.
8. Qishloq xo‘jaligi geografiyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan olimlarni ko‘rsating.

O

,

Reja:

1. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining joylashishi va rivojlanishiga tabiiy sharoitning ta'siri.
2. Qishloq xo'jaligini joylashishi va rivojlanishida iqtisodiy-ijtimoiy omillarning roli.
3. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishidagi regional xususiyatlar.

Tayanch iboralar: Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish, ixtisoslashtirish, tabiiy omillarning ta'siri, tuproq - iqlim sharoiti, tundra va o'rmon-tundra zonasida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylanishi va ixtisoslanishi, o'rmon, o'rmon-dasht va dasht zonalarida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga iqtisodiy va ijtimoiy omillarning ta'siri, mehnat resurslari omili, aholi malakasi, texnika va transportdan foydalanish.

I

1. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining joylashishi va rivojlanishiga tabiiy sharoitning ta'siri

Qishloq xo'jaligi, birinchi navbatda dehqonchilik tarmoqlari tabiiy sharoitga moslashgan holatda joylashtiriladi. Shu bilan birga, chorvachilik tarmoqlari ham mahalliy tabiiy sharoitlarga moslashtiriladi. Qishloq xo'jaligida dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari ma'lum bir ekologik sharoitda rivojlanadi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarining taraqqiy etishi va joylanishi ko'p jihatdan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va ijtimoiy mehnat taqsimotining qay darajada amalga oshirilganligi bilan belgilanadi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashishi mamlakatning turli hududlarida turlicha xususiyat kasb etadi (3-rasm). Mazkur holatlar, asosan, hududning tabiiy va iqtisodiy geografik sharoitlar natijasida yuzaga keladi. Bunda, eng avvalo:

a) tabiiy geografik vaziyat, ya'ni joyning relyefi (yer usti tuzilishi), yer resurslari va suv zaxiralari bilan ta'minlanganligi, geoekologik vaziyati, agroiqlimiy resurslar: namlik, harorat va tuproq qoplami;

b) iqtisodiy geografik omillar – shaharlar rivojlanishi va urbanizatsiya, transport infratuzilmasi;

v) demografik vaziyat – aholi soni, zichligi, bandligi, yosh va milliy tarkibi;

g) bozor iqtisodiyoti munosabatlari, talab va taklif;

d) mamlakat va mintaqalar eksport salohiyatini mustahkamlash va investitsiya kabilar o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, agroiqtisodiyot tarmoqlarini ixtisoslashuvi va hududiy tashkil etilishiga ilmiy-texnika taraqqiyoti ham sezilarli ta‘sir etadi.

Yer-suv resurslari qishloq xo‘jaligi shakllanishi va rivojlanishining asosi hisoblanadi. Ayniqsa, ularning o‘zaro miqdor va sifat ko‘rsatkichlari agrar tarmoqlar joylashuvi va ixtisoslashuvini belgilab beradi. Masalan, yer resurslari mo‘l, suv resurslari taqchil hududlarda asosan ekstensiv yo‘nalishdagi (cho‘l-yaylov chorvachiligi), ham yer, ham suv resurslari bilan yaxshi ta‘minlangan yoki yer resurslari nisbatan kamroq hududlarda ko‘proq intensiv qishloq xo‘jaligi tarkib topadi. Shu bilan birga, mazkur resurslar qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvini takomillashtirishda ham juda muhim. Xususan, suv resurslari sholichilik va baliqchilik sohalari taraqqiy etishining birlamchi omilidir. Yer esa, qishloq xo‘jaligida bir vaqtning o‘zida ham mehnat predmeti, ham mehnat vositasi hisoblanadi.

Agroiqlimiy resurslar – namlik, harorat va tuproq qoplami xususiyatlari qishloq xo‘jaligi ekinlari va chorva mollarining o‘sib rivojlanishi va hosildorligi uchun zarurdir. Namlik, ya‘ni yog‘in-sochin miqdori, ayni vaqtda, yetishtirilayotgan mahsulotlar hajmi va sifatini belgilaydi. Binobarin, tabiiy namlikdan foydalanib agrar mahsulot tayyorlashda, ya‘ni bahorikor (lalmikor) yerlarda qishloq xo‘jaliklarini tashkil etish va rivojlantirishda namgarchilikning ahamiyati katta. Bunda yog‘in miqdori yiliga 200 mm.dan yuqori bo‘lishi va u, asosan, bahor oylariga to‘g‘ri kelishi lozim. Aks holda, bunday hududlarda cho‘l-yaylov chorvachiligi shakllanadi. Shunday ekan, ekinlarni ekish va chorvalarni boqishda qor va yomg‘ir yog‘ish davri va miqdori hamda tuproq namligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda dastlab ekilayotgan

ekinlardan samarali hosil olish va boqilayotgan hayvonlar mahsuldorligini oshirish uchun qulay namlik miqdori muhimdir.

Harorat ham namlik kabi qishloq xo‘jaligi ekinlari va chorva mollarining o‘shishi va rivojlanishi uchun zarur sanaladi. Masalan, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ekin turi – g‘o‘za uchun foydali harorat (yig‘indisi yil davomida sutka haroratining +100 S dan yuqorisi) 20000 S, ijobiy harorat (erta bahordan kech kuzgacha musbat haroratning yig‘indisi) esa undan ikki barobar ko‘p ya‘ni 40000 S bo‘lishi maqsadga muvofiq. O‘zbekiston Respublikasining janubi (Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari) bilan shimoliy (Qoraqalpog‘iston Respublikasi va b.) hududlariga quyosh radiatsiyasi bir xil tushmaydi. Bu jarayon joyning relyefiga bog‘liq holda ham o‘zgaradi. Demak, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini hududiy tashkil etishda, ularning samaradorligini oshirishda joyning harorat ko‘rsatkichlarini e‘tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Bunda ham, albatta, ekinlar va chorvalarning qaysi haroratda yaxshi rivojlanishini o‘rganish talab etiladi.

Tuproq unumdorligi yoki uning namlik sig‘imi, tarkibi (mexanik, fizik, biologik va kimyoviy), suv o‘tkazuvchanligi, undagi ozuqa moddalarining umumiy zaxirasi joylarda tabiiy va antropogen ta’sirlar natijasida turlicha shakllangan. Shundan kelib chiqqan holda, qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi va ixtisoslashuvi belgilanadi.

Geoekologik vaziyat, ya‘ni yerning sho‘rlanganlik darajasi, cho‘llashish, eroziya, jarlanish, yer osti suvlarining yuzaga nisbatan joylashganligi kabilar ham qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining ixtisoslashuvi va joylanishini belgilab beradi. Binobarin, sholichilik tarmog‘i yer osti suvlarining yuzaga nisbatan yaqin joylashgan hududlarda shakllansa, yerlarning sho‘rlanganlik darajasi, tuproq eroziyasi hamda yog‘ingarchilik ko‘p tushadigan tog‘ va tog‘ oldi hududlarida jarlanishlar qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligiga bevosita ta’sir etadi.

Aholi soni va joylashuvi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining hududiy ixtisoslashuvi va rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, mamlakatimizning yer resurslari taqchil, mehnat resurslariga boy

hududlari intensiv dehqonchilik, aksincha, yer resurslari ko'p, ammo aholi siyrak joylashgan hududlar esa, ko'proq ekstensiv chorvachilik xo'jaliklariga ixtisoslashgan. Shuningdek, aholining milliy tarkibi ham ba'zi tarmoqlarning rivojlanishida yetakchi o'rin tutadi. Chunonchi, respublikamizda cho'chqachilik xo'jaliklari ko'proq nomahalliy aholi, ya'ni rus, ukrain va boshqa millatlar tomonidan tashkil etilmoqda. Koreys millati esa sholichilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning taraqqiy etishida faol ishtirok etmoqda.

Urbanizatsiya jarayoni ko'proq shahar va shahar atrofi qishloq xo'jaligining ixtisoslashishida muhim rol o'ynaydi. Yirik shaharlar yaqinida shakllangan xo'jaliklar, asosan, shahar aholisi talablaridan kelib chiqqan holda, ularning ehtiyojlarini qondiruvchi qishloq xo'jaligi tarmoqlariga yo'naltirilgan bo'ladi. Binobarin, sabzavotchilik, bog'dorchilik, sut-go'sht chorvachiligi, parrandachilik va hokazo. Ushbu mahsulotlarni shaharlar yaqinida yetishtirilishining asosiy sababi yirik iste'mol markazlariga sifatli mahsulotlar yetkazib berish, mazkur hududda infratuzilmaning qulayligi, tayyorlangan mahsulotni to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilarga sotish va boshqalar. Agar bunday mahsulotlar shaharlardan uzoqroqda tayyorlansa, u holda bozorlarga yetib kelgunga qadar uning sifati salbiy tomonga o'zgarishi mumkin. Chunki bunday mahsulotlar kamtransporttabelli, ya'ni tashishga noqulay va qisqa vaqt ichida asl holini yo'qotadi. Transportning barcha turlari, transport vositalari, xususan yo'l tarmog'i infratuzilmasining (avtomobil va temir yo'llar) rivojlanganlik darajasi qishloq xo'jaligi tarmoqlarini oqilona joylashtirish, ixtisoslashuvini chuqurlashtirish, yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash korxonalari hamda iste'molchilarga tez va sifatli yetkazib berishda alohida o'ringa ega. Bunda, asosan, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan avtomobil yo'llari juda muhim hisoblanadi. Chunki, bu yo'llar agrar sohada mahsulot yetishtirilyotgan dala maydonlariga mineral o'g'itlar olib kelishda va yetishtirilgan hosilni kerakli joyga yetkazishda ayniqsa zarurdir.

Tabiiy geografik omillar

- Tabiiy geografik o‘rin
- Relyef va litologik tuzilishi
- Agroiqlimiy sharoit
- Tuproq turlari va unumdorligi
- Suv resurslari bilan ta‘minlanganlik
- Sizot suvlari sathi

Iqtisodiy geografik omillar

- Iqtisodiy geografik o‘rin
- Yer va suvdan foydalanish darajasi
- Transport infratuzilmasi
- Qayta ishlash sanoati
- Mehnat resurslari
- Iste‘mol darajasi

Ijtimoiy geografik omillar

- Agrar siyosat
- Bozor infratuzilmasi
- Mulkchilik shakllari
- Investitsiya muhiti
- Aholi o‘sishi va joylanishi
- Aholining mehnat malakasi

Tashkiliy omillar

- Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va boshqarish
- Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini nazorat qilish
- Moddiy-texnika ta‘minoti
- Qishloq xo‘jaligi ekinlarini to‘g‘ri joylashtirish
- Soha rahbarlarining kasbiy va huquqiy bilimlarini oshirish

Huquqiy omillar

- Xo‘jaliklarining huquq-manfaatlari, samarali faoliyati, mulkiy munosabatlari ishonchli himoyalanihini ta‘minlashga qaratilgan qonunchilik va meyoriy-huquqiy bazani takomillashtirish
- Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish, uni ko‘p ukladlilik asosida amalga oshirilishi uchun huquqiy shart-sharoitlarni yaratish

3-chizma. Qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga ta‘sir etuvchi geografik omillar

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishda xalqaro yo‘llar va maxsus ixtisoslashgan transport turlarining ahamiyati katta. Bugungi kunda, transport uyushmalari tomonidan zamonaviy sovutish qurilmalariga ega bo‘lgan maxsus ixtisoslashgan mashinalardan (refrejirator) foydalanish keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Bunday avtoullovlar fermer xo‘jaligi mahsulotlarining sifatini saqlagan holda (meva, uzum, sabzavot, poliz, sut kabilar) uzoq masofaga olib borish imkonini beradi. Yuqorida keltirilgan tabiiy va iqtisodiy geografik sharoitlar bilan birga, qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi, rivojlanishi va joylashishiga iqtisodiy sharoitlar, siyosiy omillar, irrigatsiya infratuzilmasi, ilmiy-texnika taraqqiyoti va, albatta, investitsiya muhiti ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Ushbu omillarni kompleks o‘rganish asosida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini to‘g‘ri ixtisoslashtirish, oqilona joylashtirish va samarali rivojlantirishga erishiladi.

Iqtisodiy sharoitlar qishloq xo‘jaligi tarmoqlari rivojlanishi va joylashishiga bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan sharoitda, eng avvalo, mahsulotlar yetishtirish va sotish ichki va tashqi bozorda talab mavjudligi, shuningdek, respublikaning boshqa mintaqalariga nisbatan ushbu bozorlarning xususiyatlari bilan izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan qishloq xo‘jaliklari tarmoqlarini joylashtirishga ta‘sir etuvchi mazkur sharoitlarni quyidagicha tavsiflash mumkin: mahsulotlarni sotish bozorlarining hajmi va talab darajasining o‘zgarishi; bozorlarda agrar soha mahsulotlari bahosining shakllanishi; mahsulot yetishtiruvchi mulkchilik shakllarining iqtisodiy erkinligi; xo‘jaliklarning bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlari; mehnat resurslari bilan ta‘minlanganligi; moddiy-texnika resurslari baholari va ularni xarid qilish imkoniyati; mahsulot yetishtirish jarayonida servis xizmatlarining ko‘rsatilishi va ularning narxlari.

Ushbu holatlar tabiiy va iqtisodiy geografik sharoitlar bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatib, mahsulotlar yetishtirish istiqbolini belgilashda hisobga olinishi shart bo‘lgan omillar sirasiga kiradi.

Investitsion muhit. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo‘jaligida raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni

ta'minlaydigan yuqori samarali texnologiyalarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday ilg'or texnologiyalarni sotib olishda qishloq xo'jaligida faoliyat olib borayotgan mulkchilik shakllari moliyaviy jihatdan zaiflik qilish holatlari kuzatilmoqda. Aynan shunday vaziyatda xo'jaliklarga xorijiy va ichki investitsiyalarni jalb qilish va ulardan oqilona foydalanish talab etiladi. Binobarin, yerga ishlov beruvchi, yetishtirilgan hosilni yig'ib oluvchi, tashuvchi traktorlar hamda mahsulotni qayta ishlovchi va qadoqlovchi mashina-uskunalarni xarid qilishda investorlar mablag'laridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Fan, texnika va texnologiyalar yutuqlarini tatbiq etmasdan qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish mumkin emas. Chunki, agroiqtisodiyotda zamonaviy texnika va texnologiyalardan keng foydalanish natijasida mexanizatsiyalash darajasi oshadi, mahsulot ishlab chiqarishda qo'l mehnatidan foydalanish kamayadi. Shuningdek, fan va texnikaning rivojlanishi ekinlarning yangi, yuqori hosildor navlari va gibrirlarini, chorva hayvonlarining mahsuldor zotlarini joriy etishga, ekinlarni o'stirish va chorvalarni boqishning ilg'or texnologiyalarini qo'llashga, ularni zararkunanda va kasalliklardan himoyalashning kimyoviy va biologik vositalaridan keng foydalanishga, mazkur soha boshqaruvida yangi shakl va usullarini joriy etishga, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar o'rtasida o'zaro aloqalar samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan sharoitlar fermer xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish va joylashtirishga turlicha ta'sir etadi. Bu, asosan, dehqonchilikda ekin turlari, chorvachilikda chorva hayvonlarining turlari, hududlarning tabiiy va iqtisodiy geografik xususiyatlari, ishlab chiqarishni tashkil etish tizimiga bog'liq ravishda kechadi. Ta'kidlash joizki, ushbu omillarning ba'zilari hal qiluvchi, boshqalari to'ldirib boruvchi kuchga ega bo'lishi mumkin. Umuman olganda, sohani joylashtirish va rivoji uchun yuqorida zikr etilgan omillarni hisobga olgan holda amalga oshirish ko'zlangan natijalarga erishishga asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining taraqqiy etib borishi bilan, qo'riq hududlarni ekin oborotiga jalb qilish, sug'orib dehqonchilik qilinadigan ekin maydonlarining ortishi, mavjud daryolar suv resurslarining katta qismini sug'orma dehqonchilikka jalb qilish, dehqonchilikda kimyoviy moddalarni ko'p qo'llash, yerlarning meliorativ holatini yomonlashuvi, sho'rlanish darajasini ortib borishi nohush ekologik vaziyatning tobora keskinlashtirib yuboradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining joylashishi va rivojlanishiga tabiiy sharoitning ta'siri.
2. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida iqlim omilining roli.
3. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida tuproq-suv omillarining roli.
4. Qishloq xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishidagi regional xususiyatlar.
5. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining mavsumiy xarakterga ega ekanligi.
6. Qishloq xo'jaligining joylanishi va ixtisoslanishiga iqtisodiy va ijtimoiy omillarning ta'siri.
7. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarining ixtisoslanishiga aholi malakasining ta'siri.
8. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida me'nat resurslaridan foydalanish.
9. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida transport omili.
10. Qishloq xo'jaligini joylashtirish va rivojlantirishga ekologik omilning ta'siri.

U C H I

Reja:

1. Yer sayyorasining umumiy maydoni.
2. Yer kategoriyalari.
3. Yerdan qishloq xo'jaligida foydalanish darajasi.

Tayanch iboralar: yer sayyorasining sathi, yer kategoriyalari, yer fondi, mahsuldor yerlar, qishloq xo'jalik yerlari, haydaladigan yerlar, kam mahsuldor yerlar, unumsiz yerlar, FAO, O'zbekiston yer fondi, bahorikor yerlar, yaylov va o'tloqzorlar, qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlar.

1. Yer sayyorasining umumiy maydoni

Insoniyat XX asrgacha tabiiy manbaalardan reja asosida foydalanmaganligi oqibatida yer yuzasidagi fauna va flora, tuproq qatlamiga ancha zarar yetkazildi. Yer sathi chegaralanganligini hisobga olsak, har bir qadam sayyoramiz uchun foyda yoki zarar keltirishini hisoblagan holda tashlanishi lozimligini XXI asr bo'sag'asida tushinib yetdik. Yer ulkan boylik manbasi ekanligini yanada to'laroq his etmoq uchun sayyoramizning maydoniga e'tibor bersak, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin: Yerning quyidagi kategoriyalari ajratiladi:

I. Mahsuldor yerlar. U quyidagilarga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jalik yerlari - haydaladigan yerlar, bog' va plantatsiyalar, o'tloq va yaylovlar.
2. O'rmon va butazorlar.

II. Kam mahsuldor yerlar. Quyidagilarga bo'linadi:

1. Aholi yashaydigan, sanoat va transport yo'llari egallagan yerlar.
2. Ko'l, daryo, suv omborlari.
3. Tundra va o'rmon tundra.
4. Botqoqliklar.
5. Cho'llar.

III. Unumsiz yerlar:

1. Insoniyat tomonidan unumsiz holatga keltirilgan yerlar.
2. Qumliklar va jarliklar.
3. Muzlik va qor bilan qoplangan yerlar.

IV. Antarktida:

2. Yer kategoriyalari

Yer sayyorasining yuzasi 51020 mln.ga bo'lib, shundan 14915 mln.ga yoki 1/4 qismi quruqliklarga, qolgan 36105 mln.ga Dunyo okeaniga to'g'ri keladi. Umumiy yer fondi 13392 mln.ga bo'lib, shundan 8608 mln.ga (64%) mahsuldor yerlarga to'g'ri keladi. Mahsuldor yerlarning 4553 mln. ga qishloq xo'jaligi yerlari bo'lib, buning faqat 30 foizidagina dehqonchilikda foydalanish mumkin. Qolgan qismi o'tloq va yaylovlar, o'rmon va butazorlar, bog' va plantatsiyalarga to'g'ri keladi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yer sayyorasida qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan dehqonchilik uchun qulay yerlar maydoni juda kam.

Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bahosiga ko'ra, quruqlikning 70 foizi unumsiz yerlardan iborat. Chunki iqlim, tuproq yoki relyef sharoiti dehqonchilik qilishga imkon bermaydi. Shunga ko'ra quruqlikning 20 foizi qir-adirlar va 10 foizi kuchsiz unumsiz tuproqlardir.

Yerni qishloq xo'jaligida foydalanish darajasi geografik materiklar, kontinentlar va mamlakatlar bo'yicha juda xilma-xil. Chunki u tabiiy va iqtisodiy sharoit bilan uzviy bog'liq. Eng ko'p haydaladigan yerlar Yevropada (32 %), o'rmonga boy joy - Janubiy Amerika (47%), yaylovlarga boy qit'a esa Avstraliya (54 %) hisoblanadi.

Hindistonda yer fondining 54 foizi, Argentinada 40 foizi haydaladi. Bu ko'rsatkich dunyoning turli mamlakatlarida turlicha. Insoniyat oldida dehqonchilik qilinadigan haydalma yerlarni ko'paytirish vazifasi turibdi. Hozirda 1,5 mlrd. ga haydalma yerlar maydonini 303,6 mlrd. ga yetkazish mumkin. Shunday qilib, insoniyat yer fondining ko'p qismidan hozircha to'liq foydalanmay kelyapti. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, (Andrishin M.V., Loyko P.F. 1980 y.)

ekologik vaziyatni inobatga olgan holda haydaladigan yer maydonlarini ko'paytirish mumkin.

Agar XX asrda dehqonchilik asosan 4 ta tuproq turiga – qora tuproq, preriy qora tuprog'i, kulrang o'rmon va qo'ng'ir o'rmon tuproqlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, XXI asrda tropik ferralitlardagi qizil va qizg'ish, sariq, sariq-qizil, qizil tuproqlarga yetib keladi. Bu tuproqlarni o'zlashtirish, gumusli va keskin arid tropik va subtropik iqlim sharoitiga to'g'ri keladi. Ularga ko'p mablag' sarflanishi, shuningdek, meliorativ, agrokimyoviy va tuproqni himoya qilish tadbirlarni ishlab chiqish kerak bo'ladi.



4-chizma. Qishloq xo'jaligi yerlarining tasnifi

Qishloq xo'jaligi avvalo yer bilan chambarchas bog'liq. Yerni e'zozlash, undan oqilona foydalanish O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yuritishning bosh omilidir. Jahon yer fondidagi mahsuldor yerlarning 4553 mln. gektari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga yaroqli yerlardir. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar deb, xo'jalik hududidagi yerlarning don, texnika ekinlar, sabzavot, kartoshka, poliz, meva hamda chorvachilik uchun yem-hashak yetishtirish maqsadida foydalaniladigan qismiga aytiladi. Bu umumiy maydoni degan tushunchadan farq qiladi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga mo'ljallangan yerlar ularning qanday maqsad uchun ishlatilayotganligiga, ishlab chiqarishning

ixtisoslashganligiga, yerning meliorativ holatiga qarab, quyidagi turlarga bo‘linadi.

1. Haydaladigan yerlar.
2. Sug‘oriladigan yerlar.
3. O‘tloqlar.
4. Yaylovlar.
5. Ko‘p yillik daraxtlar (bog‘, tokzor, tutzor...).

3. Yerdan qishloq xo‘jaligida foydalanish darajasi

Yer resurslari, qishloq va o‘rmon xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lib, yersiz bu tarmoqlarning bo‘lishi mumkin emas. Qishloq xo‘jaligida inson o‘z faoliyatini yerga qaratadi, unga ishlov beradi, ekin ekib parvarish qiladi, natijada yer mehnat predmeti sifatida namoyon bo‘ladi. Madaniy ekinlar yetishtirish jarayonida kishilar tuproqning mexanik, kimyoviy, biologik xususiyatlaridan foydalanib, uni mehnat quroliga ham aylantiradi. Yer resurslari ishlab chiqarish vositasi sifatida bir necha o‘ziga xos xususiyatlarga ega Ular quydagilardan iborat :

1. Yerdan foydalanish doimiy o‘zgarmas joy bilan bog‘liq. Uni ishlab chiqarish vositasi sifatida bir joydan boshqasiga ko‘chirib bo‘lmaydi, tabiat tomonidan yaratilgan tuproq unumdorligi qayerda mavjud bo‘lsa, undan o‘sha yerdagina foydalanish mumkin. Bu esa ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga, ayniqsa, qishloq xo‘jaligiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

2. Yer resurslaridan foydalanish boshqa agroiqlimiy omillar (yorug‘lik, harorat, namlik) va o‘simliklar o‘sishi mumkin bo‘lgan davriy marom bilan ham bog‘liq. Shu o‘rinda mehnat jarayonini tashkil etish ham fasliy maromga mos holda bo‘lishi lozim.

3. Qishloq va o‘rmon xo‘jaligida ishlab chiqarish jarayonida tabiatdan resursning o‘zi emas, faqatgina uning yordamida o‘simlik mahsuloti olinadi va shu bois uning asosiy xususiyati unumdorlik hisoblanadi. Vaholanki, boshqa ishlab chiqarish vositalari foydalanish jarayonida tabiatdan uzib olinadi, eskiradi va tugaydi. Yer esa tirik tabiat izmida qoladi, undan oqilona foydalanilganda yangilanib, unumdorligi

ortib boradi.

4. Yerdan tashqari barcha ishlab chiqarish vositalari inson mehnatining mahsulidir. Yer esa tabiatning mahsuli shaklida mehnatdan oldin ham mavjud bo'lgan. Ayni vaqtda yerni ishlab chiqarish vositasi sifatida miqdor jihatdan ko'paytirish yoki boshqa resurs bilan almashtirish imkoniyati yo'q. Chunki uning yuzasi (maydoni) yer sharining quruqlik qismi yoki davlat chegarasi doirasidagi hudud bilan chegaralangandir.

Yer yuzasida tuproq eroziyasi va deflyatsiya natijasida har yili 6-7 mln. ga yer ishdan chiqmoqda. Yer maydonlari, ayniqsa, ekin ekiladigan yerlardan qurilish ishlari uchun ajratilib kamayib bormoqda.

Yer resurslarini himoya qilish o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi :

1. Shamol va suv eroziyasini rivojlanishini oldini olish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash.

2. Tuproqni antropogen, texnogen va boshqa ofatlardan kamroq ifloslanishini monitoringini yaratish.

3. Yerning sho'rlanish va botqoqlanish sabablari, ularni oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish.

4. Tuproqni turli toksikatlardan va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishini oldini olish chora-tadbirlarini ko'rish.

Savol va topshiriqlar:

1. Yer - qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi
2. Yer sayyorasining umumiy maydoni. Yer kategoriyalari.
3. Yerning materiklar, geografik kengliklar va ayrim davlatlar bo'yicha taqsimlanishi.
4. Jahon miqyosida tuproq turlari va ularning tarqalishi.
5. Yerdan foydalanishda tabiiy va iqtisodiy sharoitning roli.
6. Yerdan qishloq xo'jaligida foydalanish darajasi.
7. Yer yuzasida har yili necha gektar yer foydalanish uchun yaroqsizlanadi?
8. Haydaladigan yerlar va ularni kengaytirish muammosi.

TO‘RTINCHI MAVZU. QISHLOQ XO‘JALIGINING XALQ

Reja:

1. Qishloq xo‘jaligi va uning iqtisodiyotda tutgan o‘rni.
2. Qishloq xo‘jaligi geografiasining amaliy masalalari.
3. O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining tutgan o‘rni va ahamiyati.
4. Respublikamiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar.

Tayanch iboralar: milliy iqtisodiyot, iqlimiy-tabiiy sharoit, yer fondi, musbat haroratlar yig‘indisi, qishloq xo‘jaligi yerlari, ko‘p tarmoqli iqtisodiyot.

Qishloq xo‘jaligi va uning iqtisodiyotda tutgan o‘rni

Mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi tarmog‘i muhim ahamiyatga ega. Chunki respublikamiz aholisining 48,4 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi va ulaming turmush farovonligi mazkur tarmoq rivoji bilan uzviy bog‘liqdir. Bundan tashqari, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida ham qishloq xo‘jaligi tarmog‘i sezilarli salmoqqa ega.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i mamlakatimiz agrosanoat majmuasining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, uning quyidagi ahamiyati mavjud:

Birinchidan, u aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlaydi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda mazkur tarmoqning o‘rni beqiyosdir, chunki aholi iste‘mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari, asosan, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida yetishtiriladi.

Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligi yengil va oziq-ovqat sanoati uchun xomashyoning asosiy qismini yetkazib beradi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanish darajasi sanoat ushbu sohalarining ishlab chiqarish miqdori va samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, to‘qimachilik sanoatida barcha moddiy xarajatlarning 40 foizini qishloq xo‘jalik xomashyosi

tashkil qilsa, ushbu ko'rsatkich qand ishlab chiqarish sanoatida 70 foizni, sut va yog' mahsulotlari ishlab chiqarishda esa 80 foizga yaqinni tashkil qiladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi mamlakat og'ir sanoatining rivojlanish sur'atiga va darajasiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi tarmog'i yirik miqdorda ishlab chiqarish vositalarini iste'mol qilgani holda, qishloq xo'jalik texnikalari va melioratsiya mashinalari ishlab chiqaruvchilar hamda qishloq xo'jalik mashinasozligi, kimyo sanoati, ayniqsa, mineral o'g'itlar ishlab chiqarishga faol ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ketadigan moddiy xarajatlarning asosiy qismini sanoat tarmog'i yetkazib beradigan ishlab chiqarish vositalari tashkil qiladi (YMM, ehtiyot qismlar, mineral o'g'it, omuxta yem va boshqalar).

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi tarmog'i mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 50 foizga yaqini qishloq joylarda istiqomat qiladi. Aholini ish bilan ta'minlash, ularning turmush farovonligini oshirish ko'p jihatdan mazkur tarmoqda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijalariga bevosita bog'liqdir. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida band bo'lganlarning jami mehnat resurslaridagi salmog'i pasaygan bo'lsa-da, ushbu tarmoq qishloq aholisini ish bilan ta'minlash va ularning turmush farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi roli yana shu bilan aniqlanadiki, u mamlakatning iqtisodiy salohiyatini belgilab beruvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda ham sezilarli salmoqqa ega. Bu tarmoqda mamlakat yalpi ichki mahsulotining salmoqli qismi yaratiladi. 2024 - yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 17,5 foizi qishloq xo'jaligi tarmog'ida yaratilgan. Kelajakda boshqa tarmoqlar izchil rivojlanishi natijasida qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi kamayishi mumkin. Lekin mamlakatimiz iqtisodiyotida mazkur tarmoqning o'рни va ahamiyati sezilarli darajada qolaveradi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari va ularni qayta ishlash hisobiga olingan mahsulotlar mamlakatimiz jami eksporti tarkibida sezilarli salmoqni egallaydi. Masalan, 2024-yilda mamlakatimiz eksportining 8,6 foizi faqatgina paxta tolasi hissasiga to‘g‘ri kelgan.

2. Qishloq xo‘jaligi geografiasining amaliy masalalari

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlarni shakllantiradigan, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta‘minlash imkoniyatini beradigan tadbirlar ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Bunda sohaga oid turli dasturlarning qabul qilinib, hayotga tatbiq etilishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada qishloq xo‘jaligining yuqori sur‘atlarda rivojlanishini ta‘minlash va shu orqali respublika iqtisodiyotini yuksaltirishga erishilmoqda.

O‘zbekistonning qulay iqlimiy-tabiiy sharoiti va unumdor vodiyo-vohalari qadimdan dehqonchilik qilish uchun qulay imkoniyat yaratgan. Mamlakatimiz o‘rtacha kengliklar ($37^0 - 45^0$) ning chala cho‘l va cho‘l zonasida joylashganligi uchun havo ochiq va quyoshli kunlar ko‘p bo‘ladi. Masalan, Toshkentda yiliga o‘rtacha 2889 soat (bir yil – 8766 soat 9 minut, 9 sekund ekanligini hisobga olinsa, bu katta ko‘rsatkich) quyosh nurlari tushsa, bu miqdor Termizda 3019 soatga teng. Qizilqum, Mirzacho‘l, Qarshi cho‘llarida esa quyosh 4460 soat nur sochib turadi.

Musbat haroratlar yig‘indisi Ustyurtda 3000^0C dan ortiq, Surxondaryoda esa 5900^0C ga yetadi. Respublikamizda quyoshli kunlar uzoq (190-270 kun) davom etganligi uchun qishloq xo‘jalik ekinlaridan yiliga 2-3 marta hosil olish, vegetatsiya davri uzoq davom etadigan, issiqsevar o‘simliklarni yetishtirish imkoniyati mavjud. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotiining eng muhim va yirik, mexanizatsiyalashgan, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga, yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining xom ashyoga bo‘lgan talabini qondiradigan tarmog‘idir. Respublika qishloq xo‘jaligida mamlakatning iqlim, yer-suv va mehnat resurslaridan hamda xalqimizning asrlar davomida to‘plangan dehqonchilik

madaniyatidan unumli foydalanish negizida paxtachilik va donchilik yetakchi tarmoq sifatida vujudga kelgan.

O‘zbekistonning tabiiy sharoiti dehqonchilikni rivojlantirishga qancha qulaylik yaratgan bo‘lsa, chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish uchun ham shunchalik qulaydir. Obikor dehqonchilik hududlarida qoramolchilik, asalarichilik, qo‘ychilik, cho‘l va tog‘oldi zonalarida qorako‘lchilik, tuyachilik, yilqichilik, echkichilik, daryo va ko‘l havzalarida baliqchilik, darrandachilik rivojlangan. Mamlakatimiz hududidagi cho‘llardan yil davomida yaylov sifatida foydalanish mumkin. Qishloq xo‘jaligi yerlarining 7,7% chorva mollari ozuqa bazasini yaratish uchun ajratilgan. Bularda yiliga 10 mln tonnadan ortiq pichan va silos yig‘ishtirib olinadi. Respublikamiz aholisining moddiy farovonligini oshirishda qishloq xo‘jaligining o‘rni beqiyos bo‘lib, aholi ehtiyoji uchun zarur tovarlarning 85%i mazkur tarmoq zimmasiga to‘g‘ri keladi.

Respublikada yiliga o‘rtacha 3,4-3,5 mln. t paxta xomashyosi yoki 1,5 mln t paxta tolasi ishlab chiqariladi. Paxta yalpi hosili bo‘yicha O‘zbekiston jahonda 5-o‘rinda, paxta tolasi eksporti bo‘yicha esa 2-o‘rinda turadi. Mustaqillik yillarida mamlakat aholisining ehtiyojini qondirish, paxta yakka hokimligiga barham berish maqsadida don “mustaqilligi” uchun qizg‘in kurash olib borildi. Paxta maydonlari kamaytirilib, donli ekinlar maydoni kengaytirildi. Natijada don yalpi hosili 6 mln.t dan ortdi.

O‘zbekiston yer fondi 44,7 mln ga bo‘lib, respublikamizda har 100 ga yerdan 7 ga dehqonchilikka yaroqli. Bu esa qishloq xo‘jaligida har bir gektar yerdan tejab-tergab, oqilona foydalanish lozimligini ko‘rsatadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati, aholi turmush farovonligini oshirish, iqtisodiyotning barqaror holatini ta‘minlash natijalari qishloq xo‘jaligining rivojlanish darajasiga uzviy bog‘liqdir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin mamlakat qishloq xo‘jaligida chuqur islohotlarni amalga oshirish davri boshlandi. Respublika hukumati mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmog‘i bo‘lgan qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish,

mulkchilikning nodavlat shakllariga o'tish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini yo'lga qo'yish kabi masalalarni hal etishga e'tibor berdi. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning huquqiy asoslari yaratildi. O'nlab qonunlar, hukumat qarorlari ushbu sohada olib borilayotgan islohotlarning qonun me'yorlari va tartib-qoidalarga muvofiq amalga oshirilishida asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Qishloq xo'jaligida ko'p tarmoqli iqtisodiyotni shakllantirish, turli mulkchilik hamda xo'jalik yuritish shakllarini faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan huquqiy me'yoriy asoslar yaratildi. Jumladan, "Yer to'g'risida"gi (20.06.1990), "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi (19.11.1991), "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi (03.07.1992), "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida"gi (09.12.1992) "Yer solig'i to'g'risida"gi (06.05.1993), "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi (06.05.1993) va boshqa qonunlar hamda hukumat qarorlari qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisodiyot poydevorini yaratishga yo'l ochdi. 1992-yildan boshlab, birinchi navbatda, paxta yakkahokimligini bartaraf etish va ekin maydonlari tarkibini ilmiy asosda tuzish tadbirlari ko'rildi. Yangi iqtisodiy sharoitlarda O'zbekistonning eng muhim oziq-ovqat resurslari bilan o'zini-o'zi ta'minlashga erishish vazifasi qo'yildi. Respublika g'alla mustaqilligini ta'minlash bo'yicha dastur ishlab chiqildi va bosqichma - bosqich amalga oshirila boshlandi. Paxta maydonlari qisqartirildi, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash ishlari davom ettirildi.

Donli ekinlar maydoni 1993-yilda 300 ming gektarga kengaytirildi. 1994-yilda respublikada 1,3 mln. tonna g'alla yetishtirildi. 1995-yili ekin maydonlarining tarkibiy tuzilishi o'zgartirilib, g'alla maydonlarining ulushi 40%ga yetkazildi va 3,3 mln tonna g'alla tayyorlandi. 1991-93-yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda 500 ming gektardan ko'proq hosiddor yerlar shaxsiy tomorqa xo'jaliklari yuritish uchun ajratib berildi, uning umumiy maydoni 750 ming gektarga yetkazildi.

Islohotlarning birinchi bosqichida qishloqda fermer va dehqon xo‘jaliklari kabi yangi xo‘jalik yuritish shakllari paydo bo‘ldi. Respublika Prezidentining 1994-yil 21-yanvardagi “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

1992-1995-yillarda qishloq xo‘jaligi sohasidagi zarar ko‘rib ishlayotgan davlat xo‘jaliklari, iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlamagan jamoa xo‘jaliklari xo‘jalik yuritishning shirkatlar, ijarachilar uyushmalari, xususiylashtirilgan fermalar kabi iqtisodiy samarasi ko‘proq shakllariga o‘tkazildi, oila, jamoa pudrati rivojiga sharoitlar yaratildi. Natijada 1995-yili qishloq xo‘jaligida yalpi mahsulot yetishtirishda pasayish sur‘atlari to‘xtatilib, 1994-yilga nisbatan 2,3% o‘sishga erishildi, dehqonchilikdagi o‘sish esa 5,6% bo‘ldi. 1998-yil 18-martda Respublika Prezidentining “1998-2000-yillardagi davrda qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi to‘g‘risida”gi farmoni e‘lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 11-sessiyasida 1998-yil 30-aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi” tasdiqlandi, “Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida”, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida” (2004-yil 26-avgustda yangi tahrirda), “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”, 1998-yil 28-avgustda “Davlat kadastrini to‘g‘risida” qonunlari qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 22-dekabrda “Xo‘jalik boshqaruv organlari tizimini isloh qilish to‘g‘risida”gi buyrug‘iga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-avgustdagi qaroriga asosan “O‘zdonmahsulot” Davlat aksionerlik korporatsiyasi “O‘zdonmahsulot” ochiq turdagi aksionerlik kompaniyasiga aylantirildi va unga muvofiq

- Davlat ehtiyoji uchun don va urug‘liklarni sotib olish, joylashtirish va saqlashni ta‘minlash;

- Iqtisodiyot tarmoqlari va Respublika aholisining ehtiyojini qondirish maqsadida turli un navlari, yorma, ozuqa-yem, shuningdek, non, makaron va shirinlik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkillashtirish;

- Non mahsulotlari tarmog'ining shirkatlar va fermerlik xo'jaliklari o'rtasidagi o'zaro aloqa mexanizmini mukammallashtirish hamda donni qabul qilish, uning sifatini aniqlash va hisoblash, donning sifatini doimiy nazorat qilish tizimini yaratishda bevosita qatnashish;

- Non mahsulotlari tarmog'idagi korxonalarni modernizatsiyalashda qayta texnikaviy jihozlanishda ko'mak berish, bu maqsad uchun chet el investitsiyalarini keng jalb qilish;

- Non mahsulotlari tarmog'idagi korxonalarga xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirishda korxonalarni axborot bilan ta'minlash "O'zdonmahsulot" AK zimmasiga yuklatildi.

"O'zdonmahsulot" AK tarkibida 44 ta korxonalar (25 ta korxonalar o'z bo'limlariga ega) mavjud bo'lib, yuqorida ko'rsatib o'tilgan qarorga muvofiq, qishloq xo'jaligi korxonalari bilan don va urug' sotib olish hamda davlat zahirasi ostidagi iste'mol bug'doyini faqatgina "O'zdonmahsulot" AKga qarashli korxonalargina saqlash huquqiga ega.

3. O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining tutgan o'rni va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, qishloqda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqarishning bozor tamoyillariga mos keladigan tashkiliy tuzilmasini tatbiq etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning ishonchli huquqiy muhofazasini ta'minlashning asosiy yo'llari belgilangan "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi (2003-yil 24-mart), "2004-2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi (2003-yil 27-oktabr) farmonlarini bajarish borasida Respublika Vazirlar Mahkamasining "2004-2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida konsepsiyani amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi, zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish dasturi, qishloqda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarini rivojlantirish dasturi qabul qilindi.

Bu dasturlarda suv munosabatlarini takomillashtirish, fermerlarni moliyalashtirish va kreditlash tizimini takomillashtirish, fermerlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, mahsulotni tayyorlash, qayta ishlash va sotishni takomillashtirish, mehnat munosabatlarini takomillashtirish va kadrlar tayyorlash masalalarini hal qilishning aniq yo‘llari belgilab olindi.

Fermer xo‘jaliklarining suv va moddiy-texnika resurslaridan yanada oqilona foydalanish hisobiga ishlab chiqarish hajmlari muttasil oshib borishini, fermer xo‘jaliklari samaradorligi va rentabelligi o‘rishini ta‘minlash imkonini beradigan moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning yer maydonlarini maqbullashtirish borasidagi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Qishloqda fermer xo‘jaliklariga barcha zarur xizmatlarni ko‘rsatayotgan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi yerlarining uzoq muddatli ijara mulki qilib berilishi va qishloqda bozor munosabatlarining joriy qilinishi fermer xo‘jaliklarini shakllantirish hamda rivojlantirishning eng muhim omili va asosi bo‘ldi, buning natijasida yerga va ishlab chiqarilayotgan mahsulotga haqiqiy egalik tuyg‘usi mustahkamlandi. Mamlakatda fermerlik harakati qishloq xo‘jalik mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchisiga hamda agrar sohani va u bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tarmoqlarni hamda ishlab chiqarishlarni yanada rivojlantirish, shuningdek, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan qudratli ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonida qayd etilganidek, hozir amalda bo‘lgan fermerlik harakatini tashkil qilish va boshqarish tizimi, xususan, fermer xo‘jaliklari uyushmasi va uning hududiy tuzilmalari faoliyati qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini isloh qilish va uning mahsuldorligini oshirish jarayonlariga hamda fermerlik oldida turgan vazifalarni tezkorlik bilan hal qilishga sust ta‘sir o‘tkazmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar hokimliklarining g‘oyat muhim vazifalari sifatida quyidagilar:

- qishloqda ijara munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil qilishning yetakchi bo'g'ini va shakli sifatida fermer xo'jaliklarining huquqlari, manfaatlari himoya qilinishi va samarali faoliyat yuritishini ta'minlash;

- fermerlikni tashkiliy jihatdan mustahkamlash, fermer xo'jaliklarining o'zini o'zi boshqarish ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, ularning davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, tayyorlov, ta'minot va xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarini takomillashtirish;

- fermer xo'jaliklarining iqtisodiy mustaqilligi va moliyaviy barqarorligini oshirish, fermerlarning yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va qishloq xo'jalik xomashyosini kompleks qayta ishlash, shuningdek, qishloqda yangi ishlab chiqarishlar va xizmat ko'rsatish sohasini tashkil qilish hamda rivojlantirish hisobiga mexanizatsiyalash darajasi va rentabellikni oshirishdan manfaatdorligini rag'batlantirish belgilandi.

Prezident farmonida fermer xo'jaliklarining iqtisodiy mustaqilligi va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan fermerlikni rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo'lib, hujjatda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha hududiy komissiyalarning rahbarlari – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar va tumanlarning hokimlari ushbu Farmonda nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi borasida shaxsan javobgar bo'lishlari belgilangan.

O'zbekiston Fermerlari kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlarfermerlar kengashlarining eng muhim vazifalari va faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- fermerlikni rivojlantirish, fermer xo'jaliklarining moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash hamda ularning mulkiy munosabatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlash sohasidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- fermer xo‘jaliklarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jumladan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan, tayyorlov, ta‘minot va xizmat ko‘rsatish tashkilotlari bilan munosabatlarda, shuningdek, sudlarda ishlar ko‘rib chiqilayotganda;

- fermer xo‘jaliklarini tashkil qilish va qayta tashkil etishda, ularga maydonlarini uzoq muddatli ijaraga ajratib berishda oshkoralik, ochiqlik va qonuniylik tamoyillarini ta‘minlash maqsadida jamoat nazoratini amalga oshirish;

- ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishda, suvni tejaydigan samarali texnologiyalarni, birinchi navbatda, tomchilatib sug‘orishni, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ularning faoliyatiga tatbiq etishga ko‘maklashish;

- qishloqda huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy, agrotexnik hamda boshqa masalalar bo‘yicha konsalting markazlari tarmog‘ini, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, harid qilish, qayta ishlash va sotish bo‘yicha fermer xo‘jaliklari kooperatsiyasining turli shakllarini tashkil etish va kengaytirishga ko‘maklashish.

Fermerlar kengashlariga fermer xo‘jaliklari manfaatlarini ko‘zlab da‘vo arizalarini taqdim etish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, ularning mansabdor shaxslari xatti-harakatlari (harakatsizliklari) ustidan sudga davlat boji to‘lamasdan shikoyat qilish huquqi berildi.

4. Respublikamiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar

Mustaqillik yillarida iqtisodiy islohotlar tufayli mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi mutlaqo qayta qurildi. Qishloq xo‘jaligida xususiy mulkchilikka va xo‘jalik yuritishning yangi shakllariga asoslangan, aholi mentaliteti hisobga olingan agrar siyosat ishlab chiqildi. Shu siyosat asosida qishloq xo‘jaligini boshqarish tizimi, xo‘jalik yuritish shakllari va ekin maydonlari tarkibi takomillashtirildi. Hozirgi davrda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy qismi fermer va dehqon xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilmoqda. Endilikda ular mahsulot yetishtirish

bilangina chegaralanib qolmay, uni qayta ishlash va sotish bilan ham shug'ullanmoqdalar.

Respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida 2024-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi. 2024-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yildagiga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o'sdi.

Izchil yuqori o'sish sur'atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2000-yilda bu boradagi ko'rsatkich 30,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda faqatgina 16,8 foizni tashkil etdi. Bu ,avvalambor, iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig'idir. 2024-yili mamlakatimizda 2930 ming tonnadan ortiq paxta, 8377 ming tonna g'alla, 318 ming tonna sholi, 12450 tonna pilla, 23 mln tonna mevasabzavot hosili, 13 mln tonna go'sht-sut yetishtirildi. O'tgan yilda birinchi marta g'alladan bo'shagan qariyib 1 million gektar maydonga sabzavot, kartoshka, poliz va dukkakli ekinlar ekildi va 5,5 million tonnadan ortiq mahsulot yetishtirildi.

Bugungi kunda mamlakatimizning mahsulotlarni eksport qiluvchi ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish va yangi bozorlarni o'zlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish davom ettirilmoqda. 2017-yilning o'zida qishloq xo'jaligi sohasiga oid 5 ta qonun, 20 dan ortiq farmon va qaror qabul qilindi, 2 ta yangi qo'mita va 3 ta uyushma tuzildi. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyati tubdan takomillashtirildi. Qishloq tumanlarida hokimlarning qishloq va suv

xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi joriy qilindi. O‘zbekiston fermerlari kengashi O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi sifatida qayta tashkil etildi.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o‘ylangan siyosat olib borilayotganligi paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko‘paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta‘minlashga zamin tug‘dirdi. Bu esa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. Qishloq xo‘jaligining iqtisodiyotda tutgan o‘rni.
2. Qishloq xo‘jaligi geografiyasining amaliy masalalari.
3. Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining tutgan o‘rni.
4. Respublikamizda qishloq xo‘jaligi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar.
5. Qishloq xo‘jaligida mulkchilik shakllari.
6. Qishloq xo‘jaligi korxonalari.
7. O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish masalalari.
8. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning tadrijiy xususiyatlari.

B

E

S

Reja:

1. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati.
2. Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.
3. Qishloq xo‘jaligidagi mehnat resurslari, ulardan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasi.
4. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: mehnat resurslari, mehnat unumdorligi, ishsizlar, mehnat bozori, mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish.

1. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati

Qishloq xo‘jaligidagi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan kishilarni mehnat resurslari deb ataladi. Ularning huquqiy asoslari tarkibi hamda faoliyati Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan “Mehnat kodeksi”da (1996), “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi (1998) qonunda batafsil ko‘rsatilgan. Mehnat resurslari 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar, 55 yoshgacha bo‘lgan ayollar hisoblanadi. Shu bilan birgalikda mehnat qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘smirlar va nafaqaxo‘rlar ham mehnat resursi sanaladi. Ularning tarkibida iqtisodiy faol mehnat qilish imkoniyatiga ega bo‘lganlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ularni 16-55 yoshgacha bo‘lgan ayollar, 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar tashkil etadi. Ular mehnat resurslarining asosini tashkil etadi. Ular Respublikada 2024-yilning boshiga mavjud mehnat resurslarining 38,6 foizini tashkil etgan.

O‘zbekiston Resublikasida 2024-yilning boshiga 17718 ming kishidan iborat mehnat resurslari mavjud. Bu jami aholining 50,9 foizini

tashkil etadi. Mavjud mehnat resurslarining 45 foizga yaqini qishloq xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatadi. Ular o‘zlarining ongli, maqsadli mehnatlari bilan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga, uning samardorligini yuksaltirishga ulkan hissa qo‘shishi lozim. Demak, ularning mehnatlari unumli bo‘lishi kerak. Shu bilan «mehnat unumdorligi» tushunchasi paydo bo‘lmoqda. Mehnat unumdorligi deganda, foydalanilayotgan texnikalar, texnologiyalar yordamida birlikdagi mahsulotni yetishtirish, ishni bajarish uchun sarflanadigan vaqtning miqdorini nazarda tutish lozim. Bu “Mehnatni tejash” iqtisodiy qonunining amal qilishidan dalolat beradi. Mehnat unumdorligining amaliyotdagi tushunchasi ham mavjud. Ya’ni sarflanayotgan bir birlikdagi vaqt ichida yaratilgan qiymat yoki ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish mehnatning unumdorlik darajasini ifodalaydi. Mehnat unumdorligi to‘g‘risidagi bu tushunchalar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, to‘ldiradi, qishloq xo‘jaligidagi mehnat ongli, maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lsa, uning unumdorligi yuqori bo‘ladi. Bu esa tarmoqning rivojlanishini ta’minlaydi.

Qishloq hududlarida mavjud bo‘lgan mehnat resurslaridan to‘liq va samarali foydalanish, ularning mehnatlari unumdorligini yuksaltirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan himoyalash eng dolzarb muammo hisoblanadi. Bu muammo muvaffaqiyatli hal etilishi uchun quyidagi masalalar aniqlanib, ularning yechimini ta’minlashga qaratilishi lozim:

- qishloq hududlarida mavjud bo‘lgan mehnat resurslarining umumiy miqdorini, istiqbolda ularning o‘zgarish (ko‘payish, kamayishi) darajasini aniqlash;

- qishloq hududlaridagi barcha tadbirkorlik shakllarida qisqa va uzoq muddatga bo‘sh bo‘lgan ish joylari miqdorini mutaxassislik turlari bo‘yicha belgilash;

- qisqa va uzoq muddatga bo‘sh bo‘lgan ish joylarini ishlovchilar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni asoslangan holda ishlab chiqish (kadrlar malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash ...);

- amalga oshirilishi lozim bo‘lgan hamma tadbirlarni, barcha resurslar bilan ta’minlovchi ishlarni amalga oshirish;

- ish bilan ta'minlanmaganlarning umumiy miqdorini aniqlash, ularni iqtisodiy, ijtimoiy himoyalash bo'yicha me'yoriy tadbirlarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va boshqalar.

Ta'kidlangan muammolarning samarali hal etilishi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lganlar bilan mehnat jarayonini tashkil etuvchi subyektlar hamda iqtisodiy, ijtimoiy himoyalashni amalga oshiruvchi tashkilotlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlar amalga oshirilishini taqozo etadi. Bu masalalarni hal etish, mehnat bozori zimmasiga yuklanmoqda. Mehnat bozori, mehnat birjasining huquqiy asoslari yaratilmoqda. Ular o'z faoliyatlarini "Mehnat kodeksi", "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi hamda "Birjalar to'g'risida"gi qonunlar asosida yuritmoqdalar.

Qishloq hududlaridagi (jumladan, qishloq xo'jaligidagi) fuqarolarning mehnat qilish imkoniyatini, ya'ni taklifini, ularni ishga yollash (sotib olish), ya'ni ish bilan ta'minlovchilar hamda ijtimoiy-iqtisodiy himoya qiluvchilar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qonun talablari darajasida amalga oshiradigan maskan (hudud) yoki subyekt mehnat birjasi ekanligidan dalolat beradi.

2. Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi

Erkin bozor iqtisodi sharoitida o'z mehnatini taklif etayotgan fuqaro mehnat bozoriga chiqadi. U yerda mavjud bo'lgan takliflarni o'rganib, o'zining intellektual qobiliyatini, mehnatini taklif etadi. Ular bir-biriga mos kelganda shartnomalar tuzilib, ishga yollanadi. O'zbekiston Respublikasida ham shunday tartib joriy etilmoqda. Bu vazifani qishloq hududlarida tuman hokimiyati tarkibidagi Mehnat birjasi yoki aholini ish bilan ta'minlash bo'limi amalga oshirmoqda.

Demak, mehnat bozorida o'zlarining mehnat qilish qobiliyatini (intelektini) taklif etuvchilar bir tomondan, ularning shu imkoniyatlarini iste'mol etuvchi, ya'ni ishga yollovchi subyektlar ikkinchi tomondan uchrashib, mehnat almashuv (mehnat oldi-sotdisi) jarayonini amalga oshiradilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorining nazariy asoslari shotlandiyalik iqtisodchi A.Smit, ingliz iqtisodchisi D.Rikardo, Nobel mukofoti laureati, amerikalik iqtisodchi Paul A.Samuelson va boshqa olimlar tomonidan yetarli darajada asoslangan. Yaratilgan nazariyani hayotga tatbiq etish yo‘llari ham hal etilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat shu bozorda erkin sotilishi lozim. Shundagina u qiymatga ega bo‘ladi, ya’ni tovar shaklida ayirboshlanadi.

Demak, mehnat bozori erkin raqobat asosida amalga oshirilishi zarur. Bu bozorda mehnat munosabatlari, iqtisodiy, ijtimoiy qonunlar talab va taklif iqtisodiy qonunlari talablari asosida amalga oshirilishi lozim. Mehnat bozorida inson o‘zini emas, balki mehnat qilish (jismoniy, aqliy) qobiliyatini taklif etadi. Iste’molchi, ya’ni mehnatni oluvchi shu qobiliyatni sotib oladi. Demak, oldi-sotdi jarayonidagi iqtisodiy munosabat predmeti insonning mehnat qilish qobiliyati hisoblanadi. Insonning mehnat qilish qobiliyatiga to‘lanayotgan ish haqi shu mehnatning qiymati, ya’ni bahosi ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasida erkin bozor iqtisodi bosqichma-bosqich shakllanishi munosabati bilan mehnat va u bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar ham asta-sekin hal etilmoqda. Dastavval tumanlarda mavjud bo‘lgan mehnat resurslari bo‘limi negizida hokimiyat tarkibida mehnat birjasi tashkil etildi. Mehnat birjalariga qishloq xo‘jaligidagi mehnat bozorini tashkil etish, uni amalga oshirish vazifasi yuklatilgan. Ular faoliyatini “Birjalar to‘g‘risida”gi qonun, o‘z ustavi hamda yuqori tashkilotlarning me‘yoriy hujjatlari asosida yuritmoqdalar.

Qishloq hududlaridagi mehnat bozorini samarali shakllantirishda quyidagi holatlarni e‘tiborga olish zarur:

- respublika aholisining 49,5 foizi (2025) qishloq hududlarida yashayotganligi munosabati bilan jami mehnat resurslarininng 50 foizdan ortig‘i qishloq hududlari zimmasiga to‘g‘ri kelishi;
- aholining ish bilan band bo‘lmagan kishilarning 60 foizdan ortig‘i qishloq hududlariga to‘g‘ri kelishini, ular tarkibida ayollar salmog‘i ko‘pligini;

- qishloq hududlarida aholi sonining o‘shish darajasi shaharlardagiga nisbatan yuqori ekanligini, bu hol kelajakda mehnat resurslarining yuqori sur’atlarda o‘shishiga ta’sir etishini;

- qishloq hududlarida sanoat korxonalarini talab darajasida rivojlanmaganligini va barcha resurslarni e’tiborga olgan holda joylashtirilmaganligini;

- hozirgi davrda qishloq hududlarida ish bilan ta’minlanmagan, iqtisodiy faol mehnat resurslari hisoblangan erkaklarning yirik shaharlarga ish qidirib kelayotganini;

- qishloq hududlarida shaxsiy va xususiy mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik shakllari talab darajasida rivojlanmaganligini, shuningdek, infratuzilma subyektlari (madaniy, maishiy, kommunal va boshqa xizmatlarni amalga oshiruvchi) ko‘lamining torligini.

Mehnat bozorlari yuqorida ta’kidlangan barcha xususiyatlarni e’tiborga olgan holda erkin shakllanishi uchun:

- qishloq hududlaridagi (jumladan, qishloq xo‘jalik korxonalaridagi) mehnat resurslarining umumiy miqdorini, tarkibini aniqlash;

- mehnat resurslarining taklifini va hududdagi barcha tadbirkorlik subyektlarining ularga bo‘lgan talabini tarkibi bo‘yicha aniqlash;

- erkin mehnat bozorini shakllantirish hamda ularning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni ishga solish;

- qishloqda mehnat resurslarining maqsadga muvofiq bandligini ta’minlashga hissa qo‘shish;

- mehnat bilan band bo‘lmagan fuqarolar miqdorini aniqlash, ularning malakasini oshirish, qayta tayyorlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan himoya qilishga ko‘maklashish;

- erkin mehnat bozori amalga oshirilishini ta’minlovchi turli ko‘rgazmalar va boshqa tadbirlarni tashkil etish, ularning samarali o‘tkazilishiga erishish;

- mehnat bozorining rivojlanishini ta'minlovchi barcha resurslarni topib, samarali sarflash kabi vazifalarni bozor talablari darajasida amalga oshirish lozim.

Qishloqlarda mehnat bozorini oqilona tashkil etib, samarali boshqarish uchun hududiy usullardan foydalanish kerak.

Respublikamizning mehnat resurslari ortiqcha hududlari, avvalo, Andijon, Farg'ona, Namangan, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlari uchun mazkur bozorni tartibga solishning ancha samarali usullari, ishchi kuchiga bo'lgan talabning oshishi va uning taklifi kamayishini hisobga olish zarur.

Mazkur usullar nimalarda ifodalanilishini batafsil ko'rib chiqaylik.

a) Ishchi kuchiga talabni oshirish usuli.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish, zararga ishlayotgan korxonalarni tugatish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va intensiv texnologiyalarni joriy etish hisobiga asosan ishlab chiqarishdan bo'shatilayotgan xodimlar – mehnatkashlar soni tez ko'paymoqda.

Ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirishni rag'batlantirish usullarini tadqiq etish mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashga hamda mazkur hududlar uchun samarali tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan.

3. Qishloq xo'jaligidagi mehnat resurslari, ulardan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasi

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va xarid qilish hamda agroservis xizmati ko'rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati bo'yicha ish joylarini yaratish, ishlab chiqarish kuchlari va bandlikning noan'anaviy shakllarini rivojlantirish, agrar sektordagi ishdan vaqtincha bo'shatilayotgan shaxslar uchun mavjud korxonalarni kengaytirish va qayta ta'mirlash hamda yangi ish joylarini yaratish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar – sarmoyalar qo'llanishining asosiy yo'nalishlaridir.

Ishchi kuchlariga talabni oshirishni agrosanoat majmuining mehnat resurslarini qayta taqsimlashdan manfaatdor tarmoqlarida ish joylarini yaratish hamda mavjudlarini qayta ta'mirlash va yangi, zamonaviy kasblarni egallashga sarmoyalarni to'g'ridan-to'g'ri jalb qilish orqali tartibga solish mumkin. Dotatsiyalar, subsidiyalar va kreditlarni agrosanoat majmui korxonalarini, ayniqsa, qayta ishlash korxonalarini qurish, texnik jihatdan qayta qurollantirish va rekonstruksiyalashga, shaxsiy mehnat faoliyatini rivojlantirish yo'li bilan xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirishga, shuningdek, ko'p bolali ayollar, mehnatga layoqatli nafaqaxo'rlar, nogironlar, o'smirlar va hokazolarga mos ish joylarini vujudga keltirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa ortiqcha mehnat resurslarini yuqorida aytib o'tilgan tarmoqlarga va ayrim maxsus ish joylariga jalb etish, ayni paytda ishchi kuchlarining kasbiy malaka tarkibiga bevosita ta'sir o'tkazishi mumkin.

Muvaqqat ish joylarini yaratish va mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish aholi bandligini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. U korxonalarining iqtisodiy manfaatdorligini oshirish, budget to'lovi va xodimlarning vaqtincha va qisman bandligi uchun ijtimoiy sug'urta badallarini kamaytirish, ularni ishga qabul qilish jarayonini yengillatish, bandlikning noan'anaviy shakllarini tashkil etish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni to'lash kabi chora-tadbirlar yordamida amalga oshiriladi.

b) Ishchi kuchlariga taklifni kamaytirish usuli

Ishchi kuchlariga bo'lgan taklifni kamaytirishga, shuningdek, ularning mehnat bozoriga oqib kelishini qisqartirish va boshqa joyga ketishini rag'batlantirish hamda ish vaqti va mavjud ish joylarini ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lganlar o'rtasida qayta taqsimlash orqali samarali ta'sir etish mumkin. Respublikamizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida umumta'lim dasturlarini kengaytirish va o'qish muddatini uzaytirish bilan kasbiy tayyorgarlikni yaxshilash, o'quv yurtlarida kunduzgi o'quvdagi talaba o'rinlarini qisqartirish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotganlarga stipendiyalarni oshirish, ayollarga bola parvarishi uchun to'lanadagin nafaqalar va beriladigan ta'til muddatini ko'paytirish, mehnat stajini hisoblashda

ularga imtiyoz berish; nafaqaxoʻrlar, nogironlar hamda ularni parvarishlaydigan shaxslarning nafaqalarini oshirish mehnat bozoriga ishchi kuchlarining oqib kelishini kamaytirish chora-tadbirlari hisoblanadi.

Ish bilan bandlar orasida ish vaqti va ish joylari ishchi kuchlariga boʻlgan taklifni kamaytirish maqsadlarida qayta taqsimlanadi. Aholi bandligining xususiy va vaqtinchalik shakllariga oʻtishini ragʻbatlantirishga ularga ham ish bilan toʻla band shaxslarga moʻljallangan ijtimoiy muhofaza turlarini, taʼtillar va boshqa ijtimoiy kafolatlarning miqdorlarini oʻrnatish, kafolatlangan eng kam miqdordagi ish haqi bilan taʼminlash, har yili beriladigan taʼtillarni oʻz vaqtida berish, ish kuni va ish haftasi davomiyligini qisqartirish orqali erishish mumkin.

Mamlakatimizning mehnat resurslari yetishmaydigan mintaqalari (Jizzax, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpogʻiston Respublikasi) da ishchi kuchlariga talabni kamaytirish hamda ular taklifini koʻpaytirish mehnat bozorini tartibga solishning maqsadga muvofiq usullaridir.

Ushbu usullarning mohiyati quyidagilardan iborat:

a) Ishchi kuchlariga talabni kamaytirish usuli

Mazkur guruhga hududiy hokimiyatlarning u yoki bu mintaqalarida va tarmoqlarida ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va yangi ish joylarini vujudga keltirishni sekinlashtirishga oid quyidagi chora-tadbirlar: ortiqcha ish kuchlaridan foydalanganlik uchun qoʻshimcha soliqlarni belgilash: izchil kredit siyosatini oʻtkazish, korxonaga xodimni ishga olganligi uchun bir martalik toʻlovni joriy etish, ortiqcha ishchi va xizmatchilarni qisqartirishni ragʻbatlantirish va hokazolar kiradi. Bundan tashqari, ishchi kuchlariga talabni kamaytirishda mehnat unumdorligini oshirish va tejamkorlikka erishish muhim ahamiyatga ega.

Rivojlangan bozor munosabatlari sharoitlarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish raqobat, foydani taqsimlash mexanizmi, soliq siyosati kabi iqtisodiy mexanizmlar va dastaklar yordamida taʼminlanishi lozim. Hozirgi paytda sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishni ragʻbatlantirishning umumxoʻjalik

mexanizmlari yaxshi takomillashtirilmaganligini hisobga olib, mehnat resurslari uchun ilgari joriy qilingan to'lovlarni qayta tiklash maqsadga muvofiqdir. Ular mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va shtatdan tashqari xodimlar sonini kamaytirishga ko'maklashgan. Bu xil to'lovlar korxonalar va tashkilot tomonidan shtatdan tashqari xodimlarni saqlash uchun qat'iy stavka shaklida o'rnatiladi. Shu bilan birga, ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarishga sarf-xarajatlarni o'rni qoplash uchun ijtimoiy sug'urta solinadigan soliq va ishsizlikdan muhofaza qilish jamg'armasiga solinadigan maxsus soliqdan (ikkalasi ham mehnatga haq to'lash fondidan, foizlarda) foydalanish mumkin. Ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarishga sarf-xarajatlarning ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan bunday tizimi jonli mehnatdan foydalanishning intensiv shakllarini ifodalaydi hamda mehnat bozoridagi xodimning ijtimoiy jihatdan muhofazalanishi uchun zarur kafolatlar yaratadi.

b) Ishchi kuchlari taklifini ko'paytirish usuli

Hozirgi sharoitlarda mehnat bozoriga ishchi kuchlari taklifini mutlaq ko'paytirish imkoniyati cheklangan. Chunki ishchi kuchlari taklifini mutlaq ko'paytirish, qayta ishlash sanoati va xizmat kursatish tarmoqlari, shaxobchalari hamda shaxsiy mehnat faoliyati sohalarining rivojiga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, hozirgi paytda ishchi kuchi taklifi na kasb, na malaka strukturasi bo'yicha hudud iqtisodiyoti noqishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlaridagi jonli mehnatga talabning o'sish sur'atiga javob bermaydi. Shu bois ishchi kuchi taklifining sifat ko'rsatkichlarini o'zgartirish hamda uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish lozim. Buning uchun esa, bandlik davlat xizmati tizimidagi va boshqa o'quv yurtlaridagi xodimlarning malakalarini oshirishni tashkil etish, korxonalarining o'zidagi maxsus kurslarda kasb-hunarga o'rgatishni yaxshilash va ularga soliq to'lovida imtiyozlar berish mahalliy kadrlar raqobatbardoshligini oshirishning maxsus dasturini ishlab chiqish kerak.

Ishchi kuchlari taklifini rag'batlantirish xodimlarni ishga yollash va joylashtirishga yordamlashish usullarini qo'llash orqali ham amalga

oshiriladi. Bu usullar tashkiliy tusda bo‘lib, bo‘sh ish joylari va ishga joylashish hamda qayta o‘qitishga muhtoj fuqarolarning soni haqidagi ma’lumotlar bankini tashkil etishni, aholining ishga joylashish imkoniyatlari haqidagi axborotlar bilan ta’minlanishni, ishsizlarni ro‘yxatga va hisobga olishni, kasbga yo‘naltirishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqish va o‘tkazish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Mehnat resurslarini qayta taqsimlashning ancha samarali usullari orasida turmush darajasini tartibga solishini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Mazkur uslublar hududlar moliyaviy resurslari hisobidan xodimlarning mehnat va uy-joy shart-sharoitlari hamda madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish darajalarini yaxshilash kabi tadbirlarni o‘tkazib, ularni tartibga solish asosida tatbiq etiladi.

4. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish yo‘llari

Respublika qishloq xo‘jaligidagi mavjud bo‘lgan mehnat resurslaridan yil davomida to‘liq va samarali foydalanish natijasida ularning mehnatlari unumdorligini kelajakda yuksaltirish eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Uni muvaffaqiyatli hal etish keng miqyosda tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Dastavval, qishloq hududlarida, jumladan, qishloq xo‘jalik korxonalarida mavjud bo‘lgan mehnat resurslarining real miqdorini aniqlash lozim. Shu bilan birga aholining mutlaq (absolyut) o‘shishini e‘tiborga olgan holda mehnat resurslarining ko‘payish yoki kamayish jarayonini aniqlash kerak. Mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan aholining harakatini ham hisobga olish zarur.

Shundan so‘ng qishloq xo‘jaligida mavjud bo‘lgan ish joylarining hozirgi hamda istiqboldagi sonini real aniqlashga alohida e‘tibor berish kerak. Shularga asoslangan holda mehnat balansi ishlab chiqilishi zarur.

Yuqoridagilarga asoslanib, mehnat resurslarining ish bilan ta’minlanganlik darajasi, shu orqali qishloq hududlarida (korxonalarda, tarmoqlarda) mavjud bo‘lgan mehnat resurslarining ish bilan ta’minlanganlik darajasi aniqlanadi. Uning darajasi birga yaqin bo‘lsa

yaxshi, aks holda mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash chora-tadbirlari asoslangan holda ishlab chiqilishi kerak. Buning uchun qishloq xo'jalik korxonalarini xo'jalik ichida yangi ish joylarini tashkil etish imkoniyatlarini rejalashtiradi. Yangi yerlarni o'zlashtirish, qurilishni, ta'mirlashni, mahsulotlarni qayta ishlashni (o'simlik, chorvachilik), xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishni, xizmat ko'rsatish sohalarini tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni belgilab, ularning hal etilishini ta'minlashga harakat qilinadi. Bu masalalar respublika budjeti hisobidan amalga oshirilishini ham e'tiborga olish lozim.

Mehnat resurslaridan foydalanishni rivojlantirish maqsadida ularni takror ishlab chiqarish jarayonlarini, ya'ni malakalarini oshirish, tayyorlash va qayta tayyorlash tadbirlarini ham belgilab olib, amalga oshirilishiga e'tibor berish zarur.

Korxonalarda mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan fuqarolar mehnat unumdorligi darajasini yuksaltirishga hozirgi davrda alohida e'tibor berish lozim. Bu masalaning hal etilishida eng ta'sirchan omil moddiy manfaatdorlik hisoblanadi. Darhaqiqat, bozor iqtisodiyoti sharoitida kim yaxshi, sifatli ishlasa, ko'p haq oladi. Shunday ekan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ham yaxshi, samarali mehnat qilayotgan ishchi-xizmatchi mehnatiga yarasha ko'proq haq olishi lozim. Shunda u rag'batlantirilgan hisoblanadi. Shu bilan birga mehnatkashlarni moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishni amalga oshirishni ta'minlash kerak. Eng avvalo, mehnatlari natijalarini e'tiborga olgan holda mukofotlash, turli xildagi unvonlarni berish lozim. Bu unvonlar ham ma'lum darajada fuqarolarni mablag'lar bilan ta'minlaydi. Jumladan, Respublikada xizmat ko'rsatgan iqtisodchi, agronom, irrigator unvolarini olganlarning asosiy ish haqlariga eng kam oylikning 60 foizi miqdorida ustama beriladi. Demak, ma'naviy rag'batlantirish ham ayrim hollarda moddiylashadi.

Qishloq xo'jaligidagi mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish natijasida sarflanayotgan mehnatning unumdorligi oshishini ta'minlash mumkin. Buning uchun xo'jaliklar ixtiyoridagi barcha mashinalar, traktorlarning ishga yaroqliligini oshirish hamda ulardan yil davomida to'liq foydalanishga erishish tadbirlarini

shakllantirish lozim. Eng avvalo, ularni malakali kadrlar, ta'mirlash ustaxonalari bilan ta'minlash kerak. Xo'jaliklarning ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlanganligini ham talab darajasiga yetkazish zarur. Buning uchun esa moliyaviy resurslar bilan ta'minlash choralarini aniqlab, ularning bajarilishini ta'minlash kerak.

Demak, qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan yil davomida to'liq va samarali foydalanish hamda ularning mehnatlari unumdorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir:

- tarmoqning rivojlanishini e'tiborga olgan holda qo'shimcha ish joylarini tashkil etish;

- tarmoqning ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish va moddiy-texnika ta'minotini yuksaltirish;

- qishloq xo'jaligiga yangi texnikalarni, samarali texnologiyalarni izchillik bilan tadbiq etish;

- qishloqda tadbirkorlik shakllarini rivojlantirish;

- qishloqda ishlash va yashash uchun barcha sharoitlarni yaratish;

- mehnatni tashkil etishning samarali turlarini tashkil etish va rivojlantirish;

- kadrlar tayyorlash, malakalarini oshirish, ularni moddiy, ma'naviy rag'batlantirishni takomillashtirish va boshqalar.

Bu kabi chora-tadbirlarning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga joriy etilishi tarmoqdagi mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilab, mehnat unumdorligi oshishiga ijobiy ta'sir etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Mehnat va mehnat resurslari haqida tushuncha.
2. Mehnat unumdorligi haqida tushuncha.
3. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar nimalardan iborat?
4. Mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
5. Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasining holati qanday aniqlanadi?
6. Mehnat bozori nima? Uning maqsadi, vazifasi nimalardan iborat?
7. Mehnat bozori qanday tashkil etiladi va rivojlantiriladi?
8. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirishning qanday yo'llari bor?
9. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanish.

K

OLTINCHI MAVZUG QISHLOQ xo'jaligi TASHKIL ETISH MOQLARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Reja:

1. Qishloq xo'jaligining ijtimoiy va hududiy tashkil qilish xususiyatlari
2. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari va ularni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar
3. Dehqonchilikning joylanishi
4. Chorvachilikning hududiy tashkil qilish

Tayanch iboralar: yer resurslari, yer fondi, qishloq xo'jaligi yerlari, sug'oriladigan yerlar, ekin yerlari, lalmi yerlar, yaylovlar.

1. Qishloq xo'jaligining ijtimoiy va hududiy tashkil qilish xususiyatlari

Qishloq xo'jaligi umuman iqtisodiyotning qadimiy sohasidir. Dastlabki ijtimoiy mehnat taqsimoti ham avval chorvachilik, so'ngra dehqonchilikning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Dehqonchilik, xususan, sug'orma dehqonchilik jamiyat taraqqiyotida alohida, inqilobiy ahamiyatga ega bo'lgan. Sababi aynan sug'orma dehqonchilik jamoa, uning asosida doimiy aholi manzilgohlarining vujudga kelishida muhim rol o'ynagan. Keyinchalik dehqonchilik, hunarmandchilik va savdosotiqni, ular esa, o'z navbatida, manufaktura va yirik mashina industriyasini rivojlantirishga olib kelgan.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun quyidagilar xos:

- agrar soha bevosita tabiiy sharoit bilan bog'liqligi tufayli u mavsumiy xarakterga ega;
- mavsumiyliги uchun mehnat resurslari ham yil davomida band emas;
- qishloq xo'jaligi rivojlanishi sanoatga nisbatan o'zgaruvchan ko'rinishda boradi;

- bu tarmoqda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil qilish shakllari o‘ziga xos mujassamlashuv va ixtisoslashuv torroq, kooperatsiya va kombinatlashuv esa juda kam hollarda uchraydi;

- qishloq xo‘jaligi tarmoqlari areal yoki maydon shaklida hududiy tashkil qiladi;

- mazkur tarmoqda ekstensiv va intensiv rivojlanish yaqqol ko‘rinadi;

- qishloq xo‘jaligining tarmoqlar tarkibi sanoatga o‘xshash uncha boy emas;

- qishloq xo‘jaligida mulkchilikni xususiylashtirish osonroq;

- xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, chet el investorlarini qishloq xo‘jaligiga jalb qilish kamroq va h.k.

Yuqoridagi xususiyatlar ushbu tarmoqning iqtisodiyoti va geografiyasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunonchi, tabiiy sharoitning – iqlim va ob-havoning noqulayligi qishloq xo‘jaligi unumdorligi, u esa qayta ishlovchi (oziq-ovqat) sanoatiga va pirovard natijada xalqning turmush darajasini pasayishiga olib keladi. Qolaversa, qishloq xo‘jaligi bilan sanoatning boshqa tarmoqlari: mashinasozlik, ximiya, qurilish sanoati va elektr-energetika ham aloqador.

Mehnat resurslaridan foydalanishning mavsumiyliigi, ishlab chiqarishning mujassamlashuv darajasini yuqori emasligi mazkur tarmoqning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini pasaytiradi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligida yer ishlab chiqarish vositasi bo‘lib, uning tabiiy hosildorligi hamma joyda ham bir xil emas.

2. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va ularni joylashtirishga ta’sir etuvchi omillar

Qishloq xo‘jaligi, asosan, ikki katta tarmoqdan, ya’ni dehqonchilik va chorvachilikdan tashkil topgan. Yer yuzi bo‘yicha qishloq xo‘jaligida dehqonchilik oldinda turadi. Biroq, shunday bo‘lsa-da, dehqonchilik va umuman qishloq xo‘jaligida tarmoqlarning turlanishi sanoatga nisbatan sustroq bormoqda. Ayni vaqtda qishloq xo‘jaligidagi ayrim yangi yo‘nalishlar – broyler parrandachiligi, issiqxona xo‘jaligi, sut va go’sht

fabrikalari, o'zlarining tashkil qilinishiga qarab ko'proq industrial sohaga yaqin turadi.

So'nggi yillarda ba'zi bir mahsulotlarning yetishtirilishi (pomidor, bodring, ziravorlar va b.) mavsumiy xususiyatini yo'qotib bormoqda. Masalan, bozorlarda bunday mahsulotlar deyarli yil bo'yi mavjud. Albatta, bu o'rinda "geografik konveyr"ning roli ham bor. Chunki, yuqoridagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib turish turli hududlarda, ularning agroiqlimiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda navbatma-navbat amalga oshiriladi.

Yana shuni qayd etish joizki, ayrim qishloq xo'jaligi mevalarining geografiyasi tobora kengayib bormoqda. Chunonchi, anjir, anor va, ayniqsa, xurmo faqat alohida, subtropik rayonlarning mevasi bo'libgina qolmay, ular endigi sharoitda ko'pgina hududlarda yetishtirilmoqda.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishga tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy komponentlar Ichida, eng avvalo, iqlim, suv va tuproqning ahamiyati katta. Iqlim sharoitlari, harorat, yer osti va yer usti suvlari, tuproq xususiyatlari qishloq xo'jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibini ko'p jihatdan belgilab beradi.

Foydali harorat, ya'ni yig'indisi yil davomidagi sutka haroratining 10°C dan yuqorisi va ijobiy harorat yig'indisi (erta bahordan to kech kuzgacha ijobiy haroratning summasi) o'simliklarning pishib yetishi uchun talab qilinadigan vegetatsiya davrini shakllantiradi. Masalan, paxta uchun birinchi ko'rsatkich eng kamida 2000°C , ikkinchisi 4000°C bo'lishi kerak.

Qishloq xo'jaligi uchun yerning ahamiyatini ta'kidlagan edi. Ammo har qanday yer maydoni ham bu sohada intensiv foydalanish imkoniyatiga ega emas. Binobarin, hududlarning qishloq xo'jalik salohiyati ekin ekiladigan yoki haydaladigan yer va umumiy yer maydonining nisbati, yer fondining hajmi va tarkibi orqali belgilanadi. Ayniqsa, sug'oriladigan yer maydoni bilan qishloq aholisining ta'minlanganlik darajasi katta mazmunga ega.

Foydalanish mumkin bo'lgan yer maydonining hajmi shu joyning geomorfologik holatiga ham bog'liq. Chunonchi, tekis bo'lmagan

hududlarda yer koeffitsiyenti nisbatan past bo'lishi aniq. Ayni chog'da bizning sharoitimizda faqat yer maydonining bo'lishi yetarli emas. Buning uchun, albatta, yana issiq harorat va suv, namgarchilik talab qilinadi. Chunki, O'zbekistonda yetishtiriladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining ko'pchiligi issiqtalab va suvtalabdir. Ayniqsa, bodring, pomidor, baqlajon, sholi kabilarda suv sarfi ancha yuqori.

Qizig'i shundaki, tabiatda bir joyning o'zida issiq harorat, dehqonchilikka yaroqli yer maydoni va suv kamdan-kam hollarda uchraydi. Suv bor joyda qulay yer maydoni yo'q (tog'liklar), yer maydoni bor joyda suv yo'q (cho'llar). Birinchisida dehqonchilik uchun terrasa usuli, ikkinchisida sun'iy sug'orish qo'llaniladi.

3. Dehqonchilikning joylanishi

Qadimda sug'orma dehqonchilik daryolarning quyilish qismida, deltasida rivojlangan va buning uchun tabiiy hosildor allyuvial yotqiziqlardan foydalanilgan. Bizning o'lkamizda dastlabki vohalar aynan mana shunday hududlarda vujudga kelgan. Keyinchalik sug'orma dehqonchilik geografiyasi daryolarning quyilishidan ularning yuqori qismlariga ko'tarilib borgan, suv omborlari va kanallar qurilishi munosabati bilan tog' yonbag'ri, adirlar ham ishlab chiqarish oborotiga kiritilgan, vohalar bir-biriga tutashib ketgan (masalan, Farg'ona vodiysida).

Sun'iy sug'oriladigan dehqonchilikdan tashqari bizda bahorikor yerlar ham ko'p (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo viloyatlari va boshqalar). Bunday tabiiy namgarchilikdan foydalanib dehqonchilikni yuritish, yerning gidrotermik rejimini hisobga olgan holda joylashtiriladi. Maxsus adabiyotlarda buning uchun "Lange omili" tushunchasi mavjud bo'lib, u issiqlik bilan yog'in-sochin nisbatini bildiradi. Jumladan, bahorikor dehqonchilikda yillik yog'in-sochin miqdori o'rtacha yillik harorattan kamida 15 marta ko'p bo'lishi talab etiladi. Agar bu koeffitsiyent 15 dan kam bo'lsa, u holda faqat cho'l yaylovchiligi rivojlantirish mumkin, xolos.

Havo (harorat), suv, tuproq-qishloq xo'jaligi rivojlanishi va foydalanishining asosiy uch shartidir. Shu bilan birga melioratsiya va

irrigatsiya, mehnat resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, transport va boshqalarning ahamiyati ham muhim. Masalan, ishchi kuchi omili, ayniqsa, sug'orma dehqonchilikda, sabzavotchilikda katta rol o'ynaydi. Ammo, ta'kidlash lozimki, O'zbekiston qishloq xo'jaligida mehnat resurslarining bandligi nihoyatda yuqori. Bu esa mazkur tarmoq samaradorligini, uning mehnat unumdorligini nihoyatda pasayishiga sabab bo'ladi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, AQSH qishloq xo'jaligida atigi 1,5-2 foiz mehnat resurslari band. Buyuk Britaniyada, hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi mahsulotlari chetdan keltirilganligi tufayli, bu ko'rsatkich 1 foizni tashkil qiladi.

Dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligida mehnatga layoqatli aholining yarmidan ko'prog'i ishlaydi. Afrika va Osiyo davlatlarining ba'zilarida bu ko'rsatkich yanada yuqori (masalan, Nepalda 60 %). Ayni vaqtda rivojlangan mamlakatlarda sanoatning "pastki" qatlamlarini rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chishiga o'xshab, ularda qishloq xo'jaligining intensiv shakli saqlanib qolmoqda, xolos.

Qishloq xo'jaligida aholi bandligining qisqarib borishi dastlab Buyuk Britaniyada, so'ngra Belgiya, Niderlandiya, Daniya, AQSH va boshqalarda kuzatilgan. Natijada, hozirgi kunda bu mamlakatlarda bir fermer, taxminan, 80 va undan ortiq kishini oziq-ovqat bilan ta'minlashga qodir. Vaholanki, rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat sarfi haddan tashqari ziyod, qishloq joylarda "yashirin" ishsizlar ko'p, aholining nisbiy va hatto mutloq ortiqchaligi sezilib turibdi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga va shu asosda ijtimoiy masalalarni hal etishga katta ahamiyat berilmoqda. Biroq, hozircha bu yerda muammolar ko'p: qishloqlarda ish o'rinlari kam, shaharlar esa ortiqcha ish kuchini ta'minlay olmayapti. Bu ham bo'lsa o'tish davrining qiyinchiliklaridan biridir.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishda mexanizatsiyalash, agrotexnika, agroximiya, seleksiya kabi ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq yo'nalishlarni rivojlantirish ahamiyatlidir. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi infrastrukturasi, sug'orish inshootlari – suv omborlari

va kanallar, yerlarning meliorativ holatini yaxshilovchi chora-tadbirlar ham agrobiznesga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pgina mamlakatlar qatorida O'zbekistonda ham shahar atrofi qishloq xo'jaligi rivojlanib bormoqda. Bu esa o'z navbatida paxta maydonlarining shahardan uzoqlashishiga olib keladi. Shu bilan birga paxtachilik tog' oldi hududlarida, Qoraqalpog'istonda, Sirdaryo viloyati va qarshi cho'lining sho'rlangan yerlarida qisqarib bormoqda. qisman bu jarayon g'alla-bug'doy maydonlarini kengaytirish asosida ham kuzatilmoqda. Demak, kelajakda paxtachilikning joylanishida jiddiy o'zgarishlarni kutish mumkin.

Ayni vaqtda bog'dorchilik va uzumchilik, ayniqsa, g'alla yetishtirish maydonlari kengaymoqda. Bunday o'zgarishlar jahon miqiyosida ham sodir bo'lmoqda. Xususan, 60-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlardagi "yashil inqilob" g'allachilik joylanishini sezilarli darajada o'zgartirdi.

4. Chorvachilikning hududiy tashkil qilish

Dunyo bo'yicha chorvachilikning yem-hashak maydoni umumiy yer maydonining taxminan 20-25% tashkil qiladi. Ba'zi mamlakatlarda (masalan, Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston va b.) bu ko'rsatkich undan ham yuqori. Buning ustiga mazkur mamlakatlarda yaylovzorlarning hosildorligi past va, binobarin, ularning "chorva sig'imi" ham yuqori emas. Demak, bu va shunga o'xshash hududlarda ekstensiv chorvachilik rivojlanib boradi.

Chorvachilikning sut va sut-go'sht yo'nalishi uning ancha intensiv va mahsuldor sohalaridir. Sutchilik esa, odatda, muloyim tabiiy sharoitda, uncha issiq bo'lmagan va yog'in-sochin yetarli rayonlarda, daryo qayirlari va dalalar yam-yashil o'tloqzorlar bilan qoplangan joylarda juda yaxshi rivojlanadi (Belorussiya, Boltiq bo'yi davlatlari, Rossiyaning Kastroma, Yaroslavl, Vologda viloyatlari, Gollandiya, Chuy vodiysi va h.k.). Jun chorvachiligi esa issiq cho'l tabiatida qulay imkoniyatga ega (Avstraliya, Mug'iliston, Qozog'iston va h.k.).

Sut chorvachiligining joylanishi shahar aholisi ehtiyoji asosida shakllanishi ma'qul. Shu bilan birga keyingi yillarda transport, xususan,

avtofrijeratorlarning ta'siri ostida bu tarmoq uzoqroq masofada ham joylashtirilmoqda. Keltirilgan sut asosida u bilan bog'liq boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish shahar joylarda tashkil qilinadi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari - dehqonchilik va chorvachilikning hududiy birikmalari ham mavjud. Chunonchi, g'allachilik rayonlarda parrandachilik, kartoshka yetishtiriladigan yerlarda sut-go'sht chorvachiligi, qand lavlagi ekiladigan hududlarda cho'chqachilik rivojlanib boradi. Bu esa qishloq xo'jaligida o'ziga xos hududiy ishlab chiqarish majmuasi (kompleksi)ni shakllantiradi. Bunday majmualarning eng murakkab va rivojlangan shakli esa qishloq xo'jaligi va qayta ishlovchi sanoat (rasman oziq-ovqat sanoati) asosida vujudga keladi.

Agrosanoat majmuini bundan ham keng ma'noda talqin qilish mumkin. U holda bu majmua sanoatning qishloq xo'jaligi bilan bog'liq barcha tarmoqlarini, transport va omborxonalarini ham o'z qamroviga oladi. Aynan shu mazmunda agrosanoat majmualari milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning o'zagini hosil qiladi.

Sanoatda bo'lganidek, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishda ham eng asosiy omil bozor munosabatlari bo'lib qolmoqda. Nimani yetishtirishni hozirgi kunda bozor, narx-navo belgilaydi, ammo bu ta'sir qishloq xo'jaligida ma'lum vaqt o'tgandan so'ng o'z kuchini ko'rsatadi (chunki, mahsulot yetishtirish uchun ancha vaqt talab etiladi, sanoatda esa bu jarayon nisbatan tez kechadi).

Respublikamiz sharoitida ko'p va har doim iste'mol qilinadigan mahsulotlarning bozor konyukturasida o'ziga xos o'zgarishlar bo'lib turadi. Masalan, bir yili piyoz kamchilik va qimmatlik bo'lsa, ikkinchi yili, aksincha, kartoshka qimmat bo'lishi mumkin. Bunday bozordagi vaziyatning almashib turishi dehqonchilik ixtisoslashuvi va joylanishida tez-tez o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Xuddi shunday holat sabzi, karam va boshqa kundalik hayot uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirilishda ham kuzatiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Qishloq xo'jaligining ijtimoiy tashkil etish xususiyatlari qachon vujudga kelgan?
2. Qishloq xo'jaligining hududiy tashkil etish shakllari qanday?
3. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari bo'linish xususiyatlari.
4. Dehqonchilik tarmoqlari va uni joylashtirish.
5. Chorvachilik tarmoqlarini hududiy tashkil etish.
6. Hududiy tashkil etish ushbu tarmoq iqtisodiyotiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?
7. Qishloq xo'jaligida fan-texnika taraqqiyoti qanday o'z aksini topadi?
8. Bozor iqtisodiyotining qishloq xo'jaligi rivojlanishi va joylanishiga ta'sirini tushuntirib bering.

Y

E

Rəja:

1. Dehqonchilik tarmog‘i

T

2. Donli ekinlar (bug‘doy, arpa, sholi, javdar)

3. Tolali ekinlar (paxta, uzun tola zig‘ir, kanop, sizal)

C

Tayanch iboralar: dehqonchilik, donli ekinlar, bug‘doy, arpa, sholi, DEHQ, moyli ekinlar, RMOQLARI GEOGRAFIYASI zig‘ir, kanop, sizal.

1. Dehqonchilik tarmog‘i

Qishloq xo‘jaligi ikkita yirik tarmoqqa - dehqonchilik va chorvachilik kabi tarmoqlariga bo‘linadi. Ulardan jahon xo‘jaligiga eng ko‘p ta‘sir ko‘rsatadigani dehqonchilikdir.

Dehqonchilik - o‘simlik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun madaniy o‘simliklar (qishloq xo‘jaligi ekinlari)ni etishtiradigan muhim tarmoqdir. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari, chorvachilikni yem-hashak, ko‘pgina sanoat tarmoqlari (oziq-ovqat, to‘qimachilik, farmatsevtika va boshqa)ni xomashyo bilan ta‘minlaydi. Chorvachilik bilan uzviy bog‘liq. Dalachilik (asosiy tarmoq), sabzavotchilik, polizchilik, bog‘dorchilik, gulchilik, yaylov-o‘tloqchilik kabi tarmoqlarga bo‘linadi.

Dehqonchilik sug‘oriladigan va lalmikor turlarga bo‘linadi. Sug‘oriladigan maydonlar ulushi Markaziy Osiyo Respublikalari, Eron, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Indoneziya va AQSh kabi davlatlarda eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega.

Ekinlarning turlari bo‘yicha dehqonchilik an‘anaviy tarzda donchilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik, texnik ekinlar va hokazo yo‘nalishlarga ajratiladi. Bunday ekinlarni yetishtirish bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lib, madaniy ekinlarning kelib chiqishi turli mintaqalarga tegishlidir.

Madaniy ekinlarining kelib chiqish markazlari

Markazlar	Geografik o‘rni	Madaniy ekinlar
O‘rta Yer dengizi bo‘yi	O‘rta Yer dengizi qirg‘oqlari mamlakatlari (Italiya, Ispaniya, Gretsiya)	Zaytun, qizilcha, turp, sholg‘om, karam, piyoz, shivit, kashnich, yalpiz, kanop, zig‘ir
Old Osiyo	Eron, Kavkaz, Kichik Osiyo	Yumshoq bug‘doy, javdar, arpa, suli, dukkaklilar, uzum, olma, nok, olcha, anor, xurmo, qovun, atirgul
O‘rta Osiyo	Afg‘oniston va O‘rta Osiyo	No‘xat, yasmiq, qovoq, ismaloq, sabzi, boshpiyoz, shaftoli, o‘rik, grek yong‘og‘i, bodom
Sharqiy Osiyo (Xitoy)	Sharqiy va Janubiy Xitoy, Koreya	Tariq, arpa, xitoy qo‘nog‘i, marjumak, soya, kivi, dolchin, choy.
Janubiy Osiyo (Hindiston)	Gang daryosi mansabi	Sholi, baqlajon, bodring, mango, limon, apelsin, shakarqamish, jut, qisqa tolali g‘o‘za.
Hind-Malaya	Hindixitoy va Malakka	Yams, banan, kokos palmasi, non daraxti, qora murch, muskat yong‘og‘i.
Efiopiya	Efiopiya	Qattiq bug‘doy, sorgo (qo‘qonjo‘xori), xantal, kunjut, kofe daraxti.
Meksika (Markaziy Amerika)	Meksika va Markaziy Amerika	Makkajo‘xori (mais), pomidor, batat, kungaboqar, qalampir, ingichka tolali g‘o‘za, kakao, tamaki.
And (Janubiy Amerika)	Peru, Ekvador, Boliviya	Kartoshka, maniok, loviya, ananas, yeryong‘oq, geveya
Chili	Markaziy Chili	Kartoshka, qulupnay
Braziliya	Janubiy Braziliya va Paragvay	Maniok, yeryong‘oq, ananas, kakao, geveya

Manba: “Worldometers” tashkiloti ma’lumotlari, 2024.

2. Donli ekinlar (bug‘doy, arpa, sholi, javdar)

G‘allachilik - dehqonchilikning asosiy tarmoqlaridan biridir. G‘allachilikning rivojlanishi tabiiy, biologik, iqtisodiy omillar bilan bog‘liqdir. G‘alla yetishtirish hozirgi dehqonchilikda mexanizatsiyaning yuksak darajada ekanligi bilan farq qiladi. G‘alla ekinlaridan almashlab ekishda keng foydalaniladi, shudgor uchun yerlarga dam berilganda

ayniqsa hosildor bo‘ladi. G‘alla yetishtirish qadimdan u qadar intensiv soha hisoblanmagan. Genetika yutuqlari, shuningdek, o‘g‘itlar, ayniqsa, mineral o‘g‘itlardan foydalanish mamlakatimiz va bir qancha xorijiy mamlakatlarda g‘alla ekinlarining hosildorligini anchagina ko‘tarishga imkon berdi.

G‘alla ekinlaridan bug‘doyning ahamiyati yuqoridir. Bug‘doy jahondagi eng muhim oziq-ovqat ekini bo‘lib boshqa g‘alla ekinlaridan farqli o‘laroq, issiqlik resurslariga va tuproqning unumdorligiga ko‘proq talabchandir. Kuzgi bug‘doy bahorgi bug‘doyga nisbatan ancha ko‘p ekiladi. Kuzgi bug‘doy kuzgi va bahorgi davrlardagi yog‘in suvlaridan to‘laroq foydalanadi, shu sababli bu bug‘doy navi serhosil bo‘ladi.

Dunyodagi eng asosiy ekinlar bug‘doy, makkajo‘xori va sholi hisoblanadi, bu ekinlar barcha ekin maydonlarining 75 foizini egallaydi hamda donli ekinlar hosilining 85 foizini ta‘minlaydi.

Dunyo bo‘yicha yiliga 790–820 mln tonna bug‘doy yetishtiriladi. Bug‘doy ikki navga bo‘linadi. Qattiq bug‘doy unidan makaron mahsulotlari ishlab chiqariladi, yumshoq bug‘doy unidan non yopiladi. Bug‘doy Osiyo, Shimoliy Amerika, Yevropa va MDH davlatlarida yetishtiriladi, bu davlatlar ichida bug‘doy yetishtirish bo‘yicha:

1. Xitoy (140 mln tonna atrofida);
2. Hindiston (117 mln tonna atrofida);
3. Rossiya (85 mln tonna atrofida) yetakchilik qiladi.

Javdar bug‘doydan farqli o‘laroq, issiqlik rejimi sharoitiga, tuproq unumdorligiga u qadar talabchan emas. Javdar boshqa kuzgi g‘alla ekinlariga nisbatan qishga yaxshi bardosh beradi.

Arpa ham bug‘doy kabi mo‘tadil mintaqaning qadimgi dehqonchilik rayonlarida keng tarqalgan. Arpa eng ertapishar g‘alla ekinlaridan biri bo‘lib, sovuqqa yaxshi bardosh beradi va qurg‘oqchilikka chidamlidir. Arpa uchun qumloq tuproqli yerlar, ayniqsa, yaxshi hisoblanadi.

Makkajo‘xori yem-hashak uchun katta ahamiyatga ega, oziq-ovqat sanoatida ham ishlatiladi. Bu ekin harorat xilma-xil bo‘lgan joylarda ekiladi, ekinning vegetatsiya davri uzoq. Makkajo‘xori sovuqqa u qadar chidamli emas, issiqlik ko‘p bo‘lishini talab qiladi. Serhosil

o‘rtapishar va kechpishar navlarining pishishi uchun 2500—2700°C dan ortiq biologik samarali harorat bo‘lishi talab qilinadi. Makkajo‘xorining serhosil gibrid, ertapishar navlari yaratilgan.

Makkajo‘xori yetishtirish butun dunyoga keng tarqalgan. Yiliga dunyoda 700 mln tonna makkajo‘xori doni yetishtiriladi. Ayni vaqtda eng ko‘p makkajo‘xori yetishtiradigan davlatlar

1. AQSh (380 mln tonna atrofida);
2. Xitoy (280 mln tonnadan ortiq);
3. Braziliya (122 mln tonnadan ortiq) hisoblanadi.

Dukkakli don ekinlari (no‘xat, yasmiq, loviya, soya, mosh va boshqalar) tarkibida oqsil ko‘p qimmatli yem-hashak va oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi. Jahonda eng ko‘p yetishtiriladigan dukkakli ekin soya hisoblanadi, u namgarchilikni yaxshi ko‘radi. Mosh bilan no‘xat issiqlikka chidamli bo‘lganidan aksari Markaziy Osiyoda ekiladi.

Sholi - tropik ekin bo‘lib, harorat 12 - 15° bo‘lganda o‘sa boshlaydi. Vegetatsiya davri uzoq, lekin qora sovuqqa chidamsiz, foydali haroratlarning umumiy zahirasi 2200 (ertapishar navlar uchun) – 3300° (serhosil kechpishar navlar uchun) bo‘lishi kerak. Sholi boshqa ekinlardan suvni haddan tashqari ko‘p iste‘mol qilishi bilan farq qiladi. Vegetatsiya davrining ancha qismi atrofi o‘ralgan suv to‘la maydonlarda o‘tadi. Sholi Sharqiy, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarning asosiy ekini hisoblanadi.

Dunyo bo‘yicha yiliga 700 - 750 mln tonna atrofida guruch yetishtiriladi. Asosiy guruch yetishtiruvchi mamlakatlar Xitoy (211 mln tonnadan ortiq), Hindiston (157 mln tonna atrofida), Indoneziya (54 mln tonnadan ortiq) bo‘lib, shuningdek, Bangladesh, Vetnam, Tailand, Myanma, Filippin, Braziliya va Yaponiya davlatlari ham guruch yetishtirish bilan shug‘ullanadi. Don mahsulotlarini eng ko‘p eksport qiluvchi davlat AQSh hisoblanadi. Shuningdek, Kanada, Avstraliya va Argentina kabi davlatlar o‘zlarida yetishtirilgan donning 80 foizini eksport qiladi.

Tetiklashtiruvchi ichimlik beradigan ekinlar yetishtiruvchi davlatlar

Choy			Kofe		Kakao	
№	Mamlakat	Hajmi (mln t)	Mamlakat	Hajmi (mln t)	Mamlakat	Hajmi (mln t)
1	Xitoy	13,7	Braziliya	1172	Kot-d'Ivuar	1286
2	Hindiston	5,4	Kolumbiya	856	Indoneziya	610
3	Keniya	2,3	Indoneziya	370	Gana	599
4	Turkiya	1,5	Meksika	356	Nigeriya	441
5	Shri - Lanka	1,3	Gvatemala	212	Braziliya	236

Manba: "Worldometers" tashkiloti ma'lumotlari, 2024.

Texnika ekinlari-mahsuloti sanoat uchun xomashyo sifatida ishlatiladigan ekinlar.

Texnika ekinlari: tolali, moyli, qandli, dorivor va boshqa o'simliklarga bo'linadi.

Moyli ekinlarga:

- kungaboqar;
- yeryong'oq;
- soya kiradi.

Qandli ekinlarga:

- shakarqamish,
- qand lavlagi.

Dorivor o'simliklarga:

- jenshen,
- valeriana va boshqa o'simliklar kiradi.

3. Tolali ekinlar (paxta, uzun tolali zig'ir, kanop, sizal)

Texnika ekinlari tushunchasi shartli bo'lib, ular bir qator sanoat tarmoqlari - to'qimachilik, yog'-moy, shakar, qand va boshqa tarmoqlar uchun qimmatli xomashyo yetkazib beradi. Texnika ekinlari qayerda ekilsa, shu yerda qayta ishlanadi. Shuning uchun ASM ga kiruvchi korxonalar asosiy xomashyo bazalari yaqinida joylashtiriladi.

Shakarqamish va qandlavlagi yetishtiruvchi asosiy davlatlar

Shakarqamish			Qandlavlagi		
№	Mamlakat	Yillik hosil (mln t.)	№	Mamlakat	Yillik hosil (mln t.)
1	Braziliya	333	1	Fransiya	33
2	Hindiston	282	2	AQSh	30
3	Xitoy	89	3	Germaniya	27,6
4	Pokiston	54	4	Turkiya	20
5	Tailand	53	5	Rossiya	15
6	Meksika	46	6	Xitoy	14,6
7	Avstraliya	37	7	Italiya	14
8	Kolumbiya	36,9	8	Ukraina	13,9
9	Kuba	35	9	Polsha	12,6
10	AQSh	32,5	10	Buyuk Britaniya	10,3
Qolgan davlatlar		258,6	Qolgan davlatlar		72
Butun dunyo		1257,0	Butun dunyo		263,0

Manba: "Worldometers" tashkiloti ma'lumotlari, 2024.

Tolali ekinlarga paxta, uzun tolali zig'ir, kanop, sizal kiradi. **Paxta** - butun dunyoda to'qimachilik tolasi ishlab chiqarish uchun eng muhim xomashyo manbaidir. Uzun tolali paxta navlari uchun quyoshli kunlar ko'p bo'lishi kerak. Paxta O'rta Osiyoning sug'oriladigan yerlarida, shuningdek, Hindiston, AQSH, Turkiya, Misr kabi davlatlarda yetishtiriladi (4 - jadval).

Zig'ir - qadimdan subtropik va mo'tadil mintaqalarda ekiladi. Qadimdan zig'ir asosan moyi uchun ekilgan. Iqlim yumshoq va sernam bo'lgan shimoliy hududlarda zig'ir ekilishi uzun tolali zig'ir turlarining yaratilishiga olib keldi. Bu zig'irdan qimmatli tola bilan bir qatorda urug'idan yog' olinadi.

Nasha - ahamiyatiga ko'ra uchinchi o'rinda turadigan tolali o'simlikdir. Nasha tolasidan gazlama to'qish uchun yaroqli pishiq

ingichka tola olinadi. Shuningdek, bu toladan dag'al bo'lsa ham juda mustahkam arqonlar, baliq tutadigan to'rlar va boshqalar ishlanadi. Nasha tolasidan yasaladigan buyumlar o'rniga ko'proq sun'iy tola ishlatilmoqda, shuning uchun bu ekin maydonlari qisqarib ketdi.

Tamaki – issiq sevar o'simlik bo'lib, sovuqqa chidamsiz, namgarchilikning va tuproqda ozuqa moddalarning ko'p bo'lishini, juda ko'p mehnatni talab etadi.

Moyli ekinlar - kungaboqar, paxta, zig'ir, rijik, gorchitsa (xantal), maxsar, kunjut, soya, zaytun, palma va boshqalardir. Bulardan eng muhimi kungaboqardir.

Choy o'simligi issiqni va namlikni juda yaxshi ko'radi, tuproq tarkibida ozuqa moddalarning ko'p bo'lishini, shu bilan birga kuchsiz kislotali reaksiyada ham nam va havoni yaxshi o'tishini talab etadi. Choy o'simligi Xitoy va Hindistonda ko'p ekiladi.

4 - jadval

Eng ko'p paxta tolasi ishlab chiqaradigan va eksport qiladigan davlatlar o'nligi

№	Mamlakat	Paxta tolasi ishlab chiqarish (mln t)	№	Mamlakat	Paxta tolasining eksporti (mln t)
1	Xitoy	4,3	1	AQSh	1,6
2	AQSh	4,1	2	O'zbekiston	1,0
3	Hindiston	2,7	3	Avstraliya	0,6
4	Pokiston	1,6	4	Suriya	0,23
5	O'zbekiston	1,1	5	Argentina	0,22
6	Turkiya	0,8	6	Gresiya	0,19
7	Avstraliya	0,7	7	Mali	0,17
8	Braziliya	0,4	8	Benin	0,14
9	Suriya	0,3	9	Burkina-Faso	0,12
10	Gresiya	0,3	10	Turkiya	0,11

Manba: "Worldometers" tashkiloti ma'lumotlari, 2024.

Bog'dorchilik - qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i. U, asosan, meva va rezavor-meva mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanadi. Mevali ekinlar ko'pdan-ko'p daraxt turlarini va butalarni o'z ichiga

oladi. Oziq-ovqat va yengil sanoatni xomashyo bilan ta'minlaydi. Bog'dorchilikning asosiy mahsuloti mevalarda inson organizmi uchun juda zarur bo'lgan vitaminlar, uglevodlar (qand), organik kislotalar, oqsil, moy, mineral tuzlar va ovqatni hazm bo'lishiga yordam beradigan boshqa moddalar ko'p bo'ladi. Shuning uchun mevalar non, go'sht va sut mahsulotlari kabi oziq-ovqat ratsionida asosiy o'rin tutadi va sevib iste'mol qilinadi.

Bog'dorchilik mevalarning kelib chiqishi va biologik xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Urug'li mevali daraxtlar;
2. Danakli mevali daraxtlar;
3. Rezavor mevalar;
4. Yong'oq mevalilar;
5. Subtropik mevalar.


Jahonning ko'pgina mamlakatlarida uzumchilik yaxshi rivojlangan. Uzum yangiligida, quritilgan (mayiz va kishmish) holda iste'mol qilinadi. Shuningdek, vino, sharbat, kislotalar tayyorlanadi. Uzum tarkibida suv, shakar, olma, limon, temir va boshqa moddalar, turli vitaminlar bo'ladi.

Uzumchilikda uch xil yo'nalish mavjud:

1. To'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilinadigan xo'raki uzumlar yetishtirish;
2. Vinobop uzumlar yetishtirish;
3. Mayiz (kishmish) tayyorlash.

O'zbekistonda ham bog'dorchilik va uzumchilik qadimdan rivojlanib kelgan. Jahon bog'dorchiligida O'zbekiston ham muhim o'rin egallaydi. O'zbekistonda yetishtirilgan anor, anjir, xurmo, yong'oq, o'rik, gilos, olma, nok va boshqa mevalar dovrug'i olamga mashhur. Respublika bog'larida yetishtirilgan mevalar eksport hajmini oshirishdan tashqari, yana ular yetkazib berilayotgan mamlakatlar geografiyasi ham kengaymoqda. Masalan, 2024-yilning o'zida eksport qiluvchi mamlakatlar 9 taga ko'paydi. Ispaniya va Italiyaga ilk bora konservalangan kavrak, Livanga yong'oq, Vetnamga – quritilgan uzum (mayiz) eksport qilindi. Ro'yxatda yana Belgiya, Shveysariya,

Gollandiya, Chexiya va Isroil ham bor. 2018-yilda O‘zbekiston Xitoy bozoriga ilk bora gilos va moshni eksport qildi. Quyidagi diagrammadan ham O‘zbekistondan meva va sabzavotlar eksport miqdorini oshganligini ko‘rishimiz mumkin (5 - rasm).



5 - rasm. O‘zbekistondan meva sabzavot mahsulotlarining eksporti
(mln tonna his.)

Manba: “Worldometers” tashkiloti ma’lumotlari, 2024.

Sabzavot ekinlari xilma-xil botanik turlarga kiradigan ko‘plab madaniy ekinlarni o‘z ichiga oladi. Ularning tarkibida inson organizmi uchun zarur bo‘lgan uglevodlar, oqsillar, moylar, mineral tuzlar, fermentlar va ko‘pgina vitaminlar mavjud. Inson sabzavotlarni iste’mol qilishi orqali o‘zi uchun zarur bo‘lgan vitaminlar bilan ta’minlanadi.

Sabzavotlarni quyidagi guruhlarga bo‘linadi.

1. Ildizmevalilar (sabzi, osh lavlagi, sholg‘om, turp, pasternak bryukva).

2. Tugun mevalilar (kartoshka, batat).

3. Karam o‘simliklari (karamning barcha turlari).

4. Mevali sabzavotlar (pomidor, baqlajon, qalampir, fazilas).

5. Qovoqsimon sabzavotlar (bodiring, kabachka).

6. Piyozli o'simliklar (sarimsoq, boshpiyoz, porey va shalot piyozlari).

7. Ko'kat ekinlari (rediska, salat, ukrop).

8. Ko'p yillik sabzavotlar (shovul, rovoch, sparja).

Sabzavotlarni kundalik iste'moldan tashqari oziq-ovqat sanoatidagi ahamiyati ham juda yuqori. Sabzavotlar yangi holda, konserva qilinib, quritilib va boshqa usullar bilan ishlov berilib iste'mol qilinadi. Shahar aholisi o'sib borgan sari sabzavotchilik yirik shaharlar atrofida keng rivojlangan va shahar aglomeratsiyalari yaqinlarida, shuningdek, sanoatda qayta ishlash bilan shug'ullanadigan maxsus korxonalar to'plangan joylarda sabzavot ekinlari ekish yaxshi samara beradi. Issiqlik serob bo'ladigan janubiy mamlakatlarda sabzavot ekinlarining tarkibi xilma-xil, hosildorligi ham yuqori bo'ladi.

Yem-hashak ekinlari. Yem-hashak uchun ekiladigan o'simlik va ekinlar dehqonchilikda salmoqli o'rin tutadi. Bu soha chorva mollari uchun xilma-xil va to'yimli ozuqa yetishtirib beradi. Yem-hashak ekinlari chorvachilikni rivojlantirishda va ozuqa bazasini mustahkamlashdagi ahamiyati juda yuqori. Negaki, yem-hashak ekinlari yetishtirishni ko'paytirmasdan turib, chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash va rivojlantirish mumkin emas. O'z navbatida hashaki ekinlar tuproqni chirindiga boyitadi, uning suv, havo o'tkazish qobiliyatini oshiradi, fizik xossalarini yaxshilaydi, mikrobiologik faoliyatini kuchaytiradi va tuproqning unumdorligini oshiradi. Yem-hashak ekinlari ekilganda tuproq suv va shamol eroziyasidan saqlanadi. Tuproqning kimyoviy tarkibi o'zgarib, sho'rlashishga qarshi kurashish qobiliyati ortadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Dehqonchilik tarmog‘i va uning rivojlanish omillarini aytib bering.
2. Donli ekinlar turlarining tarqalish areallari.
3. Tolali ekinlar turlarini sanab bering.
4. Sabzavotlarni qanaqa guruhlarga bo‘linadi?
5. Madaniy ekinlarining kelib chiqish markazlari.
6. Tetiklashtiruvchi ekinlar yetishtirish.
7. Shakar va yog‘ beruvchi o‘simliklarning tarqalish areali va ishlab chiqarishning hududiy xususiyatlari.
8. Bog‘dorchilik va uning rivojlanishi.
9. Yem-xashak ekinlari va uning yetishtirilishi.

SAKKIZINCHI MAVZU. DONLI EKINLAR GEOGRAFIYASI

Reja:

1. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida donchilikning tutgan o‘rni.
2. Dunyo mamlakatlarida donchilikning joylanishi va rivojlanishi.
3. Kuzgi va bahorikor donchilik.
4. O‘zbekistonda donchilik va uning rivojlanishi.

Tayanch iboralar: dala ekinlari, donli ekinlar geografiyasi, donli ekinlarning turlari, donli ekinlarning kimyoviy tarkibi, g‘alla yalpi hosili, eng ko‘p bug‘doy yetishtiruvchi mamlakatlar, eng ko‘p sholi yetishtiruvchi mamlakatlar, eng ko‘p makkajo‘xori yetishtiruvchi mamlakatlar, “bug‘doy talvasasi”, bug‘doy poytaxti”, “sholikor” mamlakatlar, g‘alla eksport manbai ekanligi, kuzgi ekinlar, bahori ekinlar, don-dukkakli o‘simliklar.

1. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida donchilikning tutgan o‘rni

Donchilik qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining eng muhim sohalairdan biridir. Dala ekinlari balansida donchilikning ulushi katta. Jahon mamlakatlarida donli ekinlardan eng ko‘p tarqalganlari bug‘doy, sholi, makkajo‘xori, arpa, jo‘xori, tariq, sulii va javdar hisoblanadi.

Donli ekinlarning xalq xo‘jaligida ahamiyati katta. Donli ekinlar oziq-ovqat sanoatida va chorva mollari uchun ozuqa tayyorlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Donli ekinlar o‘zida inson organizmi uchun zarur bo‘lgan oqsil moddasini va uglevodni ko‘p saqlaydi. Masalan, bug‘doyning kimyoviy tarkibi 100% bo‘lsa, shundan 13,6 foizi suv, 16,8% foizi oqsil moddasi, 63,8% foizi uglevod, 2% foizini yog‘ va boshqalar tashkil qiladi. Shuningdek, donli ekinlarning tarkibida fermentlar va kompleks V vitaminlari (V1, V2, V6), RR va provitamin A bor.

Don va don mahsulotlari non tayyorlashda, makaron, konditer mahsulotlari ishlab chiqarishda, ozuqa konsentratlari, konserva tayyorlashda, to‘qimachilik va sanoatning boshqa sohalarida keng

qo‘llaniladi. Donning davlat oziq-ovqat zaxirasi va eksport predmeti sifatida ham ahamiyati katta.

Butun dunyodagi jami ekin maydonlarining yarmiga donli ekinlar ekiladi. Don ekiladigan yerlarning katta qismi, asosan, aholi yashaydigan yerlarga to‘g‘ri keladi. Jahonda don yetishtirish tobora o‘sib bormoqda. Hozirgi kunda jahon bo‘yicha yiliga jami 3 mlrd. tonna don yetishtirilmoqda. Jahon don xo‘jaligi asosan uch xil don - bug‘doy, sholi, makkajo‘xori yetishtirishdan iborat bo‘lib, ular g‘alla yalpi hosilining 4/5 qismini beradi va aholiga zarur bo‘lgan oziq-ovqat quvvatining deyarli yarmini ta‘minlaydi.

Bug‘doy - insoniyatning taxminan yarmi uchun asosiy non mahsulotidir. Rus akademigi N.I.Vavilov (1887-1943) bug‘doyning asl vatani Old Osiyo bilan O‘rta dengiz bo‘yi ekanligini aniqlagan. Hozirgi vaqtda bug‘doyzorlar aholi yashaydigan barcha qit‘alarda mavjud. Bug‘doy ekiladigan asosiy mintaqa shimoliy yarimsharda, kichikroq mintaqa esa janubiy yarimsharda joylashgan. Yil davomida biror oy yo‘qki, yer sharining biror joyida bug‘doy o‘rilmayotgan bo‘lsin. Masalan, bug‘doy aprel-iyun oylarida AQShning janubiy rayonlarida, O‘rta dengiz bo‘ylarida, Xitoyda, Hindistonda; iyul-avgust oylarida AQShning qolgan rayonlarida, Yevropaning katta qismida; sentabr-noyabr oylarida Kanada, Shimoliy Yevropa, Rossiyaning sharqiy qismlarida; dekabr-mart oylarida janubiy yarim shardagi Argentina, Avstraliya, Yangi Zelandiyada o‘riladi. Bug‘doy dunyoning 70 ga yaqin mamlakatlarida yetishtiriladi. Lekin yalpi hosilining asosiy qismi bir necha mamlakatga to‘g‘ri keladi. Kanada, AQSh, Avstraliya, Rossiya, Qozog‘iston, Ukraina dunyoning asosiy bug‘doy ekiladigan hududlaridir.

2. Dunyo mamlakatlarida donchilikning joylanishi va rivojlanishi

Dunyodagi g‘alla yetishtiriladigan eng yirik hududlardan biri AQShning Markaziy tekisliklari bo‘lib, u shimolda Kanadaning dasht viloyatlari bilan tutashgan. Bu yerdagi bepoyon maydonlar XX asr boshlarida “bug‘doy talvasasi” davrida haydalgan. Bu yerlarda unidan yuqori sifatli non mahsulotlari tayyorlanadigan qattiq bug‘doy ko‘p

yetishtiriladi. Kanadaning Vinnipeg shahri “bug‘doy poytaxti” deb ataladi.

Hozirgi kunda eng ko‘p bug‘doy yetishtiriladigan mamlakat Xitoy bo‘lib, yiliga 140 mln.tonna bug‘doy olinadi. Keyingi o‘rinlarda Hindistonda 117, Rossiyada 85, AQShda 54 mln.tonna, Kanadada 35, Fransiyada 34, Avstraliya 32, Pokistonda 30, Ukraina 26 va Germaniyada 22 mln.tonnani tashkil qiladi. Dunyo mamlakatlarida yetishtiriladigan don ekinlari yalpi hosilining 28%i bug‘doyga to‘g‘ri keladi.

Sholi yer sharida keng tarqalgan qadimiy don ekin turlaridan biridir. Butun insoniyatning yarmi non o‘rnida iste‘mol qiladi. Sholi juda qadimdan Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida yetishtirib kelingan. Dunyodagi yalpi sholi hosilining 9/10 qismi Osiyoning sholikor mamlakatlariga to‘g‘ri keladi. Dunyodagi barcha sug‘oriladigan yerlarning 2/3 qismiga sholi ekiladi. Masalan, Indoneziya, Yaponiyada yalpi ekin maydonlarining 2/3 qismiga, Filippinda 9/10 qismiga sholi ekiladi.

Sholi donli ekinlar ichida maydonining kattaligi va yalpi hosilining ko‘pligi jihatdan faqat bug‘doydan keyinda turadi. Dunyo don ekinlari yalpi hosilining 26%i sholiga to‘g‘ri keladi.

Sholining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati katta. Undan oziq-ovqatda, poxolidan eng sifatli karton va qog‘oz ishlab chiqarishda foydalaniladi. Sholi issiqsevar ekin bo‘lib, maydonlari doimo suv bilan to‘ldirilib turiladi. Suv bo‘lmasa, uning yon ildizlari rivojlana olmaydi. Dunyoda eng ko‘p sholi yetishtiruvchi mamlakat Hindisonda bo‘lib, u yiliga 150, Xitoy 145 mln.tonna hosil olinadi. Bu ko‘rsatkich Indoneziyada 55 mln.t, Tailandda 35, Myanma 25 mln.t, Filippin 20 mln.t, Pokiston 15 mln.t, Kambodja 12 mln tonna sholi yetishtiriladi. Ushbu davlatlar global sholi yetishtirishning katta qismini beradi, ya‘ni asosiy yetakchi 10 mamlakat deyarli dunyo ishlab chiqarishining 80–85% ga yaqinini tashkil etadi.

Makkajo‘xori qimmatli , serhosil donli ekindir. Uning xo‘jalikdagi ahamiyati katta. Vatani - Meksika. Yangi dunyo - Amerika kashf qilingandan so‘ng dunyoning boshqa hududlariga ham tarqalgan.

Makkajo‘xorini faqat doni uchun emas, balki yem-xashak uchun ham ekilishi keyingi vaqtda bu ekin yetishtiriladigan maydonlarning kengayishiga olib keldi. Biroq, makkajo‘xori yetishtiriladigan asosiy mamlakat AQSh edi, hozir ham shunday. Bu ekin tarqalgan asosiy rayonlar AQShning makkajo‘xori mintaqasi - Buyuk ko‘llarning janubida joylashgan. Bu yerning tabiiy sharoiti makkajo‘xori yetishtirish uchun juda qulay. Ayova shtati ayniqsa mashhur. Makkajo‘xori yetishtirish bo‘yicha AQSh 1-o‘rinda, Xitoy 2-o‘rinda, Braziliya 3-o‘rinda turadi.

Makkajo‘xori chorva mollariga yem, kishilarga oziq-ovqat, texnikada qayta ishlash uchun xomashyo bo‘ladi. Uning tarkibida 13% suv, 9,7% oqsil, 4,5% yog‘, 68,9% kraxmal, 2,4% sellyuloza va vitaminlar bor.

Dunyoda yetishtiriladigan donning, asosan bug‘doy va makkajo‘xorining 10-15%i jahon bozoriga chiqariladi. G‘alla eksport qilishda AQSh, Kanada, Avstraliya, Fransiya, Argentina davlatlari jahonda yetakchi. Bu mamlakatlarda don xo‘jaligi xalqaro ixtisoslashgan tarmoqqa aylangan. Kanada va Avstraliya yillik bug‘doy hosilining, Argentina makkajo‘xori hosilining 80 foizini chetga eksport qiladi.

3. Kuzgi va bahorikor donchilik

Donli ekinlar kuzgi va bahorgi ekinlarga bo‘linadi. Kuzgi ekinlar, odatda, kuzda ekiladi, hosili kelgusi yili yig‘ishtirib olinadi va yaxshi hosil beradi. Kuzda ekinlarning bahori ekinlardan asosiy farqi ularning vegetatsiyasida. Kuzda qilingan dehqonchilik yog‘in-sochindan, tuproqning ozuqa moddasidan to‘la bahramand bo‘ladi va yoz, qisman bahorda kechiriladigan qurg‘oqchilikka chidamli bo‘ladi. Kuzgi ekinlar erta bahorda, ko‘pgina begona o‘tlardan oldin unib chiqadi va bahorgi ekinlarga nisbatan kamida 10-15 kun erta pishadi. Natijada u bahorgi ekindan oldinroq yig‘ishtirib olinadi va ekinzor o‘rnidan ikkilamchi hosil olish uchun foydalanish mumkin.

Kuzgi ekinlar ichida kuzgi bug‘doy, kuzgi arpa, kuzgi javdarning ahamiyati katta. Bahorgi donchilik ham dunyo dehqonchiligida salmoqli o‘rin tutadi. Unga bahorgi bug‘doy, bahorgi arpa, bahorgi suli kabilar

kiradi. Yuqorida qayd qilingandek, bu ekinlarning kuzgi navlari ham bor. Jumladan, bahorgi donli ekinlarga grechixa, tariq, makkajo‘xori, jo‘xori sholi, don-dukkaklilardan no‘xot, yasmiq, soya, nut, loviya, mosh, moyli ekinlardan kungaboqar, maxsar, kunjut, kanakunjut kabilar ham kiradi. Bahorgi ekinlar orasida bahorgi bug‘doyning ulushi katta. U shimoliy qutb doiraisdan tortib, Afrika va Amerikaning eng janubiy chegaralarida ham yetishtiriladi.

4. O‘zbekistonda donchilik va uning rivojlanishi

Donchilik O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining ajralmas muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tarkibiy qismidir. Ayniqsa, respublikamiz mustaqillikka erishgach, don yetishtirishga yanada ko‘proq ahamiyat berila boshlandi.

Don O‘zbekistonda obikor va bahorikor (lalmikor) mintaqalarda yetishtiriladi. Obikor mintaqalarda, asosan, makkajo‘xori, bug‘doy va sholi yetishtiriladi. Respublikada bug‘doyning 2/3 qismi bahorikor yerlardan olinadi. Bahorgi bug‘doy Samarqand, Toshkent, Sirdaryo, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarining tog‘ bilan tutash zonalarida - to‘lqinsimon past-balandliklarda, lalmikor yerlarda ekiladi.

Makkajo‘xori respublikamizning barcha viloyatlarida ekiladi. U chorvachilikda ham juda muhim ozuqadir. O‘zbekistonda 18 ta ixtisoslashtirilgan makkajo‘xorichilik xo‘jaliklari bor. 2022-yilda 656 ming tonna makkajo‘xori yetishtirilgan. O‘zbekiston g‘allachiligida sholikorlik ham muhim ahamiyatga ega. Aholining moddiy farovonligi oshgan sari, sholiga bo‘lgan talab ortib bormoqda. O‘zbekistonning iqlim-suv sharoitlari sholi yetishtirish uchun qulay. Sholi tinmay sug‘orishni talab qiladi. O‘zbekistonda sholi daryo bo‘ylarida, sho‘rbosgan ortiqcha yerlarga ekiladi. O‘zbekistonda keyingi yillarda ixtisoslashgan maxsus sholikorlik xo‘jaliklari tashkil qilingan. Bunday xo‘jaliklar, asosan, Quyi Amudaryo (Qoraqalpog‘iston va Xorazm)da joylashgan. 2025-yilda respublikada jami 160,7 ming gektar maydonga sholi ekilgan. Shu maydonda 820,4 ming tonna sholi hosili yig‘ilgan. Toshkent, Sirdaryo, Surxondaryo viloyatlarida ham maxsus sholikorlik xo‘jaliklari bor.

Savol va topshiriqlari

1. Dala ekinlari balansida donchilikning tutgan oʻrni.
2. Donli ekinlarning xalq xoʻjaligidagi ahamiyati.
3. Dunyoda har yili qancha don yetishtiriladi?
4. Donli ekinlar turlari va dunyo mamlakatlarida don yetishtirish.
5. Donli ekinlar balansida bugʻdoyning tutgan oʻrni. Eng koʻp bugʻdoy yetishtiruvchi mamlakatlar.
6. Donli ekinlar balansida makkajoʻxori va sholining tutgan oʻrni. Eng koʻp makkajoʻxori va sholi yetishtiruvchi mamlakatlar.
7. Kuzgi don ekinlari.
8. Bahorgi don ekinlari.
9. Donchilik - Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligining muhim tarkibiy qismi.
10. Oʻzbekiston donchiligida bugʻdoyning tutgan oʻrni.

TO‘QQIZINCHI MAVZU. KARTOSHKACHILIK, SABZAVOT, POLIZ VA MEVACHILIK GEOGRAFIYASI

Reja:

- 1. Sabzovotchilik va uning qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishidagi ahamiyati.**
- 2. Poliz ekinlari yetishtirish.**
- 3. Bog‘dorchilikning qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida tutgan o‘rni.**
- 4. Mevali o‘simliklar yetishtirish.**
- 5. Uzumchilik va uning joylanishi.**
- 6. Sitrus va subtropik o‘simliklar yetishtirish.**

Tayanch iboralar: sabzovotchilik, sabzovot tarkibi, vegetatsiya muddati, sabzovot yetishtirish usullari, poliz ekinlari, Bog‘dorchilik tarmoqlari, urug‘ mevalilar, danak mevalilar, rezavor mevalilar, yong‘oq mevalilar, subtropik mevalilar, sitrus mevalilar, tropik mevalilar, o‘rmon xo‘jaligi, O‘zbekistonda sabzovotchilik, poliz ekinlari yetishtirish, saqlash usullari.

1. Sabzovotchilik va uning qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishidagi ahamiyati

Oziq-ovqat sanoatida va insonning kundalik iste‘molida sabzavot va poliz mahsulotlarining ahamiyati katta. Fanda aniqlanishicha, odamning kundalik ovqat normasida sabzovotning hissasi 15% dan kam bo‘lmasligi kerak. Yiliga bir kishi o‘rta hisobda 120 kg dan ortiq sabzovot iste‘mol qilishi kerak.

Sabzavotning to‘yimliligi yaxshi va foydasi katta. Chunki ko‘pgina sabzovot mahsulotlari tarkibida inson organizmi uchun zarur bo‘lgan har xil foydali moddalar - uglevodlar (asosan qand), oqsil, organik kislotalar, mineral tuzlar, vitaminlar va boshqalar ko‘p. Sabzavot tarkibida qandning va organik kislotalarning bo‘lishi uning to‘yimliligini oshiradi, tarkibidagi mineral tuzlar kalsiy, kaliy, fosfor, magniy kabilar ko‘p bo‘lsa, inson tomonidan iste‘mol qilingan go‘sht va non

mahsulotlarini hazm bo'lishi yaxshilanadi. Sabzavot tarkibida uchraydigan vitaminlarning alohida fiziologik ahamiyati bor. Sabzavot mahsulotlari askorbin kislotasiga ega bo'lgan S vitaminiga juda boy. Shuningdek, inson organizmi uchun kerakli bo'lgan karatin (provitamin A), kompleks V vitaminlar (V1, V2, V6), RR (nikotin kislota) kabilar ko'p.

Sabzavot yetishtirish va uni sanoat usulida qayta ishlash texnologiyasi meva yetishtirish va meva konservalari tayyorlash texnologiyasi bilan o'xshash bo'lib, o'ziga xos agrosanoat siklini tashkil etadi.

Biologik va xo'jalik jihatdan o'xshashliklariga va agrotexnika tadbirlarini qo'llashdagi yaqinliklariga ko'ra, sabzavot ekinlari quyidagi guruhlarga bo'linadi: karam ekinlari, mevalilar, piyozgullilar, ildiz mevalilar, dukkaklilar, yashil sabzavotlar.

Sabzavot ekinlari yopiq grunt sharoitida issiqlik rejimini xohlaydi. Biroq, ularning yorug'likka talabchanligi turlicha. Masalan, karam, ildiz mevalilar, piyozlar va boshqa yashil o'simliklar yoryog'likni kam talab qiladi. Sabzavot ekinlari suvni ko'p talab qiladi. Agar yog'in ko'p bo'lib, ekin sug'orilmasa, hosil past bo'ladi.

Sabzavot ekinlari vegetatsiya muddati har xil bo'lishi va iqlim sharoitiga ko'ra talabchanligining bir xil emasligi hamda yirik shaharlar, iqlim sharoiti noqulay bo'lgan rayonlarni sabzavot bilan yil davomida ta'minlash masalasi sabzavot yetishtirishni ochiq va yopiq usulda amalga oshirishni taqozo qiladi. Sabzavotlarni ochiq usulda yetishtirish mo'tadil mintaqaning janubiy rayonlarida ayniqsa keng masshtabda, ma'lum agrotexnika tadbirlari asosida olib boriladi. Sabzavot, asosan, urug'idan ekiladi. Urug' saralangan va yuqori navli bo'lishi kerak. Urug' ekishning muddati joyning tuproq-iqlim sharoiti bilan hamda ekin ekish zarurati bilan bog'liq ravishda har xil bo'ladi.

2. Poliz ekinlari yetishtirish

Poliz ekinlari - qovun, tarvuz va qovoq tarkibida uglevodlar, ayniqsa qandning ko'pligi uchun ular oziq-ovqat ahamiyatiga ega. Tarkibidagi foydali moddalarning miqdori quyosh nuri ko'proq ta'sir

qiladigan janubiy rayonlarda ortib boradi. Tarvuzning tarkibida 6-11% gacha, qovunning tarkibida 10-14% gacha qand bo‘ladi.

Mamlakatimizda poliz ekinlaridan tarvuz keng tarqalgan. O‘zbekistonda tarvuzning Qo‘zivoy, Samarqand oq tarvuzi kabi navlari bor.

Qovun to‘yimligi va ta‘mining ustunligi bilan tarvuzdan farq qiladi. Uning tarkibida inson organizmi uchun zarur bo‘lgan uglevod, qand moddalari va S vitamini ko‘p. MDHda Markaziy Osiyo - O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Rossiyaning Volgabo‘yi rayonlarida, Moldaviya, Ukraina va Kavkazorti davlatlarida yetishtiriladi. Ayniqsa, O‘zbekistonning Mirzacho‘lida Turkmanistonning g‘arbiy qismida yetishtiriladigan qovunlar dunyoga mashhur. Qovunning Ko‘kcha, Cho‘giri, Amiriy, Shakarpalak, Obinovot, Qoraqand, Gurbek, Umrvoqi kabi navlari bor.

3. Bog‘dorchilikning qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida tutgan o‘rni

Bog‘dorchilik va qishloq xo‘jaligining meva va rezavor meva mahsulotlari yetishtirib beradigan sohasi. Tarkibida vitaminlar va tez hazm bo‘ladigan uglevodlar (qand), organik kislota kabilar ko‘pligi tufayli meva aholining ovqat ratsionida non, go‘sht va sut mahsulotlari bilan bir qatorda muhim o‘rin egallaydi. Bog‘dorchilik mahsulotlari yetishtirish dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida qishloq xo‘jaligining asosiy ixtisos sohasiga aylangan. Ayrim mamlakatlarda bog‘dorchilik mahsulotlari juda katta eksport ahamiyatiga ega. Italiya va Ispaniya uchun sitrus mevalari, Ekvador, Panama, Gonduras mamlakatlari uchun banan ana shunday ahamiyatga ega.

4. Mevali o‘simliklarni yetishtirish

Meva daraxtlari ekib, meva mahsulotlari yetishtirishga oid dastlabki ma‘lumotlar eramizdan oldingi V asrlarga taalluqlidir. Mevali o‘simliklar insonning ongli faoliyati bilan tabiiy va sun‘iy tanlanish natijasida yer sharida ko‘p tarqalgan yovvoyi turlaridan kelib chiqqan.

Mevali o'simliklar biologik xususiyatlari va turlariga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

a) Urug' mevalilar. Bunga olma, nok, behi, ryabina, do'landa va boshqalar kiradi.

b) Danak mevalilar. Bunga olcha, gilos, o'rik, shaftoli va boshqalar kiradi.

c) Rezavor mevalilar. Bunga yeryong'oq, malina, krijovnik, chernixa, golubika, qulpnay va uzum kiradi.

d) Yong'oq mevalilar. Bunga yong'oq, funduk, kashtan, bodom, pista va boshqalar kiradi.

e) Subtropik va sitrus mevalilar. Bunga apelsin, mandarin, limon, anor, anjir, xurmo va boshqalar kiradi.

f) Tropik mevalilar. Bunga banan, non daraxti kabilar kiradi.

O'simlik mevalari kishi organizmi uchun foydali bo'lgan moddalarga boy. Ularning tarkibida qand, yog', vitaminlar ko'p. Mevalarning ko'pchiligi qayta ishlanadi, quritiladi va ulardan murabbo, kompot, konservalar, sok, vino, sirop, spirt va boshqalar ishlab chiqariladi.

Respublikamizda bog'dorchilik ilmiy asosda maxsus tajriba stansiyalarida yangi navlarni yaratish asosida rivojlanmoqda. MDH mamlakatlarida bog'dorchilik geografik rayonlarning tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirilgan holatda rayonlashtirilgan. Kavkazorti davlatlarida, danak mevalilar bilan birga subtropik-sitrus mevalar yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Markaziy Osiyo davlatlarida danak mevalilardan o'rik, olxo'ri, olcha, gilos, shaftoli kabilar bilan birga, subtropik mevalardan anor, anjir kabilar ko'p yetishtiriladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Markaziy Osiyoga MDHda tayyorlanadigan quritilgan mevaning 72%i to'g'ri keladi. Bu mamlakatlar hududida MDHdagi shaftoli maydonlarining 50,4%i, o'rikning 30%i joylashgan.

5. Uzumchilik va uning joylanishi

Mevali o'simliklarning xarakterlisi tokdir. Dunyo mamlakatlarida tokning 70 ga yaqin turi bor. U vegetativ yo'l bilan ko'payadi. Ildiz sistemasi yaxshi rivojlangan bo'lib, 7 m chuqurlikkacha kirishi mumkin.

Tok naviga qarab 2-3 yilda hosilga kiradi va 60-80 yil umr ko‘radi. Tok uchun vegetatsiya muddati uzoq davom etadigan serquyosh rayonlar iqlimi juda qulaydir. Quyosh nuri hududga qancha ko‘p tushsa, uzumning sifati shuncha yuqori va qand moddasi ko‘p bo‘ladi. Uzum yetishtirish va uni sanoat usulida qayta ishlash jarayoni texnologik jihatdan bir-biri bilan uzviy bog‘langan bir butun agrosanoat siklini tashkil qiladi. MDH mamlakatlarida uzum yetishtirish asosan Markaziy Osiyo davlatlarida, Gruziya, Ozarbayjon, Armaniston, Ukraina, Moldova va Rossiyaning janubiy qismlarida yaxshi rivojlangan.

6. Sitrus va subtropik o‘simliklar yetishtirish

Sitrus va subtropik o‘simliklar faqat subtropik va tropik iqlimga xosdir. Sitrus o‘simliklar doim yashil bo‘lib, dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida 800 ming ga dan ortiq yerlarni egallaydi. Sitrus mevalari ichida apelsin, mandarin, limon ko‘p tarqalgan. Ularning tarkibida S, R, V vitaminlar bor. Mevasini iste‘mol qilish bilan birga undan sok, qiyom, limonad, kompot kabilar ham tayyorlanadi. Sitruszorlar, ayniqsa, AQSh, O‘rta Yer dengiz bo‘yi mamlakatlarida, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Avstraliyada ko‘p maydonlarni egallaydi. Ularning ko‘pchiligida bog‘dorchilikning bu tarmog‘i qishloq xo‘jaligining asosini tashkil etib, mamlakat eksportida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

MDH mamlakatlarida sitrus mevalaridan apelsin, mandarin va limon Kavkazorti davlatlarida, Rossiyaning Shimoliy Kavkaz rayonlarida yetishtiriladi. Markaziy Osiyo davlatlarida esa, asosan, limon yetishtirilib, maxsus issiqxonalar-limonariyalar tashkil etilgan. O‘zbekiston va Tojikistonda sitrus mevalar kam miqdorda yetishtiriladi. Surxondaryo viloyatidagi maxsus uzumchilik va bog‘dorchilik ilmiy tadqiqot birlashmasida yopiq usulda transheyalarda, limon yetishtiriladi.

Subtropik va sitrus o‘simliklar asosan bir xil zonalarda yoki iqlim sharoitiga ko‘ra bir-biriga o‘xshash hududlarda rayonlashtirilgan. Masalan, sitrus mevalari subtropik mevalar hisoblangan xurmo, anjir, anor bilan iqlimi bir-biriga o‘xshash zonalarda rayonlashtirilgan. Ma’lumki, anjir va anor Markaziy Osiyoning subtropik bo‘lmagan iqlimli rayonlarida ham yaxshi o‘sa oladi. Markaziy Osiyo davlatlari

ichida faqatgina Turkmanistonda janubi-gʻarbiy qismidagi quruq subtropik iqlimli zonada xurmo daraxti hosil beradi. Evkalipt, tung, bambuk, dafna daraxtlari, shakarqamish, choy, yongʻoq mevalilardan bodom va pista ham subtropik mintaqalarda yaxshi hosil beradi.

Oʻzbekistonda subtropik oʻsimliklardan anor, anjir bilan birga Surxondaryoning togʻli rayonlarida pista va bodom yetishtiriladi. Oʻzbekistonning unumdor tuprogʻi, serquyosh yozi kartoshka, sabzavot, ayniqsa poliz ekinlari yetishtirish uchun qulay. Qishloq xoʻjaligining bu tarmoqlari Oʻzbekiston xalq xoʻjaligining qadimiy tarmoqlaridir. Respublika bu mahsulotlar bilan oʻz aholisini taʼminlabgina qolmay, MDHning boshqa davlatlariga ham anchagina mahsulot yetkazib beradi. Mamlakatimizda sabzavot, kartoshka va poliz ekin maydonlari tobora kengayib bormoqda. 1918-yili Oʻrta Osiyoda bunday ekin maydonlari 60 ming ga boʻlsa, 1972-yili faqatgina Oʻzbekistonning oʻzida 60 ming ga yerga kartoshka, 60 ming ga yerga sabzavot va 50 ming ga yerga poliz ekinlari ekilgan. Hozir respublikamizda jami 244 ming ga yerda sabzavot, kartoshka va poliz ekinlari yetishtirilmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. Qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishida sabzavotchilikning oʻrni va roli.
2. Oziq-ovqat sanoatida va insonning kundalik isteʼmolida sabzavot mahsulotlarining ahamiyati.
3. Sabzavot mahsulotlarining tarkibi.
4. Sabzavot mahsulotlarini sanoat usulida qayta ishlash.
5. Sabzavot ekinlarining guruhlariga boʻlinishi.
6. Sabzavot ekinlari yetishtirish usullari.
7. Poliz ekinlarining qishloq xoʻjaligidagi oʻrni va roli.
8. Poliz ekinlariga qaysi ekinlar kiradi va ularning tarkibida qanday moddalar koʻp?
9. Bogʻdorchilikning qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishidagi oʻrni va roli.
10. Mevali oʻsimliklarning biologik xususiyatlari va turlariga koʻra guruhlariga boʻlinishi.

O‘NINCHI MAVZU. TEXNIK EKINLAR GEOGRAFIYASI

Reja:

1. Texnika ekinlarining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati.
2. Tolali texnika ekinlari.
3. Qandli texnika ekinlari.
4. Moyli texnika ekinlari.
5. Efir moyli va kauchukli texnika ekinlari.
6. O‘zbekistonda texnika ekinlari yetishtirish: paxtachilik va uning istiqbollari.

Tayanch iboralar: qum, shag‘al, mayda shag‘al, xarsang tosh, konstruksiyalar, binokorlik materiallar, yig‘ma temir-beton, sement ishlab chiqarish, devorbop materiallar.

1. Texnika ekinlarining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati

Texnika ekinlari xalq xo‘jaligida juda katta rol o‘ynaydi. Odatda, mahsuloti sanoat uchun xomashyo sifatida ishlatiladigan ekinlar texnika ekinlari deb ataladi. Texnika ekinlari tushunchasi shartlidir, chunki boshqa o‘simliklar - kartoshka, g‘alla kabilarning hosilini bir qismi ham sanoatda xomashyo sifatida ishlatiladi.

Texnika ekinlari, dastlab, sanoat ishlab chiqarishining muhim xomashyosi hisoblanadi. Ular xo‘jalik ahamiyatiga ko‘ra guruhlariga ajratiladi:

- a) Tolali texnika ekinlari - paxta, tolali zig‘ir, sizal, kanop, jut va boshqalar.
- b) Efir moyli va kauchukli o‘simliklar - shalfey, chinnidaraxt, jigarrang daraxt, kamafara daraxti, zanjabil, geran ...
- v) Moyli texnika ekinlari - kungaboqar, soya, yeryong‘oq, kanakunjut, koks palmasi, moyli palma, zig‘ir, raps, kunjut, maxsar.

Texnika ekinlari yetishtirish jahon mamlakatlarida katta masshtabda olib boriladi.

2. Tolali texnika ekinlari

Tolali texnika ekinlaridan paxta katta ahamiyatga egadir. Jahonda yiliga o'rtacha 24-26 mln tonna paxta tolasi ishlab chiqariladi. Paxta ekiladigan yerlar maydoni va paxta hosili bo'yicha Osiyo mamlakatlari 1-o'rinda turadi. Osiyo dunyoda paxtachilik juda qadimdan rivojlangan mintaqa xisoblanadi. Amerika mamlakatlari 2-o'rinni, Afrika mamlakatlari esa 3-o'rinni egallaydi.

Jaxonda paxta tolasi ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy 1-o'rinda turib, yiliga 6,2-6,8 mln.tonna tola ishlab chiqariladi. Bu ko'rsatkich Hindistonda 6,2-5,9 mln.tonna, AQShda 3,6-3,9 mln.tonna, Pokiston 2,4 mln.tonna, Braziliya 1,4 million tonna, O'zbekistonda esa 1,0-1,2 mln.tonnani tashkil qiladi.

G'oz o'simligining jahonda 30 yovvoyi, 5 madaniy turi bor. Ulardan eng ko'p tarqalgani meksika g'ozasidir. Dunyo mamlakatlarida yetishtiriladigan jami paxtaning 70% i meksika g'ozasiga to'g'ri keladi. G'ozaning bu madaniy turi AQSh, Meksika, Braziliya, Argentina, Hindiston, Xitoy, Avstraliya va Afrikaning qator mamlakatlarida ekiladi. Markaziy Osiyoda yetishtiriladigan 92% paxta ana shu meksika turiga mansub.

Dunyo paxtachiligida 2-o'rinda eng ko'p tarqalgan g'oz o'simligi hindi-xitoy turidir. Bu navli g'oz Hindiston, Pokiston va Xitoyda ekiladi. Uchinchi o'rinda g'oz o'simligining peruan turi keng tarqalgan. Bu turga ingichka tolali Misr paxtalari va Markaziy Osiyoda yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlari kiradi. Bu g'oz turi AQSh, Sudan, Braziliya, Peru mamlakatlarida ham yetishtiriladi.

Paxtachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati katta. Butun dunyoda ishlab chiqariladigan to'qimachilik sanoati mahsulotining 51,3%i paxta tolasidandir. Qolgan qismi jun, zig'ir, ipak, kimyoviy tola va boshqalarga to'g'ri keladi. 100 kg paxtadan 34-35 kg paxta tolasi, 55-57 kg chigit, 5-8 kg paxta chiqiti olinadi. 1 kg paxta tolasidan 5m polotno yoki 10-12 m chit yoki 20 m batis, yoki 140 ta g'altak ip tayyorlanadi. Paxta tolasi texnika maqsadlarida ham ishlatiladi. 10 kg chigitdan 19 kg yog', 47-49 kg kunjara ishlab chiqariladi. Chigitning sheluxasi chorva uchun ozuqa va texnika maqsadlarida ishlatiladi.

Paxtaning xalq xo'jaligidagi qimmatli tomoni yana shundaki, undan asalari yaxshi oziqlanadi. Bir gektar yerdagi g'oz o'simligidan asalari 300 kg gacha asal yig'ishi mumkin. Paxta yetishtirish tamoman sug'orishga tayangan dehqonchilikdir.

Tolali ekinlar ichida g'ozadan keyin uzun tolali zig'ir yetishtirish alohida o'rin tutadi. U bir yillik madaniy o'simlik bo'lib, vegetatsiya muddati 75-90 kun. Tolali zig'ir nam havo, qumoq tuproq, bulutli kunlarni ko'proq talab qiladi. Tanasida 20-28% tola bo'ladi. 1 kg zig'ir tolasidan 2,4 m.kub gazlama yoki 1,6 m.kub texnik gazlama ishlab chiqariladi. Zig'ir urug'i tarkibida 23% oqsil, 32-44% yog', 22% azotsiz ekstraktiv moddalar, 8,8% sellyuloza, 3,5% suv bo'ladi. Jahonda yetishtiriladigan zig'irning 3/4 qismi Rossiya va Belarusga to'g'ri keladi.

Tolali texnika ekinlaridan yana biri - kanopning poyasida 20-22% tola bo'lib, u rangsiz, egiluvchan, pishiq, ammo dag'al bo'ladi. Bu tola qop-qanor va o'rash uchun matolar, brezent, arqon va boshqa buyumlar tayyorlashda ishlatiladi. Urug'ining tarkibida 18-20% texnik moy bo'lib, u sovun pishirishda, teri va lak-bo'yoq sanoatida ishlatiladi. Kanopning asl vatani Hindiston va Janubiy Afrika. Markaziy Osiyo davlatlarida, Hindiston, Iroq, Indoneziya, Xitoy, Braziliya va AQShda ekiladi.

3. Qandli texnika ekinlari

Qandli texnika ekinlari ichida qand lavalgi va shakarqamishning ahamiyati katta. Dunyoda ishlab chiqariladigan qandning aksariyat qismi qand lavalgi va shakarqamishdan ishlab chiqariladi.

Qand lavlagi juda qadimgi ekin bo'lib, ishlab chiqarish maqsadiga ko'ra 2 ga bo'linadi: qand ishlab chiqarish (texnika maqsadiga) ko'ra va xashaki lavlagi yetishtirish turlariga bo'linadi.

Qand lavlagi yer sharida, asosan, mo'tadil iqlim zonasida yetishiriladi, undan janubga tomon o'rnini shakarqamish egallaydi. Qand lavlagi Rossiya, AQSH, qator Yevropa mamlakatlarida yetishtiriladi. Bu jihatdan Rossiya jahon mamlakatlari ichida 1-o'rinda turadi (41 mln.tonna), Fransiya 2-o'rinda (34 mln.t.), AQSH 3-o'rinda (33,3 mln.t.) turadi. Jahonda yiliga 150 mln.t. qand-shakar ishlab

chiqariladi, bundan 40 %i qand lavlagidan olinadi. Qand lavlagining ildiz mevasi tarkibida 16-22% shakar bor. Qand lavlagi Markaziy Osiyoda Qozog‘iston va Qirg‘izistonning Chu vodiysida ham yetishtirilmoqda.

Shakarqamish tropik va qisman subtropik o‘lkalarda yetishtiriladigan ko‘p yillik madaniy o‘simlik. Uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, poyasida to‘yimli moddalarning, jumladan, qandning ko‘pligidir. Butun dunyoda ishlab chiqariladigan qandning yarmidan ko‘pi shakarqamishdan olinadi.

Markaziy Osiyoda, jumladan, faqat O‘zbekistonning Surxondaryo viloyatidagi Oltinsoy tumanidagina shakarqamish ekiladi. Bizning sharoitimizda shakarqamish bir yillik o‘simlik. U kuzda yig‘ib olingan poyasidan o‘stiriladi. Shuning uchun shakarqamish o‘rish paytida ekiladigan qismi saralab qirqib olinadi va maxsus transheyalarda qish bo‘yi saqlanadi. Shakarqamish poyasidan bo‘yi 4 metrga yetadi. U issiqsevar o‘simlik. Poyasida 12-16% qand bor.

4. Moyli texnika ekinlari

Moyli ekinlar. Yer yuzasining oziq-ovqat mahsulotlari orasida donli ekinlardan keyin 2-o‘rinda turadi. Iste‘mol qilinadigan jami moyning 1/3 qismi o‘simliklardan olinadi. Ularning salmog‘i Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari aholisining oziq-ovqatida, ayniqsa katta ahamiyatga ega. Moyli texnika ekinlariga kungaboqar, soya yeryong‘oq, kanakunjut, kunjut, raps, xantal, maxsar, koks palmasi, moyli palma, maslina va boshqalar kiradi. Bu o‘simliklar urug‘ining tarkibida moy ko‘p. Shuning uchun ular moy olish maqsadida ishlatiladi. Moyli ekinlarga paxta, tolali zig‘ir, nasha, kanop va poliz ekinlarini ham qo‘shish mumkin. Biroq, bu ekinlarni, birinchi navbatda, boshqa maqsadlarda yetishtiriladi.

O‘simlik moyi chorva mollaridan olinadigan yog‘ bilan birga, oziq-ovqat, konserva, konditer mahsulotlari, margarin va boshqalar tayyorlashda ishlatiladi. Shuningdek, o‘simlik moyi stiarin, linolium, sovun, lak-bo‘yoq, to‘qimachilik, ko‘n, parfyumeriya sanoatlarida, tibbiyotda keng qo‘llaniladi. Uning kunjarasi chorva mollari uchun

qimmatli ozuqa hisoblanadi. O‘simlik moylari qurish xususiyatiga ko‘ra **3 guruhga** bo‘linadi:

- a) Qurib qoladigan moylar (zig‘ir, ko‘knor moyi)
- b) Chala quriydigan moylar (kungaboqar, maxsar, kunjut va soya).
- c) Qurimaydigan moylar (yeryong‘oq va kanakunjut moylari).

AQSh-soya, Hindiston - yeryong‘oq, Italiya - zaytunning yalpi hosili jihatdan dunyoda 1-o‘rinda turadi.

5. Efir moyli va kauchukli texnika ekinlari

Efir moyli o‘simliklar efir moyi olish uchun ekiladi. Efir moyi o‘simlikning bargi, guli, ildizi va boshqa qismlaridan olinadi. Efir moyli o‘simliklar, asosan, tropik va subtropik mintaqalarda rayonlashtirilgan. Efir moyli o‘simliklar turlicha o‘stiriladi. Masalan, soyabongullilar urug‘idan, ba‘zildari ko‘chatidan, yoki ildizidan, mevasidan, qalamchasidan o‘stiriladi.

Efir moyli o‘simliklardan xomashyo ishlab chiqarishga ko‘ra 3 guruhga bo‘linadi:

1) Donli efir moyli o‘simliklar. Masalan, kashnich, arpabodiyon, zira va boshqalar. Ular moyni mevasida to‘playdi.

2) O‘tsimon efir moyli o‘simliklar. Ularga yorongul, lavanda, limon sorgosi, yalpiz kabilar kiradi.

3) Gullaydigan efir moyli o‘simliklar. Ularga gul, oq piyozgul va boshqalar kiradi.

Dorivor o‘simliklar guruhiga tipik dala ekini sifatida tamaki va maxorka kiradi. Ular papiros, sigara, sigareta kabilar tayyorlash maqsadida yetishtiriladi. Dunyoda 3,5 mln.ga yerga tamaki ekiladi.

Tabiiy kauchuk yetishtirish bir muncha tor hududda to‘plangan. Uning 85 foizi Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlariga, ko‘proq Malayziya, Indoneziya, Tailandga to‘g‘ri keladi. Paxta, jun va tabiiy kauchuk jahon savdosining muhim mollaridir.

6. O‘zbekistonda texnika ekinlari yetishtirish: paxtachilik va uning istiqbollari

Paxta O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i bo‘lib, tovar mahsulotining asosiy qismini yetkazib beradi. O‘zbekiston paxtachiligi dunyoda paxta ekiladigan mintaqalarning eng shimoliysi hisoblanadi. Shunga qaramay, dunyoda paxtadan eng yuqori hosil yetishtirish maqsadida O‘zbekistonda paxtachilik xo‘jalikning ko‘pgina tarmoqlari bilan bog‘liq bo‘lib, paxta sanoat majmui tarkib topgan. Respublikada yengil va oziq-ovqat sanoati, kimyo sanoatining ayrim tarmoqlari paxtachilik xom ashyosi asosida ishlaydi.

Paxtachilik o‘lkamizda uzoq tarixga ega. Ayrim mutaxassislarining fikricha, paxta 5 ming yildan buyon ekiladi. Sovet hokimiyati yillarida kommunistik partiya va Sovet davlati paxtachilikning rivojlanishiga alohida ahamiyat berdi. Bundan birinchi navbatda Markaz manfaatdor edi. Natijada paxta O‘zbekistonda yagona qishloq xo‘jalik ekiniga aylanib qoldi. Sovet hokimiyati yillarida respublika paxtachilik geografiyasida kata o‘zgarishlar yuz berdi. Inqilobdan ilgari paxtaning qariyb 3/4 qismini Farg‘ona vodiysi yetkazib bergan bo‘lsa, besh yilliklar davrida bu tarmoq boshqa viloyatlarda ham tez sur‘atlar bilan rivojlandi.

Mirzacho‘l, Markaziy Farg‘ona, Sherobod, Qarshi, Jizzax cho‘llari va boshqa yerlarga suv chiqarilib, paxtachilikning yirik rayonlari bunyod etildi. Respublika viloyatlarining paxtachilikdagi hissasi bir-biriga yaqinlashib qoldi. Hozir O‘zbekistonda paxtachilik bir butun agrotexnika majmuini amalga oshirish yo‘li bilan rivojlantirilmoqda. Qashqadaryo, Buxoro, Andijon, Farg‘ona viloyatlarida yiliga 500 ming tonna atrofida paxta tayyorlanmoqda. Toshkent, Samarqand, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida esa 200 - 400 ming tonna paxta yetishtiriladi. Ingichka tolali paxta asosan Surxondaryo, shuningdek, Qashqadaryo, Buxoro va Namangan viloyatlarida ham yetishtiriladi.

Mustaqillik yillarida paxta ekin maydonlari bir muncha qisqardi. 1980-yili 2 mln.ga yerga paxta ekilgan bo‘lsa, 1991-yili 1,7 mln.ga ga tushib qoldi. O‘zbekistonda 2024-yil hosili uchun 1 million gektar maydonlarda g‘o‘za navlari ekilgan.

O‘zbekistonning tuproq-iqlim sharoiti boshqa texnika ekinlari yetishtirish uchun ham imkon beradi. Respublikamda kanop yetishtirishda ancha yutuqlarga erishdi. MDHda yetishtiriladigan kanop va jutning 94%i O‘zbekistonga to‘g‘ri keladi. Kanop asosan Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq, Quyi Chirchiq nohiyalarida yetishtiriladi. 1940-yillardan boshlab Samarqandning Urgut va qo‘shni tumanlarida tamaki yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida zig‘ir va kunjut yetishtiriladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qurilish materiallari tarmoqlarining rivojlanishiga qanday omillar ko‘proq ta’sir etadi?
2. Qurilish materiallari sanoati qanday tarmoqlardan iborat?
3. Sement nima uchun qurilishning “noni” deb aytiladi?
4. Yog‘ochni qaysi transportda tashigan maqul?
5. O‘rmonlari ko‘p mamlakatlar qaysilar?
6. Yog‘ochga mexanik ishlov berish deganda nimani tushunasiz?
7. Yog‘ochni qayta ishlash sanoatini qayerda joylashtirgan ma’qul?
8. Sellyuloza-qog‘oz sanoatining rivojlanishi qaysi tarmoq bilan uzviy bog‘liq?


O‘N BIRINCHI MAVZU. CHORVACHILIK VA UNING TARMOQLAR TARKIBI

Reja:

1. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari.
2. O‘zbekistonda qoramolchilikning rivojlanishi.
3. Parrandachilik, asalarichilik.

1. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari

Chorvachilik dunyoning barcha qismida rivojlangan, lekin mahsulotning asosiy qismini mo‘tadil iqlim mintaqasidagi mamlakatlar beradi. Jahonda o‘tloq va yaylovlar ekin maydonlaridan uch baravar ortiqdir. Bundan tashqari ta’kidlash kerakki, don mahsulotlarining yarmi chorva ozuqasi sifatida ishlatiladi. Jahon xo‘jaligida chorvachilikning uch tarmog‘i yirik shoxli qoramolchilik, cho‘chqachilik, qo‘ychilik alohida o‘rin tutadi.



6 - rasm. Chorvachilik tarmoqlari

Chorvachilik boqiladigan chorva mollarining turlariga, ulardan olinadigan mahsulotlar va yem-hashak zahirasining xususiyatlariga qarab tarmoqlarga bo‘linadi. Chorvachilikning asosiy tarmoqlariga quyidagilar kiradi (6-rasm). Bu tarmoqlar iste’mol qiladigan yem-hashaklarining umumiy xususiyatlari mavjud. Iste’mol qilinadigan yem-

hashak yem hashak birligi bilan o'lchanadi. Bu tarmoqlar asosiy chorvachilik mahsulotlarini yetkazib beradi.

5 - jadval

Chorvaning asosiy turlari soni bo'yicha yetakchi davlatlar

T/r	Mamlakat	Yirik shoxli qoramol (mln bosh)	Mamlakat	Cho'chqa (mln bosh)	Mamlakat	Qo'y (mln bosh)
1	Hindiston	222,2	Xitoy	465,0	Xitoy	133
2	Braziliya	176,0	AQSh	59,1	Avstraliya	123
3	Xitoy	106,7	Braziliya	30,0	Hindiston	57
4	AQSh	96,7	Germaniya	26	Eron	52
5	Argentina	50,1	Ispaniya	23,9	Yangi Zelandiya	48
6	Rossiya	36,1	Rossiya	19,5	Buyuk Britaniya	43
7	Efiopiya	34,2	Polsha	18,2	Turkiya	33
8	Avstraliya	21,3	Vetnam	18,0	Pokiston	31
9	Meksika	19,0	Hindiston	17,5	JAR	29
10	Kolumbiya	18,1	Meksika	15,5	Sudan	26

Manba: "Worldometers" tashkiloti ma'lumotlari, 2024.

Yem-hashak bazasi o'ziga xos bo'lgan ba'zi bir tarmoqlar, masalan, asalarichilik, hovuz baliqchiligi va boshqalar ham chorvachilikka kiritiladi. Qoramolchilik-chorvachilikning qadimiy va eng yirik tarmog'idir.

Qoramollar, asosan, sut va go'sht olish uchun boqiladi. Ularning terisi ko'n-poyabzal sanoati uchun xomashyo hisoblanadi.

Qoramolchilik. Bu tarmoq turli yo'nalishlarga ega:

➤ sutchilik,

➤ sut-go'sht,

➤ go'sht-sut

➤ go'sht chorvachiligi, bu esa chorva mollarining zotlari va yem-hashak zahirasining tarkibiga bog'liqdir (5 - jadval).

Sut chorvachiligi uchun xilxma-xil o'tlar o'sadigan yaylovlar, ayniqsa, qulaydir, molxonalarda beriladigan yem-hashaklar tarkibida esa konsentratsiya qilingan yemlar bilan birgalikda shirali va dag'al yem-

hashaklar ham zarur. Sutni ko‘paytirishga yordam qiladigan yashil yaylovlar va shirali yem-hashak lar sigirlarning sut mahsulotini ko‘paytirish uchun zarurdir. Sut chorvachiligi iste‘molchilarga yaqin joylarda rivojlantiriladi.


Go‘sh t chorvachiligi uchun yaylovlar va kserofit o‘simliklar yaroqlidir, molxonalarda beriladigan yem-hashak lar tarkibida esa dag‘al va konsentratsiya qilingan yem-hashak lar yaxshi natija beradi.

2. O‘zbekistonda qoramolchilikning rivojlanishi

Mamlakatimizda yaylov va molxonalarda yem-hashaklar nisbati xilma-xil bo‘lgan sharoitda, sut, go‘sh t va go‘sh t-sut qoramolchiligi eng ko‘p tarqalgan.

Qurg‘oqchil joylarda go‘sh t-sut va go‘sh t qoramolchiligi ustun turadi. Go‘sh t qoramolchiligi quruq dasht va cho‘l-dasht zonalari bir-biriga tutashgan joylarda, dasht hamda o‘tloq-dasht o‘tlari o‘sadigan tog‘li joylarda, yaylovlarda va og‘ilxonalarda mollarni bo‘rdoqiga boqish keng tarqalgan.

O‘zbekistonda qoramolchilik uchta alohida hududga ajratiladi



Go‘sh t qoramolchiligining taraqqiyoti ko‘p jihatdan dalalarda yem-hashak yetishtirishga, shuningdek, texnika ekinlari qayta ishlanganda chiqadigan chiqindilarga asoslanadi. Undan tashqari mollar semirtirish

uchun boqilganda, xususan ixtisoslashtirilgan xo‘jaliklarda va yirik chorvachilik majmualarida ko‘plab aralash em bilan boqishga ham bog‘liq. Go‘sh t qoramolchiligining mahsuldorligi oshirish uchun qoramollarning zotdor navlari yaratilmoqda.

Qo‘ychilik. Chorvachilikning muhim va yetakchi tarmoqlaridan biri qo‘ychilikdir (7 - rasm). Bu tarmoqning asosiy vazifasi jun, go‘sh t-yog‘, teri mahsulotlarini yetkazib berishdir. Qo‘ylarning eng qimmatli mahsulotlaridan biri-jun bo‘lib, jun yengil sanoatning muhim xomashyosi hisoblanadi.



7 - rasm. Qo‘ychilik tarmoqlari

Jahonda qo‘ychilik yaxshi rivojlangan bo‘lib, tarmoq tarqalgan areal juda keng. Qo‘ylar quruq dasht, chalacho‘l va cho‘l zonalari sharoitida yaylovlarda boqish uchun yaxshi moslashgan

Qo‘ychilik-qo‘ylar junining sifati bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarga bo‘linadi:

- mayin junli,
- yarim mayin junli,
- yarim dag‘al junli
- dag‘al junli.

Mayin junli va yarim mayin junli qo‘ylar qurg‘oqchil, mahsuldor yaylovlarga va yem-hashak bazasiga ega bo‘lgan hududlarda boqiladi.

Mayin junli va yarim mayin junli qo‘ylar yaxshi parvarishni talab qiladi. Bunday qo‘ylar uchun mahsuldor va suvi serob yaxshi o‘tloqlar bo‘lishi kerak. Chunki bunday qo‘ylar yaylovlarda uzoq yura olmaydi.

Mayin junli qo‘ychilik janubi-sharqiy Osiyoda Avstraliya va Yangi Zelandiyada juda yaxshi rivojlangan. Bu mamlakatlar qo‘y juni va go‘shini yetkazib berishda dunyoda yetakchilik qiladi.

Mayin junli qo‘ylar uzun tolali mayin jun beradi, bunday jundan eng yaxshi jun gazlamalar to‘qiladi, yarim mayin junli qo‘ylar esa mayin junga nisbatan kamroq ahamiyatga ega bo‘lgan jun hamda go‘sh beradi. Dag‘al junli qo‘ylar tarkibida go‘sh-tog‘ beradigan qo‘ylar (dumbali qo‘ylar) asosiy o‘rin tutadi, bunday qo‘ylardan go‘sh, tog‘ va dag‘al jun olinadi. Bunday qo‘ylar Qozog‘iston va O‘rta Osiyoning chala-cho‘l va cho‘l zonalarida boqiladi. Chunki, dag‘al junli qo‘ylar u qadar yaxshi yaylov tanlamaydi. Qo‘ylar aksari yaylovlarda boqilganda go‘sh yetishtirishning tannarxi chorvachilikning boshqa tarmoqlaridagiga nisbatan ancha past bo‘ladi.

Ma‘lumki, qorako‘l qo‘ylaridan juda qimmatli qorako‘l terisi olinadi. Qorako‘l terisining sifati qorako‘l qo‘ylarining tezroq so‘yilishiga bog‘liq. Odatda, sifatli qorako‘l terisi 1-3 kunlik qo‘zilardan olinadi. Ularning rangi sarg‘ish, qora, ko‘k bo‘ladi va terilar quyosh nurida tovlanib, o‘zgacha bir chiroy berib turadi.

Qorako‘l qo‘ylari Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida eng ko‘p boqiladi.

O‘zbekistonda yetishtirilgan qorako‘l terilari O‘zbekiston-Gretsiya hamkorligida tashkil etilgan “Buxoro-Omega” qo‘shma korxonasida qayta ishlanadi.

Respublikamizda qorako‘l qo‘ylaridan tashqari hisori qo‘y ham boqiladi. Hitori qo‘ylar yirik, ya‘ni katta bo‘lib, qo‘chqorlarining tirik vazni 190 kg gacha yetadi. Hitori qo‘ylar 140-150 kg go‘sh-tog‘ beradi. Bu qo‘ylar tog‘ oldi va tog‘li hududlar - Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Buxoro va qisman Xorazm viloyatlarida boqiladi.

Chorvachilikning muhim tarmoqlaridan biri echkichilikdir. Bu tarmoq, asosan, go‘sh, jun, teri va sut yetkazib beradi. Suti shifobaxsh va serqaymoq, shuning uchun ona sutidan keyingi o‘rinda turadi va chaqaloqlarga ko‘p beriladi. Junidan tivit ro‘mollari to‘qiladi, drap, adyol va turli trikotaj mahsulotlari tayyorlanadi.

Echkilar chidamli hayvon bo'lib, asosan, tog'li va tog' oldi hududlarda boqiladi. Namangan, Samarqand, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida rivojlangan.

Cho'chqachilik - haddan tashqari sergo'sht bo'lganidan va qimmatli oziq-ovqat mahsuloti - go'sht va yog' berganidan chorvachilikning eng tez yetiladigan tarmog'idir. Qoramolchilik va qo'ychilikdan farqli o'laroq, cho'chqachilik aksari dalada yetishtiriladigan yem-hashakka, asosan, omuxta yem-hashakka, shuningdek, ildiz mevalarga tayanadi. Cho'chqachilik dalalarda ko'plab yem-hashak yetishtiriladigan hududlarda ko'proq tarqalgan. Dasht va o'rmon-dasht zonalarida cho'chqachilik konsentratsiyalangan yem-hashak (arpa, makkajo'xori doni) bilan, to'la ratsionli sanoatda tayyorlangan aralash yem bilan boqiladi. Shuningdek, cho'chqalarni boqishning ildiz meva tipi ham keng tarqalgan. Dehqonchilik intensivlashtirilgan sari va aralash yem sanoati taraqqiy etishi bilan cho'chqachilikda cho'chqalarni yetishtirish va boqishning sanoat texnologiyasi ko'proq joriy qilingan.

Ko'pgina yirik cho'chqachilik majmualari yirik shahar va shahar aglomeratsiyalariga yaqin rayonlarda barpo etilgan.

Tuyachilik. Tuyachilik tropik va subtropik cho'l va cho'l zonalarida yetakchi o'rin tutadi. Cho'llarning asosiy transport hayvoni tuya hisoblanadi. Tuyalardan cho'llarda yuklarni tashishda transport sifatida keng foydalaniladi. Tuyadan go'sht, sut va jun olinadi.

Tuya cho'l, chala cho'l va quruq dasht zonalarining issiq iqlimiga moslashgan. Uzoq muddat davomida suvsizlikka chiday oladi, u bir necha kecha-kunduz suv ichmasdan yo'l bosishi mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, tuyachilik 4 ming yillik tarixga ega. Tuya sutidan shifobaxsh qimiz tayyorlanadi, go'shti iste'mol qilinadi. Juni esa to'qimachilik va gilam sanoatida qimmatli xomashyo hisoblanadi. O'zbekistonda tuyachilik ko'proq Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida rivoj topgan.

Parrandachilik (tovuq, o'rdak, g'oz, kurka) go'sht va tuxum beradi. Parrandachilik - chorvachilikning serdaromad, tez yetiladigan va xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega bo'lgan tarmog'i. Parrandalar

ko'p turdan iborat bo'lgani uchun (tovuq, o'rdak, g'oz, kurka, bedana) ular turlicha biologik xususiyatlariga ega. Ulardan tovuq va o'rdak 2-3 oyligida go'sht uchun so'yilishi mumkin. Tovuqlar 4-5 oyligidan tuxum bera boshlaydi. Parranda go'shti va tuxumi parhez taom sifatida foydalaniladi. Parrandachilik ikki asosiy yo'nalish - tuxum va go'sht parrandachiligidan iborat. Parranda boqish ko'p jihatdan yemga, donga asoslanadi. Parrandachilik tarixan yirik g'alla xo'jaligi rayonlari bilan bog'langan bo'lsa, bugungi kunga kelib parrandachilik fabrikalari mahsulot iste'mol qilinadigan joyga - yirik sanoat markazlariga, shaharlarga, shahar aglomeratsiyalariga yaqin bo'lish bilan bir qatorda g'alla yetishtiriladigan joylarda aralash yem ishlab chiqaradigan korxonalar yaqinidagi joylarda ham rivojlanmoqda.

Parrandachilikda chorvachilikning boshqa tarmoqlaridagiga nisbatan shlab chiqarishning sanoat texnologiyasi ko'proq joriy qilingan. G'alla ishlab chiqarishning ko'payishi chorvachilikning boshqa tarmoqlariga nisbatan parrandalar sonining tez sur'atlar bilan o'sishiga sabab bo'ladi.

Yilqichilik uch xil yo'nalishda: zotdor yilqichilik, ot-ulov yilqichiligi, mahsulot beradigan yilqichilikka bo'linadi.

Asalarichilik. Asalarichilikning xo'jalikdagi ahamiyati katta. Bu tarmoqda qimmatli oziq-ovqat mahsuloti-asal, asalari mumi va elimi olinadi. Shuningdek, asalarilardan o'simliklarni changlatishda foydalaniladi. Asalarichilik jahon qishloq xo'jaligining qadimdan rivojlanib kelgan tarmog'i hisoblanadi. Asal tarkibida 76% qand, 18% suv va 70 dan ortiq moddalar, organik kislotalar va vitaminlar mujassamlashgan. Shuning uchun u tabobatda ko'plab kasalliklarni davolashda, dori-darmon tayyorlashda keng ishlatiladi. Bemorlarga parhez taom sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek, shaxsiy va yordamchi xo'jaliklarda ham asalarilar boqiladi. Yaxshi asal-tog' asali. Tog'lardagi dorivor giyohlar gulidan yig'ilgan tog' asali eng yaxshi asal hisoblanadi.

O'zbekistonda asalarichilikka ixtisoslashtirilgan xo'jaliklar tashkil etilgan. Respublikaning tabiiy sharoiti bu tarmoqni rivojlantirishga juda qulaydir. Tekisliklar vodiy va vohalardagi mevali bog'lar, tog' va tog' oldi zonalaridagi yovvoyi mevali daraxt va butalar, gullar sug'orma

dehqonchilik zonasidagi keng paxtazorlar asalarilar uchun ozuqa bazasidir. Asalarilar yetishtirilgan hosil, ya'ni asal bahor (may, iyun) va yoz (avgust, sentabr) mavsumida yig'ishtirib olinadi. Asalarilar ko'chma usulda boqiladi. Yozgi mavsumda paxtazorlarga va tog'larga olib chiqiladi.

3. Parrandachilik, asalarichilik

Pillachilik - qadimdan rivojlanib kelgan tarmoqlardan biri. Pillachilik ipak qurti boqish va uning yangi zotlarini yaratish, pilladan mo'l-hosil yetishtirishni o'z ichiga oladi. Ipak qurti, asosan, tut barglari bilan oziqlanadi. Shuning uchun pillachilik taraqqiyoti tutchilik bilan uzviy bog'langan. O'zbekiston pillachiligi dovrug'i ketgan. Ayniqsa, Marg'ilon qadimdan atlaslari bilan shuhrat qozongan. Ipakdan tayyorlangan atlaslar va adraslardan tayyorlangan turli kiyim-kechaklar dunyoning mashhur modalar uyida namoyish qilinadi. Kamalak rangda tovlanuvchi Marg'ilon va Namangan atlaslari o'zining betakrorligi bilan alohida ajralib turadi.

O'zbekistonning barcha viloyatlarida pilla yetishtiriladi. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra respublika bo'yicha pillaning yalpi hosili 1990-yil 31,0 ming t, 2000-yilda 19206 tonna pilla yetishtirilgan bo'lsa, 2005- yilda 20230 tonnani tashkil etgan, 2010-yilda 25159,5, 2016-yilda esa bu ko'rsatkich 26102,1 ming tonnani tashkil etdi. Har quti (29 gramm) urug'idan olinadigan o'rtacha hosil 53-57 kg, ilg'or xo'jaliklarida esa 70-80 kg ni tashkil etadi. Hozirda pilla xomashyosining asosiy qismi qishloq xo'jaligi tadbirkorlik subyektlari hisoblangan fermer xo'jaliklarida (xo'jalik a'zolari xonadonlarida) yetishtirilmoqda.

O'zbekistonda pillachilik paxta yetishtirish bilan qo'shib olib boriladi, ya'ni paxtachilikdan keyingi qo'shimcha tarmoq hisoblanadi. Paxta maydonlarining atrofi tut ko'chatlari bilan ixotazorlashtirilgan. May oyigacha chigit ekib bo'lingach pilla boqish davri boshlanadi. Bundan ko'rinadiki, mehnat resurslari g'o'zaga ishlov berishdan bo'shagan vaqtda, ularni pilla yetishtirishga yo'naltirish va ishchi kuchidan samarali foydalanish imkoniyati vujudga keladi. Respublika

pillasining teng yarmiga yaqini Farg‘ona vodiysi viloyatlariga to‘g‘ri keladi.

Baliqchilik - chorvachilikning eng qadimiy tarmoqlaridan biri. Baliqlar inson salomatligi uchun zarur bo‘lgan oqsil va boshqa biologik faol birikmalarga boydir. Bugungi kunda jahonda oqsilga bo‘lgan ehtiyojning 25 % ni baliqchilik bermoqda.

Mo‘ynali darrandachilik - darrandachilik (mo‘ynachilik)-chorvachilikning qadimiy va ana‘naviy tarmoqlaridan biri bo‘lib, mo‘ynali hayvonlar yetishtirish bilan shug‘ullanadi. Bu tarmoqda yetishtirilgan nodir va qimmatbaho mo‘ynalar kiyim-kechaklar ishlab chiqarishda muhim xomashyo sifatida ishlatiladi. Mo‘ynali hayvonlar (qunduz, suvsar, tulki, norka, bobr, andatra, nutriya, sug‘ur, yumronqoziq) ko‘proq o‘rmonda yashaydi. Ayrimlari (suv kalamushi va suv bobri-nutriya) suv havzalarida tarqalgan. Mo‘ynalar jahon bozorlarida qadimdan yuqori baholab kelinadi. Mo‘ynalarning sifati uning juni va terisiga qarab baholanadi.

O‘zbekistonda esa, asosan, Sirdaryo va Amudaryo havzasida joylashgan. Quyi Amudaryo va Toshkent - Mirzacho‘l va Surxondaryo mintaqalarida mo‘ynachilik rivojlangan. Bu mintaqalarda mo‘ynachilik xo‘jaliklari tashkil etilgan. Ularda ondatra, nutriya, norka, tulki kabi darrandalar sanoat usulida boqiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qishloq xo‘jaligini rivojlanishida chorvachilikning roli va ahamiyati.
2. Chorvachilikning qanaqa tarmoqlari mavjud?
3. Qoramolchilik va qo‘ychilikning rivojlanish xususiyatlari.
4. Chorvachilikning jahon miqyosida rivojlanishi.
5. Cho‘chqachilik, tuyachilik va yilqichilik
6. Parrandachilik va darrandachilik xususiyatlari.
7. Asalarichilik, pillachilik va baliqchilikning rivojlanishi.
8. O‘zbekistonda chorvachilikning qaysi tarmoqlari rivojlangan?
9. Go‘sht-sut chorvachiligi bilan sut-go‘sht chorvachiligining farqi nimada?

O‘JALIGINI RIVOJLANISHI

O‘N IKKINCHI MAVZU. ENG RIVOJLANGAN DAVLATLAR QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARINING RIVOJLANISH

Reja:

- 1. Amerika qo‘shma shtatlarida qishloq xo‘jaligi tizimi**
- 2. Yevropa mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi. Buyuk Britaniya qishloq xo‘jaligi**
- 3. Germaniya qishloq xo‘jaligi**
- 4. Fransiya qishloq xo‘jaligi**

Tayanch iboralar: zn-yorma, un tortish, shakarqamish, shakar sanoati, baliqchilik sanoati, konserva sanoati, konservalash, moy sanoati, moyli ekinlar.

1. Amerika qo‘shma shtatlarida qishloq xo‘jaligi tizimi

Amerika Qo‘shma Shtatlari Shimoliy Amerika qit‘asida joylashgan bo‘lib, eng yirik kapitalistik mamlakat jahon imperializm tizimining markazi va tayanchidir. Hududi 9 833 000 ming km², aholisi 347,3 mln nafar. Qishloq xo‘jaligi yuksak tovarlilik, texnika bilan a‘lo darajada qurollanganligi, tor ixtisoslanganligi, yollanma mehnatdan keng foydalanishi bilan ajralib turadi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish jarayonida yuqori darajadagi konsentratsiya joriy etilgan. Jumladan, makkajo‘xori doni 48 shtatda, mosh uning 50 foiz, asosan, 5 shtatida yetishitiriladi. Bug‘doy 72 foizini asosan 6 shtatda yetishitiriladi, kartoshkani 50 foizi, asosan Aydoxa va Vashington shtatlarida yetishitiriladi. Fermerlar tomonidan yetishitirilgan mahsulotlarni iste‘molchilarga yetkazib berish uchun (500 mln t.) 25 ming referejerator vagonlari, 140 ming avtorefererator xizmat qiladi.

Maxsus avtomobillardan bittasi 80 bosh qoramol, 260 bosh cho‘chqa va 6 ming bosh parrandani tashib o‘tish imkoniga ega. Kaliforniya shtati mamlakat pomidor mahsulotlarining 90 foizini yetishtiradi. Texas shtati mamlakatda mol go‘shini etishitirish bo‘yicha

1-o'rinni egallaydi. Unda 226 qushxona, 76 ta go'sht kombinati mavjud. AQSHda meva, sabzavot, poliz, kartoshka, go'sht, tuxum kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanitariya- gigena talablari darajasida saqlash uchun ombor va muzxonalar etib ortadi.

AQSH dehqonchiligida sug'orish tizimi 15 foiz maydonda joriy etilgan. Sug'oriladigan yerlarda etishtirilayotgan mahsulot mamlakatda yetishtirilayotgan mahsulotning uchdan bir qismini tashkil etadi yoki uning uning qiymati 40 mlrd dollarga teng. Sug'orish ishlarida mexanizatsiyadan keng foydalaniladi. Masalan, o'rtacha fermerni 65 gektar yerini sug'orish 1 gektarga 1,54 nafar, sarflanayotgan kapital sarflari esa 1 gektarga 350 dollar tashkil etgan.

AQSH har yili qiymati 140-150 mlrd dollar bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qiladi, undan 45 mln tonnasi makkajo'xori doni, 38 mln tonnasi bug'doy, 20 mln tonnasi loviya. AQSHda oziq-ovqat majmui yuqori darajada rivojlangan marketingga ega. Marketing tizimi quyidagi sarflardan iborat: haq to'lash, o'ramlash (qadoqlash), mahsulotni tayyorlash va transport harajatlari, yonilg'i va elektrenergiya sarfi, amortizatsiya ajratmalari, reklama uchun ketgan harajatlar, asosiy fondlarni sotib olish va ularni ta'mirlash harajatlari.

AQSH oziq-ovqat majmuida mamlakatdagi mehnat resurlarining 12 foizi band, shundan 3 foizi qishloq xo'jaligida faoliyat yuritadi. Oziq-ovqat modeli 3 sohadan iborat: 1-soha qishloq xo'jaligi uchun mehnat vositalarini yaratuvchi, 2-soha qishloq xo'jaligi, 3-soha qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va sotish.

Oziq - ovqat kompleksida 1990-yilga kelib 14,5 mln. ishchi shundan 2,8 mln nafari qishloq xo'jaligida banddir. Bugungi kunda esa mamlakat oziq-ovqat tizimining barcha bosqichlarida ishlaydiganlar jami, taxminan, 28 million kishi faoliyat olib boradi. AQSH qishloq xo'jaligida, asosan, oilaviy fermerlar faoliyat yuritadi. Ular qishloq xo'jalik korxonalarining – 99 foizini tashkil etadilar va mamlakatda etishtirilgan yalpi mahsulotni – 93 foizini yetishtiradilar. Oziq-ovqat mahsulotining qolgan qismini aksionerlik kompaniyalari yetishtiradilar. 1990-yilda kelib mamlakatda 2,1 mln oilaviy fermer mavjud edi. Bitta oilaviy fermer har yili 83 ming dollarlik mahsulotni sotadi, 187 gektar

yerga ega (har gektar yer qiymati 250 ming dollar) 2 ishchiga qiymati 140 ming dollar, bo'lgan ishlab chiqarish fondlari to'g'ri keladi. 1960-1990-yillar mobaynida, yirik fermalarni salmog'i oshib bordi. Ularda 1 yilda realizatsiya qilingan mahsulot qiymati 100 ming dollardan oshdi.

Hozirda esa AQSHda jami 1,9 millionta fermer xo'jaligi faoliyat olib boradi. AQSHda fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi uzoq davom etgan murakkab jarayondir. Oilaviy fermer xo'jaliklari, asosan, a'zolaridan tashkil topadi. Ular ayrim hollardagina yollanma mehnat resurslarini jalb etadilar. Qishloq xo'jaligida fermerlar hajmi ular tomonidan bir yilda yetishtirilgan mahsulotni realizatsiya etish hajmi bilan belgilanadi. Parrandachilik, go'sht, sut, bug'doy yetishtirish kabi tarmoqlar sanoat negiziga ko'chirilgan.

Qishloq xo'jaligining sanoatlashtirilishi, ishlab chiqarish kuchlarining sanoat darajasiga ko'tarilishi shunga olib keldiki, qishloq xo'jaligi endilikda o'z mustaqilligini yo'qotdi va tarmoqlar majmuining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib qoldi. U agrobiznes, agrosanoat majmui nomini oldi. Mexanizatsiyaning yuksak darajada ekanligi fan yutuqlaridan keng foydalanish va tor doirada ixtisoslashishni taqozo etadi.

AQSH va Yaponiya dunyoda eng boy va baquvvat mamlakatlardir. Ular ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati bo'yicha jahonda 1- va 2 - o'rinni egallaydi. Qishloq xo'jaligida band bo'lgan har bir ishchining mehnat unumdorligi - AQSHda 39001, Yaponiyada 31094 AQSH dollariga teng. Italiyada bu ko'rsatkich 20031 AQSH dollariga to'g'ri kelmoqda. AQSHda jami aholining 4,47 mln. nafari yoki 1,6 foizi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda band bo'lib ular 8708,2 mln. yalpi mahsuloti ishlab chiqarishni yaratadilar. Yaponiyada esa aholining 2,83 mln. nafari qishloq xo'jaligida band bo'lib, ular qiymati 4,395 mln. AQSH dollariga teng yalpi mahsulot ishlab chiqarish qurbiga ega. Aholisining 1,72 mln. nafari qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan Italiyada esa qiymati 1,149 mln AQSH dollariga teng bo'lgan yalpi mahsulot ishlab chiqariladi. Xullas, yalpi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha AQSH birinchi o'rinni egallaydi.

2. Yevropa mamlakatlarida qishloq xo'jaligi.

Buyuk Britaniya qishloq xo‘jaligi

Bu mamlakat G‘arbiy hududidagi Britaniya yarim orolida joylashgan. Hududi 244,1 ming km². Buyuk Britaniya yuksak darajada rivojlangan industrial mamlakatdir. Garchi qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotda ikkinchi darajada bo‘lsa ham, yuksak darajada taraqqiy etganligi bilan ajralib turadi. Buyuk Britaniya agrar tuzumi uchun yirik zamindorlar - lendlordlar xarakterlidir. Xo‘jalikni lendlordlarning o‘zlari yuritmaydilar, balki yerni fermerlarga ijaraga beradilar va qishloq xo‘jaligi bilan aloqasi bo‘lmagan turli korxonalariga kapital soladilar.

Buyuk Britaniya qishloq xo‘jaligida fermer bosh figuradir. Fermerlarning 50 foizi yerni ijaraga olishadi. Qolganlari esa, asosan, mayda va o‘rtahol fermerlardir. Har bir fermer o‘rtacha 50 gektardan ortiq yer maydoniga ega. Lekin jami fermerlarning yarmidan ko‘prog‘i 2-20 gektar yer maydonida ish yuritadi.

Fermer xo‘jaliklari mashinalar bilan qurollangan bo‘lib, yollanma mehnatdan keng foydalanishadi. Tabiiy yaylovlar va pichanzorlarga boy qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i chorvachilikdir. U qishloq xo‘jaligida jami daromadining 70 foizini beradi.

Angliyada qishloq xo‘jalik mahsulotlari uchun belgilanadigan baho tizimining bir me‘yorda amal qilishini ta‘minlash davlat tomonidan kafolatlanadi. Buyuk Britaniyada o‘simlikchilik tarmog‘i mahsulotlari yalpi mahsulotning 30 foizini tashkil etadi. Shundan 8 foizi mevasabzavot, 5,4 foizi kartoshka, 9,5 foiz don mahsulotlari, 2,5 foizi qand lavlagi mahsulotlaridir.

Mamlakatda mehnat unumdorligining yuksak darajada bo‘lishi va to‘xtovsiz o‘sishi ta‘minlamoqda. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotish ishlarini yirik kompaniyalar zimmasida. Ular mahsulotlarga o‘zlari narx belgilaydilar. Fermerlar sotilgan g‘allaning atigi 20 foizga ega bo‘ladilar.

Sut va sut mahsulotlarining chakana narxi fermerlardan olingan shu turdagi mahsulot narxiga nisbatan 2 marta qimmat. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini etishtirish va sotish ishlarini monopolistik kompaniyalar tasarrufida. Bu mahsulotlarni sanoatda qayta ishlash va xo‘jaliklarni texnika bilan qayta qurollantirish uchun fermerlarga kredit berish ham

shu kompaniyalar nazoratida. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i chorvachilikdir. Qishloq xo'jaligida ishlayotgan har 100 ga yerga qariyib 70 bosh qoramol to'g'ri keladi. Chorva mollari dalachilik mahsulotlari hamda sut chiqindilari bo'lgan xo'jaliklarda ko'proq boqiladi. Qo'ylar 25 mln. boshni tashkil etadi. Tumanlar qishloq xo'jaligi bo'yicha ixtisoslashish jihatdan bir-biridan jiddiy farq qiladi.

Tumanlar qishloq xo'jaligi bo'yicha ixtisoslashish jihatdan bir – biridan jiddiy farq qiladi. Bug'doy, arpa, qand lavlagi mamlakatning janubida, saabzavotchilik, mevachilik Uosh qo'ltig'i yonida rivojlangandir.

3. Germaniya qishloq xo'jaligi

GFR markaziy Yevropada joylashgan. Maydoni 357 ming km², aholisi 84 mln kishi. Yuksak darajada rivojlangan bu industrial mamlakat qishloq xo'jaligida quloqlar va yirik xo'jaliklar hukmronlik qiladi. Qishloq xo'jaligi mamlakatning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojlarini to'la qondira olmaydi, zaruriy mahsulotlarning 25 foiz chetdan keltiriladi.

Ohirgi 20 yil mobaynida mamlakat qishloq xo'jaligi keskin o'zgardi. Chunonchi, avvallari 1 ta dehqon 32 nafar uchun mahsulot yaratgan bo'lsa, endilikda 68 nafar uchun mahsulot yaratmoqda. Bu yerda fermalar soni kamayib borayotgan bo'lsada (1,6 mln. – hozir 650 ming ta), mahsulot hajmi oshib bormoqda. Mamlakat maydonin taxminan 50–54 % qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalaniladi. Mamlakat qishloq xo'jaligida vertikal integratsiyasi, ya'ni ixchamlashuv, intensivlashtirish joriy etilmoqda. Har bir fermerning yer maydoni o'rtacha 18,2 gektarni tashkil etadi. Mamlakat o'zini don bilan 97 foiz, qand bilan – 125 foiz, yog' bilan 93 foiz, sut bilan – 98 foiz, go'sht bilan – 93 foiz, sabzavot bilan – 34 foiz, meva bilan – 56 foiz, tuxum bilan – 75 foiz ta'minlay oladi. Qishloq xo'jaligini yer maydonlarining 34 foizi dehqonlarga ijaraga berilgan. Har gektar yerga yillik o'rtacha ijara haqi 390 – 400 marka. Qishloq xo'jaligida hajmi bo'yicha har xil fermalar uchraydi. 1 - 20 gektar yerga ega fermerlar mayda, 20 – 50 gektar yerga ega bo'lgan fermerlar o'rta va 100

gektardan ortiq yerga ega bo'lgan fermerlar yirik fermer xo'jaliklar hisoblanadi. Fermerlarning 10 foizi meva – sabzavot, uzum va xmel' yetishtiradi. Bavariyada pivo tayyorlash uchun 18 ming gektar yerda xmel' o'stiriladi. Fermer xo'jaliklar kooperativlarga birlashtirilgan.

Fransiya qishloq xo'jaligi

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer mamlakat hududining uchdan ikki qismini egallagan. Foydalanilayotgan yerlarning 17 mln gektarini haydalaniladigan yerlar, 14 mln gektarini yaylov va pichanzorlar, bog' va uzumzorlar 2,2 mln gektarini tashkil etadi va yalpi mahsulotning 43 foizi o'simlikchilik, 57 foizini chorvachilik mahsulotlaridir. Fransiya industrial agrar mamlakat bo'lib, milliy daromadda qishloq xo'jaligi ma'lum o'rinni egallaydi. Unda mamlakat aholisining 5 mln. nafari band. Fransiya uzum, qand lavlagi, sut va sut mahsulotlari yetishtirish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. Fransiyada 2 mingdan ortiq xo'jalik mavjud. Ularning 1115 tasi 10 gektaridan, 532 mingtasi 10 – 20 gektardan, 375 mingtasi 20 – 30 gektardan, 75 mingtasi 50–100 gektardan, 20 mingtasi 100 gektardan oshiq yerga ega xo'jaliklardir.

Savol va topshiriqlar:

1. Qishloq xo'jaligining jahon davlatlari iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati?
2. Amerika Qo'shma Shtatlari qishloq xo'jaligi haqida nimalarni bilasiz?
3. Buyuk Britaniya qishloq xo'jaligi tarmoqlari.
4. Fransiya qishloq xo'jalikning uziga xosligi nimada?
5. Germaniya qishloq xo'jaligining rivojlanish xususiyatlari.
6. Marketing tizimi deganda nimani tushunasiz?
7. Yollanma ishchilarga bulgan munosabatlar qanday?
8. Realizatsiya xarajatlari deganda nimani tushunasiz?
9. Fermer xo'jaliklarining tajribasi qanday xususiyatlari bilan ajralib turadi?

O

,

Reja:

1. Qishloq xo'jaligi va uning iqtisodiyotda tutgan o'rni.
2. Afrika qishloq xo'jaligi.
3. Janubiy Amerika mamlakatlarida qishloq xo'jaligi.
4. Janubiy – sharqiy Osiyo mamlakatlarida qishloq xo'jaligi.

Tayanch iboralar: qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, agroiklimiy resurslar, madaniy ekinlar, iqlim, vegetatsiya davri, dehqonchilik, g'allachilik, dukkakli don ekinlari, texnika ekinlari, qandli ekinlar, tolali ekinlar, sabzavotchilik, chorvachilik, sut chorvachiligi, go'sht chorvachiligi.

1. Qishloq xo'jaligi va uning iqtisodiyotda tutgan o'rni

Rivojlanayotgan mamlakatlar imperializm mustamlaka tizimining yemirilishi, mustamlakachilik va neokolonializmga qarshi milliy ozodlik kurashining avj olishi natijasida vujudga kelgan davlatlardir. Bunday mamlakatlarga Osiyodagi barcha mamlakatlar (Yaponiya va Isroildan tashqari), Afrikadagi barcha mamlakatlar (Janubiy Afrika Respublikasi bundan mustasno), shuningdek Lotin Amerikasi mamlakatlari kiradi. Shunday qilib, bu tizim dunyodagi 120 ga yaqin mamlakatni o'z ichiga oladi. Yer yuzidagi quruqlik va aholining yarmi shu mamlakatlar hisobiga to'g'ri keladi.

Rivojlangan mamlakatlarda sinfiy kuchlar tabaqalashmoqda. Ularning ayrimlari (Jazoir, Efiopiya, Angola, Kongo, Afg'oniston, Iroq, Suriya) no yo'lidan bormoqda, bir qismi esa yo'ldan taraqqiy etmoqda. Aftidan, tabaqalanish natijasida ana shu guruhdagi mamlakatlarning ba'zilari asta-sekin jahon sotsialistik tizimsiga kiradi, ayrimlari rivojlangan mamlakatlar guruhiga qo'shiladi.

Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlari qishloq xo'jaligi ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitning o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Mustamlaka zulmidan qutulgach, bu mamlakatlardan ko'pchiligi rivojlangan mamlakatlarga iqtisodiy jihatdan qaram bo'lib

qoldilar. Ularda qishloq xo‘jaligi past darajada, aholining ko‘p qismi qishloq xo‘jaligida banddir. Chunonchi, Hindistonda aholining 45 foizi, Indoneziyada 28 foizi, Misr Respublikasida 19 foizi, Keniyada 32 foizi, Malida 68 foizi qishloq xo‘jaligida mehnat qiladi. Qishloq xo‘jaligi yarim natural dehqon xo‘jaliklaridan, mahalliy qishloq burjuaziyasining tovar ishlab chiqarishidan, ko‘pincha chet el monopoliyalar ixtiyorida bo‘lgan yarim feodal latifundiyalar va plantatsiya xo‘jaliklaridan iborat.

O‘z g‘allasi bilan mamlakat ehtiyojini ta‘minlash muammosi hamon hal qilinmayotir. Aholi jon boshiga g‘allaning kam yetishtirish boshqa turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish hajmining sekin sur‘atlar bilan o‘sishi bu mamlakatlarning chet ellardan ko‘proq oziq - ovqat mahsulotlari keltirishga majbur etmoqda, ularga qaram qilib qo‘ymoqda.

Ayrim mamlakatlarda (Hindiston, Birma, Indoneziya va boshqalarda) davlat sektori muayyan rol o‘ynaydi. Bir qancha mamlakatlarda (Jazoir, Tunis, Misr, Eron va boshqalarda) ishlab chiqarish kooperativlari rag‘batlantiriladi. Masalan, avvalo, ularning umumiy ijtimoiy – siyosiy yo‘nalishi bilan belgilanadi.

Agrar islohotlardan maqsad ijaraning yarim feodal tizimini tugatishdan, yer egaligining eng katta me‘yorini belgilashdan iborat va hokazo. Lekin ko‘pchilik hollarda yer islohoti natijasida tovar ishlab chiqarish mahalliy qishloq burjuaziyasi qo‘lida to‘planib qolmoqda.

Qishloq xo‘jaligi uchun yer bilan kam ta‘minlanganlik, ish unumining pastligi agrotexnikaning qo‘lqo‘lchiligi, ko‘pgina mamlakatlarda hozirgi zamon texnikasidan, o‘g‘itlardan, himoya vositalaridan foydalanmaslik, ekinlar hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligining pastligi xarakterlidir. Qishloq xo‘jalik texnikasidan bir guruh xo‘jaliklargina foydalana oladi. Ko‘pchilikni tashkil qiladigan mayda xo‘jaliklar qishloq xo‘jalik texnikasi sotib olishga qodir emas. Qishloq xo‘jaligining hozirgi ahvolini qurg‘oqchilikka bardosh bera oladigan serhosil bug‘doy, sholi, makkajo‘xori navlarini yaratish, ana shu ekinlar maydonini kengaytirish, minerali o‘g‘itlardan foydalanish yo‘li bilan, ya‘ni yashil inqilobvositasida yaxshilash uchun qilinayotgan harakatlar jiddiy natija bermayotir.

O‘z g‘allasi bilan mamlakat ehtiyojini ta‘minlash muammosi hamon hal qilinmayapti. Aholi jon boshiga g‘allaning kam yetishtirish (aholi jon boshiga 212 kg don to‘g‘ri kelgan edi, bu esa rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan 3 marta, o‘zaro iqtisodiy yordam kengashiga a‘zo bo‘lgan mamlakatlardagiga nisbatan qariyb 4 marta kam), boshqa turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish hajmining sekin sur‘atlar bilan o‘sishi bu mamlakatlarning chet ellardan ko‘proq oziq - ovqat mahsulotlari keltirishga majbur etmoqda, ularga qaram qilib qo‘ymoqda.

2. Afrika qishloq xo‘jaligi

Afrika qit‘asida (maydoni 30319 ming km²) 1360 mln dan ortiq aholi yashaydi. Hozirgi vaqtda Afrikaning siyosiy kartasida 50 dan ortiq mustaqil davlat mavjud. Qishloq xo‘jaligi Afrika iqtisodiyotining negizi bo‘lib, aholisining beshdan to‘rt qismi ana shu tarmoqda band. Ichki yalpi mahsulotning uchdan bir qismi qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi. Afrika dunyoga bir qancha qimmatli qishloq xo‘jalik tovarlari yetkazib beradigan qit‘adir. Kakao, palma moyi, palma mag‘zi, yeryong‘oq, paxta tolasi, sizal, vanil, qalampirmunchoq, xurmo yetishtirishda va eksport qilishda Afrika dunyoda muhim o‘rin tutadi. Ko‘pgina oziq - ovqat ekinlari, avvalo, don ekinlari yetishtirishda katta mavqeiga ega emas. Dunyoda yetishtiriladigan bug‘doy, makkajo‘xori, arpaning 5 –6 foizi Afrikaga to‘g‘ri keladi.

1. Eksport uchun ekiladigan ekinlarning ko‘pchiligi, asosan, chet el kompaniyalariga qarashli plantatsiya xo‘jaliklarida yetishtiriladi. Chet el kompaniyalari Afrikadagi ko‘pgina mamlakatlar qishloq xo‘jaligini monokultura yo‘li bilan rivojlantirishga majbur etadi va shunday qilib ularni bozorga jalb qiladi.

2. Mahsuldorlik past. Yer egaligining eng ko‘p tarqalgan shakli yerdan jamoa bo‘lib foydalanishdir. Bir qancha mamlakatlarda yerning bir qismi davlatga, ayrim mamlakatlarda feodallar va qisman dehqonlarga qarashli, tovar – pul munosabatlarining rivojlanishi bilan mahalliy aholining yerdan jamoa bo‘lib foydalanishi asta – sekin barham

topib, pul bilan ijaraga olish kuchaymoqda. Chorvachilik tumanlarida feodal qoldiqlar va hatto quldorlik elementlari saqlanib qolgan.

3. Zamonaviy qishloq xo‘jalik texnikasidan va o‘g‘itlardan yirik plantatsiyalarda yoki davlat yoini xususiy kapital nazoratida bo‘lgan kooperativ xo‘jaliklardagina foydalaniladi. Tropik mamlakatlarda o‘rmonlarni yoqib dehqonchilik va yerlarga dam berib, yil oralatib dehqonchilik qilish keng rasm bo‘lgan. Qishloq xo‘jaligi texnik va ijtimoiy jihatdan qoloq bo‘lgani uchun hosildorlik bu yerda dunyodagi o‘rtacha hosildorlikdan ikki marta kam.

4. Iqlimning quruq va issiq bo‘lishi va yog‘inning mavsumiyligi natijasida tropik o‘lkalarda qishloq xo‘jaligi yerlarni sug‘orishga asoslangan. Ko‘pchilik mamlakatlarda sug‘orish tizimlari xo‘jaliklarning mulki bo‘lib, dehqonlarni qo‘shimcha ravishda ekspluatatsiya qilish manbai hisoblanadi. Agroiqlim sharoitining nihoyatda xilma – xilligi va yerlarni sug‘orish Afrikada barcha ekinlarni yetishtirishga va yiliga 2, 3 va hatto 4 marta hosil olishga imkon beradi. Lekin, asosan tropik va subtropik ekinlar yetishtiriladi.

Qishloq xo‘jaligi 2 yo‘nalishda ixtisoslashgan: eksport ekinlari yetishtirish va ichki ehtiyoj uchun oziq - ovqat ekinlari yetishtirish. Ichki bozor uchun bug‘doy, arpa, sholi, tariq va jo‘xori ekiladi.

Bug‘doy va makkajo‘xori Janubiy Afrikaning subtropik iqlimli tumanlarida ekiladi. Arpa asosan Afrikaning shimoli-g‘arbida va Misrda, sholi Misr va boshqa mamlakatlarning sug‘oriladigan yerlarida, Gvineya Respublikasi, Nigeriya, Serra – Leone, Fil Suyagi Qirg‘og‘i Respublikasida, Liberiya, Senegal va Tanzaniyada ham ekiladi.

Tariq va makkajo‘xori tub aholining asosiy oziq - ovqat ekinlari bo‘lib, Afrikaning deyarli barcha qismlarida ekiladi. Tropik Afrika mamlakatlarida g‘alla bilan bir qatorda ichki ehtiyoj uchun ildiz mevali ekinlar – maniok, yams, batat yetishtiriladi.

Afrika jahonda kakao ishlab chiqarishda va eksport qilishda birinchi o‘rinda turadi. Butun dunyoda ishlab chiqariladigan va eksport qilinadigan kakaoning 70 foizini Afrika beradi. Kakao Gana, Nigeriya, Fil Suyagi Qirg‘og‘i mamlakatlarida yetishtiriladi.

Afrikada (Angola, Uganda, Efiopiya, Kongo, Tanzaniya) anchagina miqdorda kofe, shuningdek, yer yong‘oq (Nigeriya, Senegal), paxta (Misr, Sudan), sizal’ (Tanzaniya), tabiiy kauchuk (Nigeriya, Liberiya, Kongo), moyli palma (G‘arbiy Afrika), zaytun (Shimoliy Afrika mamlakatlari) yetishtiriladi.

Afrika dunyoda ishlab chiqariladigan paxta tolasining 3-4 foizini beradi. Dunyoda yetishtiriladigan sizal tolasining qariyb 60 foizi Afrika hissasiga to‘g‘ri keladi. Afrika tamaki ishlab chiqarishda ham kattagina o‘rin tutadi (7 foiz). Zambiya, Uganda va boshqalar ham tamaki eksport qiladigan asosiy mamlakatlardir. Jahonda yig‘iladigan tabiiy kauchukning 7 foizi Afrikaning ulishidir. Eng yirik plantatsiyalar (kauchuk olinadigan geveya daraxti) Liberiya. Nigeriyada kauchukning asosiy qismini dehqon xo‘jaliklari beradi.

Quruq subtropik iqlim sharoitida, xususan, Janubiy Afrika Respublikasi va Shimoliy Afrika mamlakatlarida mevachilik mahsulotlari, jumladan, sitrus mevalar eksport qilinadi. Bu rayonlarda uzum yetishtirish va uzum vinolari ishlab chiqarish katta o‘rin tutmoqda. Banan plantatsiyalari tropik Afrikada, xususan, Gvineya sohili mamlakatlarida, shuningdek Hind okeani sohilida keng tarqalgan.

Cho‘l va chala cho‘l rayonlarining vohalarida, aksari Shimoliy Afrikada xurmo yaxshi hosil beradi. Dunyoda yetishtiriladigan xurmoning beshdan ikki qismini Afrika beradi. Xurmoning katta qismi eksport qilinadi. Tropik Afrika mamlakatlarida dehqonlar xilma-xil yovvoyi o‘simliklar mevalari va kauchuk, shimoliy Afrika mamlakatlarida esa po‘kak dubi po‘stlog‘i, alfa o‘simligi va gummiarabik yig‘adi. Dunyoda olinadigan gummiarabikning 80 foizidan ko‘prog‘ini Sudan beradi.

Afrika dunyoda ishlab chiqariladigan palma mag‘zi va palma moyining beshdan to‘rt qismidan ko‘prog‘ini beradi va bu mahsulotlarni eksport qilishda dunyoda birinchi o‘rinda turadi. Dunyoda ishlab chiqariladigan kofening beshdan bir qismidan ko‘prog‘ini Afrika beradi. Zaytun daraxti qit‘aning shimolida subtropik iqlimli dengiz bo‘yi mamlakatlarida: Tunis, Jazoir, Marokkoda ekiladi. Jahonda ishlab chiqariladigan zaytunning o‘ndan bir qismini Afrika beradi. Dunyoda yetishtiriladigan yer yong‘oqning uchdan bir qismi Afrika hissasiga

to'g'ri keladi. Yer yong'oqning aksari mayda dehqon xo'jaliklarida yetishtiriladi. Lekin yerni qayta ishlash va mahsulot eksport qilish chet el kompaniyalari qo'lida. Misr Respublikasida va Sudanda sug'oriladigan yerlarda uzun tolali paxta ekiladi. Bu paxta ko'p miqdorda chetga chiqariladi. Shuningdek, Sharqiy Afrikada – Uganda, Mozambik va Tanzaniyada ham sug'orib paxta ekiladi.

Chorvachilik ekstensiv xarakterda bo'lib, ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi va yaylov chorvachiligiga bo'linadi. Afrikada qoramol ko'p (mamlakatlardagi qoramollarning sakkizdan bir qismi shu yerda). Qoramol soni jihatidan Afrika Hindistondan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Qoramol Sharqiy va Janubiy Afrika qirlarida, shuningdek, cho'l va chalacho'l yaylovlari bo'lgan mamlakatlarda (Sudan, Somali, Chad, Niger) va G'arbiy Afrika savanna zonasida boqiladi. Ko'pgina rayonlarda, xususan, Gvineya sohilidagi tropik o'rmonlar zonasida, Kango, Zambezi daryolari havzalarida tsetse pashshasi chorvachilikni rivojlantirish uchun jiddiy to'sqinlik qiladi.

Qo'ychilik (aksari merenos va qorako'l qo'ylari) Janubiy Afrika Respublikasida, shuningdek Mag'rib mamlakatlarida, ayniqsa, rivojlangan. Qo'ylar soni va qo'y jini bo'yicha Janubiy Afrika Respublikasi Afrikada birinchi va dunyoda to'rtinchi – beshinchi o'rinda turadi. Qorako'lchilik Namibiyada katta ahamiyatga ega. Qorako'l qo'ylar soni jihatidan Namibiya Afg'onistondan so'ng xorijiy dunyoda ikkinchi o'rinda turadi. Qorako'l terisi eksport qilinadi.

Iqlim sharoiti, shuningdek, diniy aqidalar cho'chqachilikni rivojlantirishga yo'l bermaydi. Otchilik faqat Efiopiyadagina ahamiyatga ega. Sudan, Somali, Efiopiya va Janubiy Afrika Respublikasida ot-ulov sifatida tuya, eshak va xachir boqiladi. Afrikadagi ko'pgina dehqon xo'jaliklarida o'z ehtiyojlari uchun parranda boqiladi. Marokko, Janubiy Afrika Respublikasida eksport uchun parrandachilik bilan shug'ullaniladi.

Afrikada chorva mollarining zoti past, yem-xashak yetishmaydi. Veterinariya yordami deyarli yo'q va buning oqibatida chovachilik mahsuldorligi past. Chunonchi, Afrikada qoramol bir yilda o'rta hisobda

16 kg semiradi, holbuki, bu ko'rsatkich Yevropa va AQSH da 70 kg. gachani tashkil etadi. Afrikadagi ko'pchilik mamlakatlarda sigirlardan kam sut sog'ib olinadi.

Afrikada qishloq xo'jaligi umuman past sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishga jiddiy halaqit berayotgan sabablardan biri asrlardan buyon tarkib topgan yoki mustamlakachilar tomonidan o'rnatilgan qoloq agrar munosabatlardir. Davlat - feodal yer egaligi va jamoa yer egaligi eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi. Katta-katta yerlar cherkovlar mulkidir. Afrikada qishloq xo'jaligidagi patriarhal ukkladni qayta qurish nihoyatda murakkab muammo hisoblanadi. Texnika hamda o'g'itning yetishmasligi, agrotexnika madaniyatining qoloqligi, chorva mollarining kammahsulligi bularning hammasi qishloq xo'jaligida mehnat unumining past bo'lishiga, unda yarim natural yoki an'anaviy ishlab chiqarish shaklining saqlanib qolishiga olib kelmoqda.

Afrikadagi ko'pchilik mamlakatlar siyosiy mustaqillikka erishgach, agrar islohotlarni amalga oshira boshladi. U, avvalo, chet el va feodal mulk shakllariga qarshi qaratilgan. Ana shu islohotlar notaraqqiyot yo'liga kirgan mamlakatlarda ayniqsa chuqur amalga oshirilmoqda. Deyarli barcha mamlakatlarda, ularning taraqqiyot yo'lidan qat'i nazar, qishloq xo'jaligida kooperatsiya masalasi kun tartibida turibdi.

Undan ko'zda tutilgan maqsadlar taraqqiyot yo'lini tanlagan mamlakatlarda va notaraqqiyot yo'lini tanlagan mamlakatlarda va notaraqqiyot yo'liga kirgan mamlakatlarda bir-biridan farq qiladi. Sermahsul ekinlarga yanada katta ahamiyat berish, serhosil yangi navlar yaratish, sermahsul chorvachilikni rivojlantirish, sug'orish kanallarini kengaytirish, kimyoviy o'g'itlarni ko'proq ishlatish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, agrotexnikani joriy qilish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi oldida turgan eng muhim vazifalardir.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish muammosi Afrika davlatlari hukumatlarining diqqatini jalb qilmoqda. Buning sababi shundaki, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'sish sur'atiga nisbatan aholining o'sish sur'ati yuqori. Natijada oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib

bormoqda. Shu bilan bir vaqtda hozirgi taraqqiyot bosqichida Afrika mamlakatlari uchun qishloq xo'jaligi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot rejalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan chet el valyutasini qo'lga kiritishning muhim manbai deb qaraladi.

3. Janubiy Amerika mamlakatlarida qishloq xo'jaligi

Braziliya Janubiy Amerika qit'asida joylashgan mamlakat bo'lib, hududining kattaligi, aholisining soni va iqtisodiy potentsiali jihatidan Lotin Amerikasida birinchi o'rinda turadi. Braziliya Janubiy Amerikaning markaziy va sharqiy qismini egallaydi va 7 ming kilometrdan ortiq masofada Atlantik okeaniga tutashgan, quruqlikda ekvador va Chilidan tashqari qit'adagi barcha mamlakatlar bilan chegaradosh. Hududi 8,512 ming km².

Braziliya qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i dehqonchilikdir. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan 265 mln gektar yerdan 30 mln. gektari ishlanadi. Bu mamlakat hududining 3,5 foizni tashkil etadi. Mamlakatda agrar munosabatlarning eng xarakterli xususiyati shundaki, bu yerda katta – katta maydonlar unchalik ko'p bo'lmagan yirik yer egalari qo'lida. Bu esa qashshoqlik va qishloqning qoloqligiga olib kelmoqda. Barcha yer egalarining 10 foizini tashkil etadigan yirik zamindorlar ishlanadigan yerlarning 75 foiziga egalik qiladilar.

Qishloq aholisining 80 foizini tashkil qiladigan qishloq xo'jalik ishchilari esa umuman yerdan mahrum. Shuning uchun Braziliyada agrar munosabatlar o'ta murakkabligicha qolmoqda. XIX asrdayoq Braziliya qishloq xo'jaligining asosiy eksport tarmoqlari kofe, kakao, shakarmaqish qandi va paxta yetishtirish bo'lib qolgan, ichki iste'mol uchun esa makkajo'xori va dukkakililar yetishtirilardi. Ana shu ekinlar hozirgacha ham birinchi darajali ahamiyatga ega, lekin ular o'rtasidagi nisbat biroz o'zgardi.

Keyingi o'n yillar ichida eksport qilinadigan ekinlar maydoni deyarli o'zgarmagan. Ammo ichki istem'olga mo'ljallangan ekinlar maydoni ancha kengaydi. Bundan tashqari, sholichilik katta ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Buning sababi, birinchidan, qishloq xo'jaligining eksportga xizmat qiladigan tarmoqlari raqobati bo'lsa, ikkinchidan,

mamlakat aholisining tez o'sishidir. Shunga qaramay, ichki ehtiyoj uchun ishlatiladigan dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish hammasi ehtiyojga nisbatan sekin o'smoqda va shunga ko'ra Braziliya chetdan ko'pgina oziq - ovqat mahsulotlari keltirilmoqda.

Xom ashyosi eksport qilinadigan ekinlar maydoni keyingi o'n yillarda kengaymagan bo'lsada, Braziliya hozir ham kofe ishlab chiqarishda dunyoda birinchi (butun dunyoda ishlab chiqariladigan kofening yarmini beradi) va kakao, banan (40 foiz), maniok (30 foiz) yetishtirishda ikkinchi o'rinda turadi.

Eksport qilinadigan barcha mahsulotlarning 70 foizini qishloq xo'jaligi beradi. Bular orasida kofe birinchi o'rinda turadi. Mamlakat yiliga 2,4 – 2,5 mln tonna kofe ishlab chiqaradi. Eksportdan keladigan barcha daromadlarning yarmiga yaqinini kofe beradi. Bu esa mamlakat iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Kakao, paxta, kokos yong'og'i (butun dunyoda yig'ib olinadigan kokos yong'og'ining uchdan bir qismini Braziliya beradi), banan, apelsin, tamaki ham muhim eksport ekinlaridir.

Chorvachilik qishloq xo'jaligining muhim tarmog'idir. Qishloq xo'jaligi barcha mahsulotlari qiymatining uchdan bir qismi chorvachilikdan keladi. Mamlakatda 90 mln boshdan ortiq qoramol, 35 mln bosh cho'chqa, 26 mln bosh qo'y bor. Ot va boshqa chorva mollari ham boqiladi.

Chorvachilik mamlakatning ichki ehtiyojlarini qondira olmaydi. Sut va sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj katta. Shunday qilib, Braziliyada agrar masala kun tartibida turgan keskin muammodir. Har yili million – million dehqonlar ish qidirib, shaharlarga ketadilar.

Meksika (Meksika Qo'shma Shtatlari) Tinch okean bilan Atlantika okeani orasida joylashgan bo'lib, AQSH, Gvatemala va Beliz bilan chegaradosh. Mexika – iqtisodiyoti o'rtacha taraqqiy etgan industrial – agrar mamlakat. Mamlakat yalpi ijtimoiy mahsulotining uchdan bir qismi qishloq xo'jaligida hosil qilinadi. Yer fondining katta qismi latifundiyachi pomeschiklar qo'lidilar. Mexikada exido yer egaligining o'ziga xos shaklidir. Exidolar qishloq xo'jalik jamoalari bo'lib, ekinzor, yaylovlar, o'tloqlarga egalik qiladi.

Meksikada agrar islohot ohirigacha yetkazilmagan. Meksikada agrar masala hamon asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Qishloq xo‘jaligining tarmoqlar strukturasi keyingi yigirma yil ichida sezilarli darajada o‘zgardi – bug‘doy va sholi maydoni shimoliy va shimoli - g‘arbiy rayonlarda ancha kengaydi. Natijada Meksikaga chetdan kamroq g‘alla keltiriladigan bo‘ldi. Bug‘doydan so‘ng mamlakatning asosiy oziq - ovqat ekini bo‘lgan makkajo‘xori, dukkaklilar, xususan, loviya katta ahamiyatga ega.

Paxta eksportda muhim o‘rin tutadi. Paxtadan tashqari tolali xeneken (dunyoda ishlab chiqariladigan xeneken tolasining 90 foizini Meksika beradi), shakarqamish, kofe, banan, ananas va boshqa tropik ekinlar eksportda muhim o‘rin tutadi.

Chorvachilik mahsuloti qishloq xo‘jaligi mahsuloti qiymatining atigi 15 foizini tashkil etadi. Ekstensiv yaylov chorvachiligi ustun turadi. Qoramol, qo‘y, echki va cho‘chqa boqiladi. Chorva mollarining katta qismi yirik zamindorlar qo‘lida. 1990-yilda 10 mln tonna makkajo‘xori, 2,6 mln tonna bug‘doy, 9 mln tonna jo‘xori, 0,65 mln tonna loviya, 0,34 mln tonna paxta, 3,4 mln tonna shakarqand ishlab chiqarildi. O‘sha yili 31 mln bosh qoramol, 12,1 mln bosh cho‘chqa, 8 mln bosh qo‘y, 9 mln bosh echki, 164,5 mln bosh parranda bor edi. Har yili 450 ming tonna baliq va dengiz hayvonlari ovlanadi.

Argentina Respublikasi. Janubiy Amerikaning janubi – sharqida joylashgan. Hududi va aholisining soniga ko‘ra Janubiy Amerikada ikkinchi o‘rinda turadi. Mamlakat jahon bozoriga go‘sht mahsulotlari, jun teri va g‘alla (asosan bug‘doy va makkajo‘xori) yetkazib beradi. Ana shu tovarlar mamlakat eksportining to‘rt dan uch qismini tashkil etadi. Foydalaniladigan yerlarning qariyb to‘rt dan uch qismi latifundiyachilar va plantatorlar qo‘lida. Har birining yer maydoni 5 ming gektardan ortiq bo‘lgan yirik xo‘jaliklar barcha yerlarning 68 foiziga egalik qiladi.

Lotin Amerikasida yetishtiriladigan go‘shtning uchdan bir qismini Argentina beradi. Go‘sht mahsulotlari va jun ko‘plab davlatlarga eksport qilinadi. Argentinada qishloq xo‘jaligining agrotexnik darajasi Lotin Amerikasidagi boshqa mamlakatlardagiga nisbatan yuqori. Traktorlar soni (100 mingdan ortiq) jihatidan Argentina Lotin Amerikasida birinchi

o'rinda turadi. Yirik xo'jaliklarda hosilni yig'ib olish mexanizatsiyalashtirilgan. Chorvachilikning mahsuldorligi ancha yuqori. Shunga qaramay, Argentinada dehqonchilik va chorvachilik ekstensiv xarakterga ega. Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i yaylov chorvachiligidir.

Chorvachilik fermalarida kompleks mexanizatsiyani joriy etish evaziga, mamlakatda chorva mollari soni 2,7 mln boshdan 2,5 mln boshga qisqardi. Lekin 1 bosh sigirdan bir yilda sog'ib olinadigan sut 4350 kg.dan 5000 kg. oshdi. Tovar–sut mahsuloti yetishtiradigan fermerlarda o'rtacha 70 boshdan ziyod qoramol saqlanadi (sog'in sigirlar), qora mol podasi o'rtacha fermerlarda 159 dan 171 gacha ko'paydi, sut mahsuloti – 729 ming metrdan 911 ming litrga ko'paydi, 1 kg sutning tannarxi 18 pensadan 11 pensaga kamaydi.

Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida qishloq xo'jaligi. Janubi – Sharqiy Osiyo deyilganda Hindixitoy yarim oroli va Malayya arxipelagidagi mamlakatlar (Indoneziya, Fillipin, Malayziya, Singapur, Bruney oroli) tushuniladi. Bu hudud mamlakatlari ko'p jihatdan umumiy xususiyatlarga ega. Lekin bunda ayrim mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisoiy xususiyatlarni alohida hisobga olish kerak. Janubi – Sharqiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi asosiy rol o'ynaydi. Aholining uchdan ikki qismi qishloq xo'jaligida band va regiondagi milliy daromadning yarmidan ko'prog'i qishloq xo'jaligidan keladi. Shuning uchun ham iqtisodiyotni tubdan o'zgartirishning asosiy muammosi yer masalasini hal qilishdan iborat.

Vetnam va Laos Respublikalaridan tashqari, regiondagi barcha mamlakatlari yirik mulkdorlik, pomeshchiklar, chet el plantatorlari, sudxo'rlar va bir hovuch badavlat dehqonlar yerlarni o'z qo'llarida tutadilar. Tailand, Fillipin, Indoneziya, Myanmada yirik pomeshchik xo'jaliklari bor. Regiondagi ko'pchilik mamlakatlarda yerni bevosita ishlatuvchilar uni pomeshchik yoki sudxo'rdan ko'pincha vositachilar orqali ijaraga olishga majbur.

Qishloq xo'jaligining ixtisoslashishida tarixan ikkita yo'nalish tarkib topgan: xomashyosi eksportbop ekinlar yetishtirish (plantatsiya va dehqon xo'jaliklarida); iste'mol qilinadigan ekinlar yetishtirish.

Xomashyosi eksport qilinadigan asosiy ekinlar – sholi (Myanma, Tailand), gevaya (Malayziya, Indoneziya), abaka (Fillipin), choy, kofe (Indoneziya), kokos palmasi, kokos palmasining quritilgan kopra (Fillipin, Indoneziya).

Guruch eksport qilinadigan asosiy mamlakatlar – Myanma, Tailanddir. Boshqa mamlakatlar qishloq xo‘jaligi ham eksportga ixtisoslashgan. Jahon bozoriga chiqariladigan abaka (los) ning o‘ndan to‘qqiz qismini va kopraning uchdan ikki qismidan ortig‘ini Fillippin beradi. Malayziya va Indoneziya dunyoda natural kauchuk yetishtiriladigan eng yirik mamlakatlardir.

Janubiy – sharqiy Osiyodagi bir qancha davlatlarda mustaqillik qo‘lga kiritilgach, kooperativ harakat rivojlana boshladi. Biroq kooperativlar ommaviy demokratik tashkilotlarga aylanmadi, dehqonlar kredit qidirib, hamon pomeschchik va sudxo‘rlarga murojaat qilishga majburdirlar.

So‘nggi yillarda region mamlakatlarida qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining ma‘lum darajada o‘sishi ko‘zga tashlanadi. Bu esa davom etayotgan agrar islohotlar hamda yangi agrotexnikaning joriy qilinishi oqibati bo‘ladi. Shunga qaramay, dehqon xo‘jaliklarining aksari qismi hamon natural yoki yarim natural xo‘jalik yuritishga majbur. Bu xo‘jaliklar bozor bilan kam bog‘langan va aksari holda o‘z ehtiyojlari uchungina xizmat qiladilar. Yerlar almisoqdan qolgan qurollar bilan ishlanadi. Traktor parki zaif, qishloq xo‘jalik texnikasi asosan chet elliklarga qarashli plantatsiyalardagina ishlatiladi.

Regionda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi taraqqiyoti ana shu mamlakatlarning asosiy iqtisodiy muammolari bilan chambarchas bog‘liq. Qishloq xo‘jaligining rivojlanishi mohiyati agrar masalaning naqadar to‘g‘ri va chuqur hal qilinishiga bog‘liq. Bozorda Janubi – sharqiy Osiyo mamlakatlarida yetishtiriladigan penka, kanop, kopra, dorivorlar, shakarqamish qandi, tabiiy kauchuk kabi tovarlarning bahosi chidab bo‘lmas darajada pasayib ketmoqda.

Bir qancha mamlakatlarda xususan sholi yetishtirish va iste‘mol qilish sohasida oziq-ovqat muammosi keskin tus olmoqda. Qishloq xo‘jaligining asosiy vazifalarini hal qilish yo‘llari qishloq xo‘jaligida

ijtimoiy munosabatlarni tubdan qayta qurish, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish bilan uzviy ravishda bog‘liqdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarga qaysi mamlakatlar kiradi?
2. Rivojlanayotgan mamlakatlar Qishloq xo‘jalikda qanday muammolar mavjud?
3. Rivojlanayotgan mamlakatlarda fermer xo‘jaliklarining hajmi kanchani tashkil kiladi?
4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi qanday ahamiyatga ega?
5. Janubiy Amerika mamlakatlarida qishloq xo‘jaligining qaysi tarmoqlari rivojlangan?
6. Afrika qit‘asida qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Yashil qit‘ada qishloq xo‘jaligi tarkibi qanday?
8. Osiyo mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi qanday o‘rin tutadi?
9. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi qanday ahamiyatga ega?
10. Janubiy Amerika mamlakatlarida qishloq xo‘jaligining qaysi tarmoqlari rivojlangan?
11. Afrika qit‘asida qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
12. Yashil qit‘ada qishloq xo‘jaligi tarkibi qanday?
13. Osiyo mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi qanday o‘rin tutadi?

**TO‘RTINCHI BOB. O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROSANOAT MAJMUASI
O‘N TO‘RTINCHI MAVZU. O‘ZBEKISTON AGROSANOAT
MAJMUASI. O‘ZBEKISTON YER FONDI**

Reja:

- 1. Qishloq xo‘jaligi va sanoat integratsiyasi**
- 2. O‘zbekiston agrosanoat majmuasi.**
- 3. O‘zbekiston yer fondi tarkibi.**
- 4. O‘zbekiston yer resurslaridan foydalanish.**

Tayanch iboralar: qishloq xo‘jaligi, intensivlashtirish, agro sanoat majmuasi (ASM), infrastruktura, agrosanoat integratsiyasi, yer fondi, qishloq xo‘jaligi yerlari, sug‘oriladigan yerlar, ekin yerlari, lalmi yerlar, yaylovlar.

1. Qishloq xo‘jaligi va sanoat integratsiyasi

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi kabi qishloq xo‘jaligining ixtisoslashishi ham ishlab chiqarishni iqtisodiy jihatdan yanada samarali tashkil etishga imkon beradi. Qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini ko‘tarish, asosan, ishlab chiqarishni intensivlashtirish bilan bog‘liqdir. Yerlardan foydalanishni jadallashtirish, yangi mashinalarni joriy etish, melioratsiya va agrotexnika usullaridan foydalanish asosida yerlarning mahsuldorligini ko‘tarishga, o‘simliklarning yanada hosildor turlari va navlarini ekish, mahsuldor chorva zotlarini ko‘paytirishga imkon beradi.


Intensivlashtirish jarayoni hududning tabiiy imkoniyatidan yanada yuksakroq darajada foydalanishni bildiradi. Agrosanoat majmuasi qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash, aholiga qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetkazib berish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Agrosanoat majmuasi quyidagi tarmoqlarni o‘z ichiga oladi:

1-soha. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari (tizimi) uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi soha. Bu sohaga agrosanoat majmuasi uchun mashina, traktor, kombayn, stanoklar, ishchi mashinalar ishlab chiqaradigan mashinasozlik, mineral o‘g‘it va

ximikatlar ishlab chiqaruvchi kimyo sanoati, chorvachilik uchun omixta yem ishlab chiqaruvchi korxonalar, qishloq xo‘jaligi ekinlari va chorva mollari uchun dori-darmon ishlab chiqaruvchi ixtisoslashgan korxonalar kabilar kiradi.

2-soha. Qishloq xo‘jaligining o‘zi. Bu soha agrosanoat majmuasining asosini, yadrosini tashkil etadi va majmuaning boshqa sohasiga kiruvchi tarmoqlar, asosan, shu tarmoq mahsulotlari asosida faoliyat yuritadilar yoki xizmat ko‘rsatadilar. Qishloq xo‘jaligi o‘z navbatida dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlariga bo‘linadi. Bundan tashqari agrosanoat majmuasining ikkinchi sohasiga, pillachilik, asalarichilik, qisman o‘rmonchilik (tabiiy oziq-ovqat va dorivor o‘simliklar yetishtirish) hamda baliqchilik kiradi.

3-soha. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarni iste‘molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar yig‘indisidan iborat. Paxta zavodlari, go‘sht, sut zavodlari, meva sharbatlari chiqaruvchi zavodlar, yog‘- moy zavodlari, junni, kanopni, pillani qayta ishlash zavodlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yoki ularni qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarni saqlaydigan korxonalar, ularni sotish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar shu sohaning tarkibini tashkil etadi.



8-chizma. Agrosanoat majmuasi tuzilishi.

Manba: Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. — *Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti*.
- T.: TDIU, 2004.

4-soha. Agrosanoat majmuasi infratuzilmasi. Infratuzilmaning o'zi ikkiga bo'linadi. Birinchi qismi ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'lsa, ikkinchi qismi ijtimoiy infratuzilmadir. Mamlakat agrosanoat majmuasining umumiy ko'rinishini quydagicha ifodalash mumkin:

2. O'zbekiston agrosanoat majmuasi

Agrosanoat integratsiyasi - qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni istemolchiga yetkazib beruvchi tutash irmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir. Agrosanoat integratsiyasi ko'p qirrali bo'lib,

u g'oyat xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Bular, eng avvalo, ana shu jarayon qaysi darajada, ya'ni butun mamlakat ko'lamida viloyat doirasi yoki korxonalar darajasidami yuz berishiga bog'liq. Butun mamlakat va mintaqalar ko'lamida agrosanoat integratsiyasi qishloq xo'jaligining tarmoqlararo aloqalari kuchayishida, xalq xo'jaligi oziq-ovqat (tarmoq) va mintaqalar agrosanoat majmualari tashkil bo'lishi va rivojlanishida ifodalanadi.

3. O'zbekiston yer fondi tarkibi

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning muhim yetakchi tarmoqlaridan biridir. Ushbu sohani rivojlantirishda asosiy omil va vosita bu yer hamda suv resurslaridir. Mamlakatning umumiy yer resurslari 44896,9 ming ga, uning 44892,4 ming gektari (zahira yerlar bilan hisoblaganda) turli xil korxonalar, tashkilot va muassasalar, fermer xo'jaliklari va fuqarolar foydalanadigan yerlar bilan band.

Yer fondi, mamlakatimizda qaysi maqsadda foydalanishiga ko'ra, 8 toifaga bo'linadi. Ularning eng asosiysi qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar hisoblanadi. Ushbu toifadagi yerlar mamlakatimizda 20417 ming ga bo'lib, u jami yer fondining 46,1 foizini tashkil etadi. Aholi turar joylari yerlariga shahar va shaharchalar, ma'muriy chegaralarida bo'lgan hamda qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari foydalanayotgan yerlar tarkibiga kirmagan qishloq aholi punktlari kiritilgan. Uning yer maydoni 2024-yil 1-yanvar ma'lumotiga ko'ra 219,6 ming gektar yoki jami yerlarning 0,49 foizini tashkil qiladi.

Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlarga belgilangan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar kiradi. Bu toifadagi yerlarning maydoni 2024-yilda 905,1 ming gektar yoki jami yerlarning 2,0 foizini tashkil etdi.

Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlarning umumiy maydoni 76,0 ming gektardir. Bu muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, ustuvor

ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sogʻlomlashtirish ahamiyatiga molik yerlardan iborat. Ularning asosiy qismini qoʻriqxonalar va milliy bogʻlar egallaydi. Davlat tabiiy qoʻriqxonalari tabiatni muhofaza qilish, ilmiy-tadqiqot va ekologik-maorif muassasalari boʻlib, maqsadi – tabiiy jarayon va hodisalarni, oʻsimlik va hayvonot dunyosi genetik fondini, oʻsimlik va hayvonlarning ayrim tur va turkumlarini, tipik va noyob ekologik tizimlarni tabiiy holatda saqlab qolish va oʻrganishga qaratilgan.

Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan yerlarning umumiy maydoni 2016-yil 1-yanvar holatiga koʻra 9,7 ming gektarni tashkil qiladi.

Oʻrmon fondi yerlariga oʻrmon bilan qoplangan, shuningdek, oʻrmon bilan qoplanmagan boʻlsa ham, oʻrmon xoʻjaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar kiradi. Bu toifadagi yerlar maydoni 9752,3 ming gektarni yoki jami yerlarning 21,7 foizini tashkil qiladi. Oʻrmon hududlarining tabiatni muhofaza qilish xususiyatlari va oʻrmonzorlarni qayta tiklash jarayoni uzoq kechishini hisobga olingan holda ularni muhofaza qilish va koʻpaytirish muammosiga katta eʼtibor berilishini talab qiladi. Shu sababdan 1991-yildan boshlab qishloq xoʻjalik korxonasi va tashkilotlari foydalanishida boʻlgan, oʻrmon bilan qoplangan yaylov va pichanzorlar maydonlari belgilangan tartibda oʻrmon fondi yerlari toifasiga oʻtkazilgan. Bu esa oʻrmon fondi yerlari maydonini koʻpaytirish va shu asosda tuproqlarning degressiyalanish va xoʻjalik maqsadlarida oʻrmon daraxtlari kesilishining oldini olishda muayyan darajada qulay sharoit yaratadi.

Suv fondi yerlariga suv obyektlari, inshootlari egallagan yerlar hamda suv xoʻjaligi ehtiyojlari uchun berilgan suv inshootlari yoqasidagi himoyalaniş zonalari yerlari kiradi. Suv fondi yerlari maydoni 832,4 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 1,87 foizini tashkil qiladi.

Zahira yerlarga egalik qilish, foydalanish va ijara maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan hamda boshqa yer toifalarida hisobga olinmagan barcha (shu jumladan, suv osti) yerlar kiradi. Zaxira

yerlar maydoni 12680,3 ming gektar yoki umumiy yer maydonining 27,2 foiziga teng.

Respublika umumiy yer fondi dinamikasida bir qator tadrijiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lib, quyidagi diagrammada umumiy yer fondi tarkibining mustaqillik davridagi holati bayon etilgan. Jadval ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligi korxonalari, tashkilotlari va muassasalari foydalanishida bo'lgan yerlar maydoni 1990-yilga nisbatan 2024-yilga kelib 12698,7 ming gektarga kamaygan. Bu o'zgarish respublika hududida yaylov yerlarining o'rmon yer toifalariga o'tishi munosabati hamda boshqa toifadagi yerlar, jumladan, aholi punktlari yerlari (23,8 ming ga), tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar (62,1 ming ga), tarixiy-madaniy ahamiyatga molik bo'lgan yerlar (9,2 ming ga), suv fondi yerlari (212,6 ming ga) va zaxira yerlar (5018,8 ming ga) maydonining oshishi hisobiga ro'y bergan.


Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, o'tgan 25 yil mobaynida O'zbekistonda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar miqdori biroz qisqargan. Agar bunday yerlar 1990-yilda 33167,8 ming gektarga teng bo'lgan bo'lsa, 2024 – yilda ular 20417,0 ming gektarga tushib kolgan. Mustaqillik yillarida, garchi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning umumiy maydoni qisqargan bo'lsada, bevosita ekin ekiladigan yerlar deyarli o'zgarmagan. Mamlakatimizda jami sug'oriladigan yerlar maydoni 4308,1 ming gektarni tashkil qiladi. U qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarning 18,3 foiziga teng.

Yaylov va pichanzorlar maydoni 21125 ming ga yoki qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 82,2 foizini tashkil etadi. Ko'p yillik daraxtzorlar 371,9 ming ga, bo'z yerlar 80,3 ming ga. Viloyatlardan Qashqadaryo eng katta sug'oriladigan maydonga ega bo'lib, 514,9 ming gektar, yoki mintaqa umumiy maydonining 18,0 foizini egallaydi. Mazkur yerlar maydoniga ko'ra keyingi o'rinni Qoraqalpog'iston Respublikasi egallaydi. Ushbu mintaqada sug'oriladigan yerlar maydoni 508,7 ming ga ni tashkil etadi yoki umumiy maydonining 3,1 foizini egallaydi. Toshkent viloyati bu jihatdan mamlakatda uchinchi o'rinni egallaydi. Uning maydoni 398,0

ming gektarni tashkil etgani holda, viloyat hududining 26,1 foizini egallaydi [23].

9-rasm

**O‘zbekiston umumiy yer fondi tarkibi va dinamikasi
(1990-2024 yillar)**



	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar
	Aholi turar joylari (shahar va shaharchalar, qishloq aholi punktlari) yerlari
	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar
	Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar
	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar
	O‘rmon fondi yerlari
	Suv fondi yerlari
	Zahira yerlar

Diagramma muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Iqtisodiy rayonlar ichida Zarafshon mintaqasi sug'oriladigan yerlari maydoni ko'proq, ya'ni 785,7 ming gektarni tashkil qilib, viloyat umumiy maydonining (16808 ming ga) 4,7 foizini tashkil etadi. Bu jihatdan eng past ko'rsatkich Navoiy viloyatiga tegishlidir. Bu yerda bor – yo'g'i 123,5 ming gektar (1,1 %) obikor yerlar bor. Katta qismining cho'llar bilan qoplanganligi, suv resurslarining etishmasligi sababli, sug'orma dehqonchilik qilinadigan hududlar kam, asosan, uning sharqiy (Xatirchi tumani) va janubi-sharqiy qismlarida sug'oriladigan yerlar birmuncha ko'proq.

Mintaqalarning umumiy sug'oriladigan yerlar maydonidan tashqari, uning hududiga nisbatan to'g'ri keluvchi obikor yerlar ko'rsatkichi bilan ham ifodalansa, ba'zi bir tafovutlar ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari ushbu ko'rsatkich orqali ekstensiv va intensiv qishloq xo'jaligi qayerda ko'proq rivojlanganligini aniqlab olish mumkin. Bu borada Sirdaryo va Andijon viloyatlari yetakchi hududlardir. Jumladan, Sirdaryo viloyatida ushbu ko'rsatkich 67,3 foizni tashkil qiladi. Regionning tabiiy geografik o'rni unchalik qulay bo'lmasa ham, suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Mamlakatimizning eng kichik hududi Andijon viloyati umumiy maydonining 63,6 foizini ekinzorlar tashkil etadi. Qulay tabiiy geografik o'rinda joylashganligi, yer va suv resurslari bilan nisbatan yaxshi ta'minlanganligi, intensiv dehqonchilikni yuqori darajada rivojlanishiga sabab bo'lgan. Farg'ona viloyatida esa ekiladigan yerlar ulushi 52,4 foizga teng.,

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha pastki o'rinlarni g'arbiy rayonlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro va Navoiy viloyatlari egallaydi. Buxoro viloyatida sug'oriladigan ekin yerlar ulushi 6,6 foizni tashkil etib, asosan, sharqiy va janubi-sharqiy qismlarida ko'proq tarqalgan. Qoraqalpog'iston respublikasida esa ushbu yerlar ulushi 2,5 foizga teng. Qoraqalpog'istonning Amudaryo bo'ylari va uning atroflarida sug'orma dehqonchilik qilish mumkin. Navoiy viloyatida esa, yuqorida ta'kidlanganidek, eng past 0,8 foizni tashkil etadi.

Shuningdek, mamlakatimizda, xususan, Qashqadaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida tabiiy holda sug'oriladigan yoki lalmi (bahorikor) yerlar ham bor. Ular nisbatan kam miqdorda bo'lsada,

Surxondaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlarida ham bor. Lalmikor yerlarning umumiy maydoni 755,4 ming gektar. Odatda, bunday hududlarda yog'in-sochin miqdori yiliga kamida 200 mm dan ortiq va ular, asosan, bahor oylariga to'g'ri keladi. Haydaladigan yerlarning asosiy qismi Farg'ona, Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylari, yaylovlarning ko'pchiligi Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida joylashgan. Yangi o'zlashtirib, qishloq xo'jalik oborotiga kiritilgan yerlar esa asosan Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Surxon-Sherobod, Markaziy Farg'ona, Ellikqal'a massivlaridir.

Ekin yerlar ikki qismdan iborat: sug'oriladigan hamda lalmi yerlar. Ular orasida sug'oriladigan yerlar, avval ta'kidlanganidek, eng qimmatbaho hisoblanadi. Mustaqillik yillarida respublikada sug'oriladigan ekin yerlar biroz qisqargan. Chunonchi, bunday yerlar 1990-yilda jami 3407,3 ming gektarga teng bo'lgan holda, 2016-yilda ular 3313,4 ming gektarni hosil qilgan, ko'paygani, asosan, Jizzax, Qashqadaryo va Andijon viloyatlari hisobidan sodir bo'lgan. Shuningdek, Toshkent, Sirdaryo viloyati hamda Qoraqalpog'istonda ham ijobiy jarayon kuzatiladi. Ayni vaqtda kolgan hududlarda sug'oriladigan yerlar maydoni, oz bo'lsada, kamayib borgan. Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, Jizzax viloyatida 2000-yilda sug'oriladigan ekin yerlar 256,6 ming ga, 2016-yilda esa 264,5 ming ga, shunga mos holda, Qashqadaryoda 417,7 va 424,1 ming ga, poytaxt viloyatida 298,9 va 305,1 ming ga. Ko'rinib turibdiki, bu mintaqalarda o'sish qayd etiladi. Nisbatan ko'proq qisqarish kuzatilgan viloyatlarda, jumladan, Samarqandda yuqoridagi ko'rsatkichlar 261,9 va 253,9, Surxondaryoda 245,6 va 241,7, Farg'onada 256,3 va 249,3, Xorazmda 212,5 va 205,4 va xokazo. Eng oz sug'oriladigan ekin yerlarga ega bo'lgan Navoiy viloyatida ham qisqarish qayd etiladi: 92,1 va 91,0 ming ga.

Umuman olganda, sug'oriladigan ekin yerlar maydoni bo'yicha Qashqadaryo (424,1 ming ga), Qoraqalpog'iston Respublikasi (423,6) va Toshkent viloyati (305,1 ming ga) oldinda. Shu qatorda Jizzax Surxondaryo hamda Samarqand viloyatlari ham biroz yuqori

ko'rsatkichlarga ega (250-265 ming ga). Navoiy viloyatini hisobga olmaganda, qolgan mintaqalarning har birida bunday yerlar 200 ming gektardan kam emas.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Andijon, Buxoro, Namangan, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida ekin yerlarning 100 foizi sug'oriladigan yerlardan iborat. Bu borada katta farq Qashqadaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida kuzatiladi. Shu o'rinda yerdan samarali foydalanish darajasi yoki koeffitsiyenti to'g'risida so'z yuritish mumkin. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer turlarining umumiy yer maydoniga nisbati, bevosita qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarning, xususan sug'oriladigan yerlarning jami yer fondiga nisbati orqali aniqlanadi. Albatta, bunday ko'rsatkichlar viloyatlarning tabiiy sharoiti, ayniqsa, suv resurslari bilan ta'minlanganligiga karab, ancha geografik tafovut yoki farqlarga ega. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasida yuqoridagi ko'rsatkich qishloq xo'jaligi yer turlari bo'yicha 3,2, ekin yerlar bo'yicha 0,26, sug'oriladigan yerlar ham shu darajada. Navoiy viloyatida u, mos ravishda, 8,1; 1,0 va 0,8. Buxoro viloyatida ham, uning yuqoridagi hududlar singari cho'l tabiatli bo'lganligi sababli, mazkur ko'rsatkichlar ancha past.

Vodiy va vohalarda esa ko'rilayotgan koeffitsiyent yuqori bo'lib, bu ularda yerdan agroiqtisodiy jihatdan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligining ko'proq yoki nisbatan intensiv rivojlanishidan dalolat beradi. Chunonchi, Andijon viloyatida umumiy qishloq xo'jaligi yer turlari uning jami maydonini 60,2 foizini, ekin yerlar 47,4, sug'oriladigan ekin yerlar ham shuncha foizga barobar. Ma'lumki, Sirdaryo viloyati asosan sug'orma yerlarni o'zlashgirish negizida tashkil etilgan. Binobarin, bu mintaqada yuqoridagi ko'rsatkichlar ancha katta, mos holda, 67,7; ekin yerlar 58,6 %. Shuningdek, Xorazm viloyati ham bu borada birmuncha yuqoriroq ko'rsatkichlarga ega. Xususan, uning uzoq sohil, ya'ni Xazorasp tumanining cho'l qismi hisobga olinmasa, mintaqa hududi qadimdan o'ta yuqori darajada o'zlashtirilganligi, sug'oriladigan yerlarning ko'pligiga ko'ra respublikada ancha oldingi o'rinlarda turadi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jalik yerlari turlari tarkibida pichanzor va yaylovlar ham katta maydonlarni egallaydi. Bu xususda Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi keskin ajralib turadi. Bu esa, chorvachilikni, eng avvalo, uning go‘sht, jun-go‘sht yo‘nalishini rivojlantirishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligining bunday yer turlari Andijon, Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarida juda oz, Namanganda ham bu ko‘rsatkichlar uncha yuqori emas. Umuman olganda esa, respublika bo‘yicha pichanzor va yaylovlar jami qishloq xo‘jaligida foydalanadigan yerlarning 66,4 foizini tashkil qiladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, jami yer fondi va umumiy qishloq xo‘jaligi yerlari tarkibida ekin yerlar, jumladan, sug‘oriladigan yerlar uncha katta maydonlarni egallamaydi. Shu bois, mavjud sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanish, ularning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini, qishloq xo‘jaligining samaradorligini oshirish muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda sug‘oriladigan yerlarning 8 foiziga yaqini meliorativ holati yomon yerlar hisoblanadi. Bu, o‘z navbatida, tuproqlar sho‘rlanish darajasining yuqoriligi hamda yerosti suvlari sathining ko‘tarilishi tufayli yuz bergan. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida respublikamizda 2008-2012-yillarga mo‘ljallangan sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan Davlat dasturi qabul qilingan.

Mazkur maqsadli dastur doirasida mamlakatimiz turli hududlarida, xususan, Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Jizzax, Navoiy, Sirdaryo va boshqa viloyatlarda katta ishlar amalga oshirildi - drenaj va kollektorlar, zovurlar qayta ta‘mirlandi, yerlarning sho‘rini yuvishga jiddiy e‘tibor qaratildi. Hozirgi vaqtda Qoraqalpog‘iston Respublikasi sug‘oriladigan yerlarining 1/3 qismini meliorativ holati yomon; bu ko‘rsatkich Jizzax viloyatida - 11,5 %, Navoiyda - 10,8 %, Sirdaryoda - 9,9 %, Buxoroda - 7,2 %, Qashqadaryo viloyatida - 6,8 % va hokazo.

4. O‘zbekiston yer resurslaridan foydalanish

Respublika umumiy qishloq xo‘jaligi maqsadida ajratilgan yerlarning 35,2 foizi birgina Navoiy viloyatiga to‘g‘ri keladi; ikkinchi o‘rinda Qoraqalpog‘iston Respublikasi (20,7 %), uchinchi va to‘rtinchi o‘rinlarda Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari (12,8 foizdan) turadi. Ushbu to‘rt mintaqaga O‘zbekistonni jami qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning 81,5 foizi mos tushadi.

Ekin yerlar bo‘yicha Qashqadaryo, Jizzah Samarqand viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi yetakchilik qiladi. Ularning har birida respublikada qishloq xo‘jaligiga foydalanadigan yerlarning 10 foizidan ko‘progi mujassamlangan. Eng kichik ko‘rsatkich Navoiy (atigi 2,7%), shuningdek Namangan, Andijon va Buxoro viloyatlarida qayd etiladi. Qizig‘i shundaki, bu viloyatlar umumiy yer fondi bo‘yicha bir-biridan keskin farq qiladi.

Cho‘l hududlarida tashkil etilgan ma‘muriy birliklar, ya‘ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Buxoro viloyatlarida pichanzor va yaylovlar ko‘p. Qishloq xo‘jaligi, sug‘oriladigan dehqonchilik rivojlangan Andijon, Farg‘ona, Namangan, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida bunday yerlar ulushi juda past.

Xuddi shunday, qishloq xo‘jaligida foydalanmaydigan yerlarning respublika umumiy yerlaridagi hissasi, asosan, yuqorida nomlangan hududlarda ancha oz, eng yuqori ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasida - O‘zbekiston bo‘yicha qishloq xo‘jaligida foydalanmaydigan yerlarning bir qismi ayni shu mintaqada o‘rin olgan. Navoiy viloyati ham bunday qishloq xo‘jaligida foydasiz yerlarning 12,2 foizini egallaydi.

Yer resurslarining o‘zgarib borishi uning iqtisodiyotdagi o‘rni nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Ya‘ni yer, eng avvalo, inson va uning hayot farovonligi uchun zarur bo‘lib, mazkur resurslar aholi jon boshiga hisoblaganda odatda har doim kamayib boradi. Buning asosiy sababi, tabiiyki, aholi sonining doimo ko‘payib borishidir. O‘zbekistonda ham yer turlarining kishi boshiga to‘g‘ri kelishi tadrijiy o‘zgarishga ega.

**O‘zbekistonda aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi yer maydoni
dinamikasi (ga hisobida)**

Yillar	Sug‘oriladigan yerlar	Jami ekin yerlar	Sug‘oriladigan ekin yerlar
1991	0,21	0,20	0,16
1996	0,18	0,18	0,14
2001	0,17	0,16	0,13
2006	0,16	0,15	0,12
2011	0,15	0,14	0,11
2016	0,14	0,13	0,10
2021	0,13	0,12	0,09
2024	0,12	0,11	0,08
2024-yil 1991-yilga nisbatat (% da)	57,1	55,0	50,0

Jadval mualliflar tomonidan Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

Jadvalda uch xil, ya‘ni, aholi faoliyati uchun eng zarur bo‘lgan yerlar va ularning o‘zgarib borishi to‘g‘risida ma‘lumot berilgan. Jumladan, sug‘oriladigan yerlar aholi jon boshiga 1991-yilda o‘rtacha 20,2 sotixdan to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ko‘rsatkich 11 sotixga tushdi. Bunda yuqorida ta‘kidlanganidek, yer resurslarida deyarli kamayish kuzatilmagan, balki mamlakat aholisi soni anchagina ko‘payib (10 mln atrofida), deyarli 150 foizga o‘sgan. Har bir kishiga to‘g‘ri keluvchi yerlarning eng katta qisqarishi dastlabki besh yillikda kuzatildi. Buning sababi sifatida ushbu yillarda aholi sonidagi keskin o‘shishni ko‘rsatish mumkin. Keyinchalik, ushbu yerlar (aholi jon boshiga hisoblaganda) har besh yilda arifmetik progressiya bilan kamayib borgan.

Ekin yerlari esa istiqloqlarning dastlabki yilida har bir kishiga, taxminan, 19,8 sotix yer to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, ayni vaqtda bu raqam 13 ga teng bo‘ldi, ya‘ni bu davr mobaynida bir kishiga to‘g‘ri keladigan yerlar 31,5 foizga qisqargan. Buning ham asosiy sababi, yuqorida ta‘kidlanganidek, aholi sonining ortib borganligidir.

O‘zbekiston Respublikasining yer resurslari bilan ta’minlanish va undan foydalanish borasida imkoniyatlari yetarli. Chunki, har qanday yerdan uning tabiati, shart – sharoitini hisobga olgan holda foydalanilsa samaradorligi kutilganidek bo‘ladi. Holbuki, mamlakatimiz agroiklimiy resurslar bilan yaxshi ta’minlangan. Faqatgina ularni to‘g‘ri ishlatish, yer resurslarini doimo parvarish qilish, unumdorligini oshirish, hududlar va tarmoqlar bo‘yicha ekin ekishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Biroq yer resurslari mamlakatimizda ham davr nuqtayi nazaridan va hududlar bo‘yicha o‘zgarishga uchramoqda.

Davlat iqtisodiyoti, xususan, qishloq xo‘jaligi hamda aholi turmush sharoiti rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ushbu jarayonni odatiy hol sifatida qabul qilish mumkin. Biroq ushbu yerlar sifat jihatdan ham o‘zgarib, yomonlashib bormoqda. Buning asosiy sababi sifatida, yer resurslaridan mamlakat iqtisodiyotida tartibsiz foydalanish, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan sohalarga unumdor yerlarni qurbonlikka berilishi, ularni ilmiy asoslanmagan holda taqsimlash va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Hozirgi kunda asosiy vazifa, berilgan yerlarni qaytarib olish emas, balki, borlarini saqlash qolishga qaratilishi lozim.

Savol va topshiriqlar:

1. Qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlar bilan aloqasi.
2. Agrosanoat majmuasini shakllantirishning zaruriyati nimada?
3. Agrosanoat majmuasining rivojlanishini qanday ko‘rsatkichlar ifodalaydi, ular qanday aniqlanadi?
4. Yer fondi tushunchasi va uning o‘rganilishi.
5. O‘zbekiston yer fondi tarkibi.
6. Mamlakat yer fondining o‘zgarish dinamikasi.
7. Qishloq xo‘jaligi yerlari.
8. Respublika qishloq xo‘jaligi yer turlari.
9. Sug‘oriladigan yerlar bilan ta’minlanishning hududiy xususiyatlari.
10. O‘zbekiston yer resurslaridan foydalanish.
11. Mamlakat aholisining yer resurslari bilan ta’minlanishi.

O‘N BESHINCHI MAVZU. O‘ZBEKISTON QISHLOQ

Reja:

1. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tarmoqlar tarkibi.
2. Dehqonchilikning hududiy xususiyatlari.
3. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari.
4. O‘zbekistonda qoramolchilikning rivojlanishi.
5. Parrandachilik, asalarichilik.

Tayanch iboralar: qishloq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi, agroiqlimiy resurslar, madaniy ekinlar, iqlim, vegetatsiya davri, dehqonchilik, g‘allachilik, dukkakli don ekinlari, texnika ekinlari, qandli ekinlar, tolali ekinlar, sabzavotchilik, chorvachilik, sut chorvachiligi, go‘sht chorvachiligi.

1. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tarmoqlar tarkibi.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Uning zimmasiga yalpi ichki mahsulotning 1/6 qismiga yaqini to‘g‘ri keladi. So‘nggi yillarda respublikamizda iqtisodiyotni sanoatlashtirish dasturini amalga oshirish natijasida qishloq xo‘jaligining nisbiy ko‘rsatkichlari, ya‘ni ulushi pasayib borish tendensiyasiga ega. Shu asosda mamlakatimiz iqtisodiyoti agrar-industrial shakldan tobora, asta-sekin industrial-agrar yo‘nalish kasb etmoqda.

Mustaqillikgacha respublika qishloq xo‘jaligi, asosan, paxtachilikka ixtisoslashgan, markaziy hududlar sanoatini xomashyo bilan ta‘minlovchi monokultura ko‘rinishidagi rayon edi. Mustaqillikka erishgach, bu sohada tub islohotlar o‘tkazildi, qishloq xo‘jaligi deyarli to‘liq nodavlat sektoriga o‘tkazildi, fermer va dehqon xo‘jaliklari tashkil etildi, paxta yakka hokimligiga barham berildi, don (g‘alla) mustaqilligiga erishildi va hokazo. Ayni vaqtda noto‘g‘ri siyosat olib borish oqibatida maydonlari keskin qisqarib ketgan uzumchilik va bog‘dorchilik tarmoqlari tiklanmoqda. 2009-yilda qabul qilingan

“Qishloq taraqqiyoti va farovonligi” Davlat dasturida qishloq joylarda agroiqtisodiyot sohasi bilan bir qatorda transport, ta’lim, sog’liqni saqlash, moliya, sport kabilarni rivojlantirishga, uy-joy qurilishiga katta ahamiyat berilgan.

Qishloq xo‘jaligi, yuqorida ko‘rsatilgan jihatlaridan kelib chiqqan holda, yillar davomida bir xil yoki barqaror rivojlanib bormaydi. Bunga ijtimoiy-siyosiy omillar bilan birga iqlim sharoitlari ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining o‘shish darajasi o‘tgan 20 yil mobaynida umumiy yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichlariga nisbatan goh past (1991,1994, 1996, 2005, 2010 yy.), goh yuqori (asosan qolgan yillarda) bo‘lgan. Demak, xuddi shu yillarda agroiqtisodiyotning milliy iqtisodiyot o‘shishiga ta’siri ham har xil kuzatiladi. Ko‘rilayotgan davrda sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo‘jaligi rivojlanishidagi nisbat ham o‘ziga xos. Masalan, sanoatning o‘shish ko‘rsatkichi 1991, 1993, 1994, 1996, 1999-2002 va 2004-2010-yillarda yoki 20 yildan 15 yilda ustuvorroq bo‘lgan. Eng muhimi shundaki, xususan, so‘nggi 10 yilda qishloq xo‘jaligining nisbiy rivojlanish darajasi sustroq kechgan. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotni sanoatlashtirishdan darak beradi.

Alohida ta’kidlash lozimki, qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan investitsiya hajmi makroiqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga qaraganda ancha past. Qolaversa, uning ulushi yildan yilga kamayib bormoqda. Hozirgi vaqtda agroiqtisodiyotga respublika jami investitsiya hajmining, taxminan, atigi 3 foizi to‘g‘ri keladi, xolos. Vaholanki, bu ko‘rsatkich sanoatda 35-37 foizi, transport va qurilishda 25 foizi va hokazo. Qishloq xo‘jaligiga kiritilgan mablag‘ning 1/5 qismidan ko‘prog‘i respublika budjetidan, yarmiga yaqini bank kreditlaridan qoplanadi. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi esa 14–15 % atrofida.

2. Dehqonchilikning hududiy xususiyatlari

Dehqonchilik O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i hisoblanadi. Uning yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi ulushi, iqlim sharoitiga bog‘liq holda, 50-55 foizni tashkil qiladi. Mustaqillikning

dastlabki yillarida dehqonchilikning yildan yilga o'sishi past bo'lgan, ya'ni avvalgi yilga nisbatan hisoblanganda 100 foizdan oshmagan. Qizig'i shundaki, bu yillarda dehqonchilik ko'rsatkichlari chorvachilik o'sishidan orqada bo'lgan. Faqat 1995-yilga kelib uning avvalgi yilga nisbatan o'zgarishi 105,6 foizni, chorvachilikniki esa 97,4 foizni tashkil qilgan. Biroq, 1996-yil yakunlari yana oldingidek 100% dan kam holatni qayd etgan. 1997-yildan keyingi davrda dehqonchilik ko'rsatkichlari barqaror o'sib borgan, faqat 2003 va 2010-yillarda ular chorvachilikka qaraganda pastroq bo'lgan (103,4 va 113,3 %). Dehqonchilik o'sishining eng yuqori sur'ati 2024-yilda kuzatiladi: 111,6 foiz, chorvachilik – 105,9%, qishloq xo'jaligining umumiy mahsuloti – 108,9 foiz. Shu o'rinda aytish joizki, agroiqtisodiyot rivojlanishining maksimal yuqori ko'rsatkichi ham aynan mazkur yilga to'g'ri keladi. 2024-yilda jami qishloq xo'jalik mahsuloti oldingi yilga nisbatan 106,8 foizga teng bo'lgan holda, dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 106,6 foizni, chorvachilik – 107,0 foizni tashkil qilgan. Shu yilda ekilgan qishloq xo'jalik ekinlarining tarkibi quyidagicha bo'lgan (ming ga hisobida):

Jami ekin ekilgan yerlar 3708,4 yoki 100,0 %;

shu jumladan:

boshqoli don ekinlari 1679,3 yoki 45,3 %;

paxta 1342,5 yoki 36,2 %;

sabzavot 173,0 yoki 4,7 %;

kartoshka 70,7 yoki 1,9 %;

poliz ekinlari 47,8 yoki 1,3 %;

ozuqa va boshqa ekinlar 393,7 yoki 10,6 %.

G'allachilik. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, milliy iqtisodiyotni shakllantirish, xususan, don (g'alla, bug'doy) mustaqilligiga erishishni ustuvor vazifalar sifatida oldinga surdi. Bu, o'z navbatida, paxta yakka hokimligiga barham berish, paxta maydonlarini qisqartirish asosida bug'doy maydonlarini kengaytirishni ham talab qildi.

Istiqlol yillarida don yetishtirish 3,6 mln tonnaga ortdi, masalan, 1991-yilda respublikamizda 1908 ming tonna donli ekinlar hosili olingan bo'lsa, 2024-yilda bu raqam 7404 ming tonnaga yetdi. Donli va

dukkakli ekinlar maydoni 2024-yilda 1679 ming gektarni tashkil etgan. Bu borada Qashqadaryo viloyati yetakchilik qiladi – 249,5 ming ga, ikkinchi o‘rinda Jizzax (216,3 ming ga), uchinchi o‘rinda Samarqand viloyati (189,0 ming ga) turadi. Qashqadaryoda shu yili yaqin 983 ming t. hosil olingan, Samarqand viloyatida 800, Farg‘ona viloyatida 759 ming tonna. Qizig‘i shundaki, ekin maydoni bo‘yicha oldingi o‘rinlardan birida turgan Jizzax viloyatida yalpi hosil 520 ming tonnaga teng bo‘lgan, xolos. Maydoni bo‘yicha eng oxirgi o‘rinlarda Xorazm va Navoiy viloyatlari (71,5 va 52,8 ming ga), yalpi hosilga ko‘ra – Qoraqalpog‘iston va Navoiy viloyatlari (mos ravishda, 289,4 va 247,2 ming t.) turadi.

Hosildorlik, 1 ga o‘rimlik maydondan respublika bo‘yicha o‘rtacha 43,6 s/ga bo‘lgan holda, eng yuqori ko‘rsatkichga Buxoro viloyati erishgan – 61,7 s/ga. Farg‘ona viloyatida bu ko‘rsatkich 57,1 Andijonda 56,8 sentnerni tashkil qilgan. Eng past hosildorlik Jizzax viloyatida qayd etiladi – 25,3 s/ga. Ta’kidlash joizki, bu ko‘rsatkichlar umumiy ekin maydonga emas, o‘rilgan maydonga nisbatan olingan. Bunday maydonlar mamlakat bo‘yicha jami 1647 ming gektar, ya’ni umumiy maydonga qaraganda 30 ming gektarga kam. Mazkur farq asosan Jizzax (10 ming ga) va Samarqand (13 ming ga) viloyatlari hisobidan yuzaga kelgan.

Donli ekinlar tarkibida bug‘doy asosiy o‘rinni egallaydi; uning hissasiga jami g‘allaning, taxminan, 90-91 foizi to‘g‘ri keladi. Bug‘doy yetishtirishda ham Qashqadaryo viloyati oldinda, u jami respublikada olingan bug‘doyning 1/10 qismidan ko‘prog‘ini ta’minlaydi. Shuningdek, dehqonchilikning bu yo‘nalishi Samarqand, Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlarida ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Ayni chog‘da Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyatida u sust rivojlangan (2010-yilda mamlakatimizda jami 6657 ming tonna bug‘doy olingan).

Yuqorida ta’kidlanganidek, don ekinlarining asosiy qismi boshqqli ekinlar, xususan, bug‘doydan iborat. Shu bilan birga respublikamizda qisman bo‘lsada, don uchun makkajo‘xori va sholi yetishtiriladi. Jumladan, 2024-yilda mamlakatda jami 232 ming t. makkajo‘xori va 207 ming t. sholi olingan. Agar makkajo‘xori ozmi-ko‘pmi deyarli

barcha viloyatlarda yetishtirilsa, sholichilik, asosan, Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasida rivojlangan.

Paxtachilik. Garchi respublikamizda paxta maydoni qisqarib, uning hosili kamayib borgan bo‘lsada, bu soha mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qoladi. Sababi, aynan paxta, uning tolasi O‘zbekiston eksportining asosiy mahsulotlaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan respublikamiz xalqaro mehnat taqsimotida va jahon bozorida bu borada eng oldingi mamlakatlar qatoriga kiradi (Xitoy, AQSH, Hindiston va b).

Respublikamizda jami paxta ekilgan maydon 2024-yilda 1342,5 ming ga bo‘lgan. 2005-yilda bu 1472,3, 2008-yilda 1425,1 ming gektarni tashkil qilgan. Ko‘rinib turibdiki, paxta maydonlari yildan yilga qisqarib borgan, 1990-yillarda esa bu raqam, taxminan, 1800-1850 ming gektar bo‘lgan. Paxta maydonlari bo‘yicha Qashqadaryo viloyati respublikamizda birinchi o‘rinda, uning bu xususdagi hissasi 12,1 foizga barobar. Keyingi o‘rinlarda Buxoro, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlari turadi. Eng oz raqam Navoiy viloyatida – atigi 40 ming ga, vaholanki, Qashqadaryoda u 173-175 ming ga. Paxta yetishtirishda ham viloyatlar o‘rni deyarli shunday – Qashqadaryo viloyati oldinda, Buxoro, Surxondaryo va Samarqand viloyatlari mavqei ham ancha yuqori.

Paxtachilik respublikamizda kelajakda ham o‘zining hozirgi ahamiyatini saqlab qoladi. Shu bilan birga uning maydoni yana biroz qisqarishi mumkin. Bu holat, asosan, yirik shaharlar atrofida qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarini (ko‘proq sabzavotchilik) rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

O‘zbekiston paxtachiligidagi dalzarb muammo – uning hosildorligini oshirishdir. Ba‘zi viloyatlar va tumanlarda u gektaridan 20-22 sentner va hatto undan kamni ham tashkil yetadi. Bu esa tarmoqning iqtisodiy samaradorligini ancha pasaytiradi. Binobarin, irrigatsiya va melioratsiya ishlarini yaxshilash, paxtaning yangi navlarini yaratish va to‘g‘ri rayonlashtirish, tuproq eroziyasi va sho‘rlanishga qarshi kurash respublikamiz paxtachiligi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lib qolishi kerak. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, paxta hosili ham yildan yilga kamayib borish xususiyatiga ega. Masalan,

2006-yilda u avvalgi yilga nisbatan 96,6 foizni, 2008-yilda 92,3 foizni tashkil etgan. Bu jarayon eng avvalo Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro va Navoiy viloyatlari (cho‘lli hududlar), shuningdek, Namangan, Toshkent, Xorazm va boshqa mintaqalar hisobidan yuzaga kelgan. Demak, paxtachilik muammolarini izchil hal etib borish aynan shu viloyatlarga ko‘proq ahamiyat berishni taqozo etadi.

Kartoshka yetishtirish. Aholi sonining ko‘payishi, shaharlar rivojlanishi kartoshkaga bo‘lgan talabni oshirib boradi. Respublikamizda kartoshka ekiladigan maydonlar yildan-yilga kengayib bormoqda. Faqat so‘nggi 5 yilda ular 20 ming gektardan ko‘proqqa ortdi. Masalan, 2005-yilda kartoshka 49,8 ming gektarga ekilgan bo‘lsa, 2024-yilda esa bu raqam 70,7 ming gektarga yetdi.

Kartoshkachilik, xususan, Samarqand viloyatida yaxshi rivojlangan. Bu yerda respublikada ekilgan kartoshka maydonlarining 1/7 qismidan ko‘prog‘i joylashgan (10,9 ming ga). 7,0-7,7 ming gektardan Surxondaryo, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida, eng oz raqam, ya‘ni 1,2 va 1,9 ming ga Navoiy, Sirdaryo va Jizzax viloyatlariga tegishli. 1991-yilda jami kartoshka hosili 351,8 ming t. bo‘lgan, 1995-yilda u 439,9, 2000-yilda -731,1, 2015-yilda - 924,2 va 2024 - yilda 1695,4 ming tonnani tashkil qildi. Demak, mustaqillik yillarida kartoshka yetishtirish deyarli 5 martaga ko‘paydi. Birgina 2005-2010-yillarda bu ko‘rsatkich 1,8 martaga teng bo‘ldi, vaholanki, kartoshka ekilgan maydon bu davrda 1,4 martaga organ, xolos. Ko‘rinib turibdiki, har gektardan olinadigan kartoshka hosili ham yildan yilga ko‘payib borgan. 2024-yilda respublika viloyatlarida kartoshka yetishtirish quyidagicha bo‘lgan: Samarqand -371,7 ming t., hosildorlik 258,5 s/ga; Toshkent - 268,8 va 219,5; Farg‘ona - 170,1 va 195,7; Andijon - 169,5 va 193,1 s/ga (O‘zbekistonda o‘rtacha 194,9 s/ga). Kartoshka hosilining eng past ko‘rsatkichi Qoraqalpog‘istonda - atigi 31,7 ming t., hosildorlik 74,4 s/ga yoki respublika o‘rtacha darajasidan 2,6 marta past. Biroq qayd etish joizki, bu mintaqada 2024-yilda kartoshka yetishtirish oldingi yilga qaraganda 116,3 foizga o‘sgan (mamlakatda o‘rtacha 111,0 %).

Sabzavot yetishtirish. Dehqonchilikning ushbu turi ham, umuman olganda, rivojlanib bormoqda. Chunonchi, barcha turdagi sabzavotlar

respublikada 3348 ming tonnani tashkil qilgan holda, ularning keyingi davrdagi o‘shishi quyidagicha bo‘lgan: 1995-yilda - 2725 ming t., 2000-yilda - 2645 ming t., 2005-yilda -3518 va 2024-yilda - 6346 ming tonna.

Jami sabzavot ekilgan maydon 2024-yilda 173,0 ming ga (2005-yilda -137,7 ming ga), hosildorlik o‘rtacha 252,5 s/ga. Ekin maydoni bo‘yicha Toshkent (31,8 ming ga) hamda Samarqand (25,7 ming ga) viloyatlari yetakchilik qiladi va faqatgina ularning hissasiga respublikada sabzavot bilan band bo‘lgan ekin yerlarning 22,5 foizi to‘g‘ri keladi. Bu bejiz emas, albatta. Sababi – aynan shu mintaqalarda yirik shaharlar, urbanizatsiya yuqori darajada rivojlangan.

Sabzavot yalpi hosili bo‘yicha ham shu viloyatlar keskin ajralib turadi: Toshkent viloyatida 1299 ming t., Samarqandda – 1050 ming t. Uchinchi o‘rinda Andijon viloyati – 862 ming t. Hosildorlikning yuqori darajasi Samarqand va Andijon viloyatlarida ko‘zga tashlanadi: mos holda 341 va 272 s/ga. Odatdagidek, eng past ko‘rsatkichlar Qoraqalpog‘istonga tegishli – yalpi hosil 134 ming t., hosildorlik 143,8 s/ga. Barcha sabzavot turlari bilan kartoshka singari respublika o‘z ehtiyojlarini to‘la qondiradi. Ortiqchasi boshqa mamlakatlarga, jumladan, qo‘shni Qozog‘iston va Afg‘oniston, shuningdek, qisman Rossiya Federatsiyasi bozorlariga ham chiqariladi.

Polizchilik. O‘zbekistonda polizchilik qadimdan rivojlangan. Bunga, eng avvalo, yurtimizning iqlim sharoitlari qulaylik yaratgan. Mamlakatimizda yetishtirilgan shirin-shakar qovun va tarvuzlar allomalarimizning asarlarida, chetdan kelgan sayyohlar ma’lumotlarida ham aks ettirilgan. Mustaqillikning dastlabki, ya’ni 1991-yilda O‘zbekistonda jami 926 ming t. poliz mahsulotlari yetishtirilgan. 1995-yilda olingan hosil 472 ming, 2000-yilda - 451 ming, 2015-yilda - 615 ming va 2024-yilda 1182 ming tonna hosil olingan. Jarayon tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda poliz mahsulotlarini yetishtirish yildan-yilga biroz kamayib borgan (xususan, 2000-yillargacha), so‘ngra ko‘tarilishda davom etib, hozirgi kunda 1991-yil ko‘rsatkichidan ancha o‘tib ketgan.

Jami respublikada poliz ekinlari maydoni 2024-yilda 47,8 ming gektardan (2005-yilda - 33,9 ming ga) iborat bo‘lgan. Dehqonchilikning

ushbu yoʻnalishi boʻyicha Jizzax (6,9 ming ga), Qashqadaryo (6,3 ming ga) viloyatlari birmuncha ajralib turadi. Shuningdek, polizchilik anʻanaviy holda Sirdaryo (Mirzachoʻl), Xorazm viloyatlari va Qoraqalpogʻiston Respublikasida ham rivojlangan. Andijon va Navoiy viloyatlarida esa poliz dalalari ancha ozroq.

Yalpi hosil Sirdaryo viloyatida eng yuqori - 210 ming t. atrofida. Birgina shu mintaqa respublika poliz mahsulotlarining yaqin 18 foizini taʼminlaydi, hosildorlik gektaridan 320,0 s (mamlakatda oʻrtacha 193 s). Hosil boʻyicha ikkinchi oʻrinda Jizzax (156 ming t.), uchinchi oʻrinda Surxondaryo (114 ming t.) viloyatlari turadi. Yalpi hosilning eng kam miqdori 2024-yilda Fargʻona va Navoiy viloyatlarida, hosildorlikning eng kam darajasi Qoraqalpogʻistonda qayd etiladi.

Bogʻdorchilik va uzumchilik. Oʻzbekistonda quyosh nuri, issiqlikning yuqoriligi turli xil, qand moddasiga boy shirin meva va uzumlarni yetishtirishga imkon beradi. Bu yerda olma, oʻrik, anor, anjir, xurmo, behi, nok, gelos, shaftoli va boshqalar, subtropik mevalar (limon), turli navli uzumlar yetishtirish azaldan katta ahamiyatga ega. Biroq, afsuski, sobiq Ittifoq davrida notoʻgʻri siyosat olib borish oqibatida bogʻ maydonlari, uzumzorlar keskin qisqarib ketdi. Hozirgi vaqtda yuzaga kelgan bu muammo asta-sekin hal qilinmoqda.

Alohida taʼkidlash joizki, respublikamizda bogʻdorchilik va uzumchilik milliy iqtisodiyotimizning muhim tarkibi sifatida katta daromad manbaiga aylantirilishi mumkin. Xususan, hoʻl va quruq mevalar, uzum sharbatlari va vinosini eksport qilish bu borada katta ahamiyat kasb etadi.

Mavjud maʼlumotlarga qaraganda, respublikamizda 1991-yilda 517 ming t. meva va 480 ming t. uzum olingan. Keyingi yillardagi koʻrsatkichlar quyidagicha boʻlgan (mos holda): 1995-yilda - 602 va 621; 2000-yilda - 791 va 624; 2015-yilda - 949 va 642; 2024-yilda - 1710 va 987 ming tonna. Koʻrinib turibdiki, soʻnggi 15 yil davomida meva yetishtirish respublikamizda deyarli 3 martaga, uzum – 2 martaga koʻpaygan. Biroq, bu koʻrsatkichlar ham soʻnggi, oxirgi marra emas. Binobarin, kelajakda mamlakatimizda bogʻdorchilik va uzumchilikka ustuvor ahamiyat beriladi.

O‘zbekistonda 2024-yilda jami meva va rezavorlar bilan 235,4 ming ga yer band bo‘lgan (2005-yil - 208 ming ga). Shu jumladan, Farg‘ona viloyatida 44,5, Samarqandda 29,3, Andijonda 28,7, Toshkentda 28,6 va Namangan viloyatida 24,9 ming ga. Ayni vaqtda Qoraqalpog‘istonda bu ko‘rsatkich atigi 4,6, Sirdaryoda 5,1 va Navoiy viloyatida 5,7 ming gektarni tashkil qiladi, xolos.

Yalpi hosil ko‘rilayotgan yilda 1710 ming tonnani tashkil etgan holda, u Andijon viloyatida 359 (hosildorlik 144,7 s/ga, respublikada o‘rtacha 92,6 s/ga) ming t., ya‘ni eng yuqori darajada bo‘lgan. Shu yilda Farg‘ona viloyatida 256, Samarqand viloyatida 232 ming t. turli xil mevalar olingan. Demak, bog‘dorchilik, eng avvalo, Farg‘ona vodiysi hamda Samarqand va Toshkent viloyatlarida yaxshi rivojlangan. Bu tarmoq Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Sirdaryo viloyatida esa ancha sust yo‘lga qo‘yilgan. E‘tiborlisi shundaki, mamlakatimizning issiq janubiy hududlari, ya‘ni Surxondaryo va Qashqadaryoda ham bog‘dorchilik uncha rivojlanmagan.

O‘zbekiston bo‘yicha jami tokzorlar 2024-yilda 128 ming ga bo‘lgan (2015-yilda - 121 ming ga). Bu xususda Samarqand viloyati keskin ajralib turadi – 39 ming ga yoki respublika uzumzorlarining 30,4 foizi. Keyingi o‘rinlarni Toshkent (18,1 ming ga), Surxondaryo (14,2 ming ga) va Namangan (12,4 ming ga) viloyatlari egallaydi. Eng kam tokzorlar Sirdaryo viloyati va Qoraqalpog‘istonda; bu mintaqalarda ularning maydonlari bor-yo‘g‘i 1,5 va 0,5 ming ga.

Qayd etish lozimki, bog‘dorchilik va uzumchilik, odatda, tog‘yonbag‘rilari, adir va tepaliklarda yaxshi rivojlanadi. Shu bois, hududi, asosan, tekislik, cho‘l mintaqalaridan tashkil topgan joylarda, tabiiyki, bu sohalar uchun kerakli sharoitlar mavjud emas.

Uzumning yalpi hosili O‘zbekiston bo‘yicha 2024-yilda 987 ming t., uning 360 ming tonnasi birgina Samarqand viloyatiga to‘g‘ri keladi (hosildorlik 116,7 s/ga, respublikada o‘rtacha 92,2 s/ga). Ikkinchi pog‘onani poytaxt-Toshkent viloyati egallaydi – 116 ming t. Qizig‘i shundaki, tokzorlari uncha ko‘p bo‘lmagan Buxoro viloyatida ham 2010-yilda 100,0 ming tonna uzum olingan. Shunday qilib, dehqonchilik tarmoqlari har xil mintaqalarda turlicha rivojlangan. Ma‘lumotlarining

tahliliga ko‘ra, donli ekinlar bo‘yicha Samarqand, Farg‘ona va Toshkent viloyatlari, sabzavotda Toshkent, Samarqand va Andijon, kartoshka yetishtirishda Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Andijon viloyatlari yetakchilik qiladi. Poliz mahsulotlarini yetishtirishga ko‘proq Sirdaryo va Jizzax, bog‘dorchilikka Andijon, Samarqand va Farg‘ona, uzumchilikka ham eng avvalo Samarqand, shuningdek, Toshkent viloyati ixtisoslashgan.

3. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari

Chorvachilik. Qishloq xo‘jaligining ikkinchi asosiy tarmog‘i chorvachilik hisoblanadi. Uning hissasiga republikamiz qishloq xo‘jaligi mahsulotining turli yillarda 40-45 foizi to‘g‘ri keladi. Bu, eng avvalo, ob-havo, iqlim sharoitlariga bog‘liq holda o‘zgarib turadi. Masalan, 2011-yil bahori o‘ta qurg‘oqchilik keldi, yog‘in-sochin miqdori meyordan ancha kam bo‘ldi. Bunday gidrometeorologik vaziyat, xususan, mamalakatimizning janubiy hududlarida – Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida, ayniqsa, keskin bo‘ldi. Binobarin, bu yilda chorvachilik ko‘rsatkichlari birmuncha past bo‘ldi.

Chorvachilik dehqonchilik bilan uzviy bog‘liq, ular qadimdan o‘zaro aloqador holda rivojlanib kelgan. Hozirgi vaqtda dehqonchilik, jumladan, ozuqa ekinlarini yetishtirish, yem-xashak bazasini yaratish chorvachilik uchun xizmat qiladi. Shuningdek, sug‘orma dehqonchilik va bog‘dorchilik rivojlangan hududlarda ham ma‘lum darajada chorvachilikning sut-go‘sht yo‘nalishi yo‘lga qo‘yilgan bo‘ladi.

Chorvachilikning bir xususiyati shundaki, u ko‘p yer talab va kam mehnat talab iqtisodiyot sohasi bo‘lib, unga qishloq xo‘jaligining ekstensiv rivojlanishi, iqtisodiy samaradorligining pastligi an‘anaviy tarzda xosdir. Mustaqillik yillarida ushbu tarmoqning rivojlanishiga nazar soladigan bo‘lsak, uning o‘zgarib borishi bir tekis, ko‘pincha barqaror emasligini guvohi bo‘lamiz. Masalan, 1991-yilda umumiy qishloq xo‘jaligi mahsuloti oldingi yilga nisbatan 94,7 foizni tashkil qilgan holda, chorvachilik mahsulotlari 106,2 foizga o‘sgan. Xuddi shunday ustunlikni 1993, 2003-yillarda ham ko‘rish mumkin. Qolgan

yillarda, ayniqsa, 2004-2006-yillarda chorvachilik dehqonchilikka qaraganda sustroq rivojlanib borgan.

Respublikada, taxminan, 280-290 ming gektar yerga ozuqa ekinlari ekiladi. Bu borada Samarqand, Jizzax, Toshkent, Qashqadaryo viloyatlari yetakchilik qiladi. Aynan shu to'rt mintaqaga O'zbekiston ozuqa ekin maydonlarining deyarli yarmi to'g'ri keladi. Bunday dalalar Farg'ona, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida ham ancha ko'p. Aksincha, Andijon, Navoiy, Sirdaryo viloyatlarida ozuqa ekinlari maydoni juda oz miqdorda. Bu holat, agar Andijon va Sirdaryo viloyatlarida sug'orma dehqonchilikning intensiv rivojlanishi natijasida bo'lsa, Navoiy viloyatida yem-xashak yetishtirish uchun tabiiy-iqlim sharoitlarining cheklanganligi bilan izohlanadi.

4. O'zbekistonda qoramolchilikning rivojlanishi

Qoramolchilik chorvachilikning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. U aholining eng muhim oziq-ovqat turi, ya'ni sut va go'sht bilan ta'minlaydi. Yirik shoxli qoramollarni boqish, odatda, sug'orma dehqonchilikka ixtisoslashgan hududlarda yaxshi rivojlangan. Xususan, sut va sut-go'sht chorvachiligi yuqori darajada sanoatlashgan va shaharlashgan (urbanizatsiyalashgan) mamlakat va mintaqalar iqtisodiyoti uchun xos. Sababi, ko'payib borayotgan shahar aholisi uchun muntazam ravishda sut va sut mahsulotlari talab etiladi.

Geografik jihatdan sut chorvachiligi iqlimi mo'tadil, yog'in-sochin miqdori yetarli tekislik hududlarda, yirik shaharlar atrofida, ayniqsa daryo qayirlari va tekisliklar yam-yashil o'tloqlar bilan qoplangan joylarda qulay imkoniyatlarga ega bo'ladi. Masalan, Niderlandiya, Boltiq bo'yi davlatlar, Belorusiya, Rossiyaning Vologda, Kostroma viloyatlari, Qirg'izistonning Chu vodiysi qishloq xo'jaligi aynan shu sohaga ixtisoslashgan.

O'zbekiston Respublikasida, 2024-yil 1-yanvar holatida jami 9094,7 ming bosh yirik shoxli qoramollar bo'lgan. Taqqoslash uchun: 2005-yilda raqam 6571,4, 2008-yilda 8026,3 ming boshni tashkil qilgan. Hozirgi vaqtda yirik shoxli qoramollar soni bo'yicha birinchi o'rinda Samarqand (1191,3 ming bosh), ikkinchi o'rinda Qashqadaryo (1040,3

ming bosh) viloyatlari turadi. Shu ikki viloyatga jami respublikada boqiladigan yirik shoxli qoramollarning 22,5 foizi to'g'ri keladi.

Chorvachilikning ushbu yo'nalishi, shuningdek, Buxoro (884 ming bosh), Qoraqalpog'iston Respublikasi (760 ming bosh) va Farg'ona viloyatida ham yaxshiroq rivojlangan. Eng past ko'rsatkich Sirdaryo va Navoiy viloyatlariga xos: mos holda, 283 va 332 ming bosh. Jami yirik shohli qora mollarning 3758,1 ming boshi yoki 41,4 foizini sigirlar tashkil qiladi (2024-yil – 2821 ming bosh). Ularning geografik tarqalishi ham umumiy tarzda yirik shoxli qoramollar hududiy tarkibini takrorlaydi.

O'zbekistonda qo'y va echkilarni boqish qadimdan rivojlangan. Bu yo'nalish, odatda, qoramolchilikdan farq qilgan holda, eng avvalo, cho'l hududlarda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Sababi qo'y va echkilar yaylov chorvachiligida yaxshi rivojlanadi. Jumladan, echkilar uchun tog' etaklari, o'tloqi adirlar qulayroq. Qo'y va echkilar ko'proq go'sht va jun uchun boqiladi. Ulardan olinadigan sut miqdori esa sigirlarga qaraganda ancha oz.

Mamlakatimizda 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra jami 15340,9 ming bosh qo'y va echkilar (asosan qo'ylar) qayd etilgan. Bundan bir necha yillar muqaddam, ya'ni 2005-yilda ularning soni 11352 ming boshga teng bo'lgan. Bu xususda eng oldingi o'rinlarni Qashqadaryo (3233 m.b.), shuningdek, Navoiy (1746 m.b.), Surxondaryo (1701 m.b.), Samarqand (1648 m.b.) hamda Buxoro (1563 m.b.), Jizzax (1364 ming bosh) viloyatlari egallaydi. Ayni vaqtda Sirdaryo viloyatida chorvachilikning mazkur turi deyarli rivojlanmagan – atigi, 192 ming bosh.

Respublikamizda ko'rilayotgan davrda 187,3 ming bosh otlar mavjud bo'lgan. Ular nisbatan ko'proq Toshkent (40,2 m.b.) hamda Qashqadaryo (23,1 m.b.) viloyatlarida boqiladi. Shu bilan birga, Samarqand, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'istonda ham yilqichilik birmuncha bor.

O'zbekistonda parrandachilik, xususan, tovuq boqishga ham katta e'tibor berilmoqda. Tabiiy holda, parrandachilik, g'alla ekiladigan dalalarda qulay imkoniyatlarga ega bo'ladi. Biroq, so'nggi yillarda bu

soha sanoat asosida, ya'ni parrandachilik firmalarini tashkil etish negizida rivojlanib bormoqda. Respublikada, 2024-yil ma'lumotlariga binoan, jami 37733 ming bosh parrandalar bo'lgan. Ularning 26,8 foizi birgina poytaxt viloyatiga to'g'ri keladi. Bu besabab emas, albatta, sababi mazkur mintaqada shaharlar to'ri rivojlangan, shahar aholisi ko'p. Binobarin, aholini iste'mol mahsulotlari (tuxum, tovuq go'shti va hokazo) bilan ta'minlash maqsadida qator parrandachilik fabrikalari tashkil etilgan.

Qolgan viloyatlarni Toshkent mintaqasi bilan taqqoslab bo'lmaydi: parrandachilik faqat Samarqand (4605 m. b.), Andijon (4179 m. b.) va Xorazm viloyatlarida biroz ko'zga tashlanadi, xolos. Sirdaryoda esa ushbu soha ancha past darajada – 735 ming bosh.

2024-yilda O'zbekistonda 1461,4 ming tonna go'sht yetishtirilgan bo'lib, bu oldingi yillarda quyidagicha bo'lgan (ming t.): 1991-yil - 800.2; 1995-yil - 853.0; 2000-yil - 841.8; 2005-yil - 1061.2 ming t. Keltirilgan raqamlardan ko'rinib turibdiki, go'sht ishlab chiqarish, asosan, so'nggi 10 yilda ko'paygan. Bunda, eng avvalo, Samarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarining ishtiroki katta. Jumladan, ana shu uch mintaqaga respublikada yetishtirilgan jami go'shtning 36 foizi to'g'ri keladi. Bu jihatdan Buxoro hamda Jizzax viloyatlari ham qisman ajralib turadi. Eng kam miqdor esa Qoraqalpog'iston Respublikasida (7-jadval).

Sut eng muhim oziq-ovqat manbai hisoblanadi. U hamma uchun va hamma vaqt kerak. Ko'rilayotgan 2010-yilda mamlakatimizda jami 6169,0 ming t. sut ishlab chiqarilgan. Ushbu soha, xususan, Samarqand, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida yuqori ko'rsatkichlar qayd etgan (ular respublika qishloq xo'jaligida yetishtirilgan sutning 1/3 qismini ta'minlagan). Farg'ona viloyatining ulushi 9,5 %, Toshkent viloyatiniki 9,2 %, Andijonniki 8,8 %, Buxoro viloyatida jami sut hajmining 8,7 foizi tayyorlangan. Sirdaryo viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi esa bor-yo'g'i 3 foizdan (har birida) biroz ko'proq sut ishlab chiqarilgan. Sut yetishtirish dinamikasi quyidagicha (ming t.): 1991-yil - 3331,4; 1995-yil - 3665,4; 2000-yil - 3632,5; 2005-yil - 4554,9 va 2010-yil -

6169,0 ming tonna. Demak, mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligida sut tayyorlash qariyb 2 barobarga ko‘paygan. ,

So‘nggi yillarda respublikamizda parrandachilikka bo‘lgan e‘tibor, ayniqsa, “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturining qabul qilinishi bilan yanada kuchaydi. Chunonchi, 2010-yilda mamlakatimizda jami 3058,8 mln. dona tuxum tayyorlangan. Qizig‘i shundaki, uning 28,5 foizini birgina poytaxt viloyati ta‘minlagan.

7-jadval

O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik mahsulotlari tayyorlashning hududiy tarkibi

Mintaqalar	Go‘sh		Sut		Tuxum		Jun	
	ming t.	foizda	ming t.	foizda	mln. dona	foizda	tonna	foizda
O‘zbekiston Respublikasi	1461,4	100,0	6169,0	100,0	3058,8	100,0	23781	100,0
<i>shu jumladan:</i>								
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	58,9	4,0	183,6	3,1	46,0	1,5	748	3,1
<i>viloyatlar:</i>								
Andijon	91,9	6,3	540,9	8,8	226,9	7,4	1739	7,4
Buxoro	140,2	9,6	539,3	8,7	173,7	5,7	2596	10,9
Jizzax	124,2	8,5	334,3	5,4	107,2	3,5	2307	9,7
Navoiy	93,3	6,4	271,8	4,4	144,7	4,7	2721	11,4
Namangan	81,5	5,6	384,9	6,2	99,6	3,3	1043	4,4
Samarqand	179,9	12,3	759,3	12,3	576,9	18,8	3016	12,7
Sirdaryo	40,1	2,7	200,4	3,2	54,8	1,8	356	1,5
Surxondaryo	113,3	7,7	508,2	8,2	156,1	5,1	1772	7,4
Toshkent	166,0	11,4	568,0	9,2	871,0	28,5	1359	5,7
Farg‘ona	98,1	6,7	588,8	9,5	179,6	5,9	730	3,1
Xorazm	95,3	6,5	632,3	10,3	229,7	7,5	766	3,2
Qashqadaryo	178,3	12,2	657,2	10,6	192,6	6,3	4628	19,5

Manba: Jadval O‘zR Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Qolgan mintaqalar orasida Samarqand viloyati ko‘zga tashlanadi (18,8%), eng past ko‘rsatkichlar esa yana Sirdaryo va

Qoraqalpog‘istonda qayd etiladi. Taqqoslash uchun: 1991-yilda respublikada jami 2347,0 mln. dona tuxum olingan, 1995-yilda bu raqam 1231,8, 2000-yil - 1239,6, 2005-yil - 1966,7 va 2024-yilda 3058,8 mln. dona bo‘lgan. Ko‘rinib turibdiki, parrandachilikning rivojlanishi mamlakatimizda o‘tgan 20 yil mobaynida bir tekis kechmagan. Jumladan, u 2000-yillargacha pasayib borgan, o‘shish alomatlari esa keyingi 10 yilda yuzaga kelgan.

Jun yetishtirish eng avvalo qo‘y va echkilarni, xususan, qo‘ylarni boqish bilan bog‘liq. 2005-yilda mamlakatimizda 20,1 ming t., 2008 yilda 23,8 ming t, 2024-yil – 26,5 ming tonna jun tayyorlangan, hududiy tarkibda Qashqadaryo viloyati keskin oldinda – 19,5 %. Shuningdek, Samarqand, Navoiy, Buxoro-xullas, cho‘lli mintaqalarda jun chorvachiligi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Ularning har biri mamlakatda tayyorlangan junning 10-12 foizdanini beradi. Ayni vaqtda bu soha Farg‘ona, Xorazm, ayniqsa Sirdaryo viloyatida, qo‘y va echkilarni boqish uchun uncha sharoitlar mavjud bo‘lmaganligi sababli, sust rivojlangan (7-jadval). O‘zbekistonda, xususan, qo‘y chorvachiligi bilan hududiy bog‘liq holda teri ishlab chiqarish ham eksport ahamiyatiga ega. Chorvachilikning mazkur yo‘nalishi, eng avvalo, cho‘l mintaqalarida, jumladan, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo va qisman Samarqand viloyatlarida rivojlangan bo‘lib, bu hududlarda ko‘plab qorako‘l terisi tayyorlanadi (2024-yil respublikamizda - 935 ming dona).

5. Parrandachilik va asalarichilik

O‘zbekistonda ipakchilikni rivojlanishi: O‘zbekiston pillachiligi tarixi, ya’ni yurtimizga pillani kirib kelishi va ipakchilikni rivojlanishi tarixiy manbalarda qo‘yidagicha bayon etilgan. Ipakchilik O‘rta Osiyo davlatlariga IV-asrda kirib kelish sabablaridan biri Xitoydan ipakchilik o‘zbekistonga yashirincha yo‘l bilan olib o‘tilgan, ya’ni Xitoy malikalaridan biri Xitoyning g‘arbiy chegarasidagi Xotan davlati shahzodasiga turmushga chiqib, o‘z jonini xavf ostida qoldirib, turmush o‘rtog‘iga sadoqati sifatida sochining turmagi ichida ipak qurti tuxumini yashirib, Xotan davlatiga olib kelgan (Xotan shahri Xitoyning Uyg‘ur

avtonom rayonida joylashgan. U ba'zi tarixiy manbalarda Serinda deb atalgan. Yunoncha "Serin" so'zi "ipak" degan ma'noni bildiradi.)

Yurtimizda pillachilik qadimdan rivojlanib kelgan. U mavsumiy va hududiy jihatdan sug'orma dehqonchilikka ixtisoslashgan, ayniqsa, paxtachilik rayonlarda ko'proq tashkil etilgan. 2010-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda jami 25,2 ming t. pilla yetishtirilgan bo'lib, uning asosiy qismi Farg'ona vodiysi viloyatlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, respublikamiz qishloq xo'jaligida asalarichilik ham o'ziga xos o'ringa ega. Odatda, bu soha, tog' va tog' oldi hududlarda ko'proq rivojlangan. Shunga muvofiq holda asalarichilik, asal yetishtirish Farg'ona, Namangan va Jizzax viloyatlarida ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan. 2016-yilda Respublika bo'yicha 19 ta pillani qayta ishlash korxonalari faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunga kelib korxonalar soni 75 tani tashkil qilmoqda. Ipak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari 150 mln so'mdan 2 trln so'mga yetkazildi (joriy yilda 3,1 trln so'm). Eksport hajmlari 96,2 mln dollarga yetkazildi (2017-yilga nisbatan 3,1 baravar ko'p). Eksport qilingan mahsulotlarning 57 foizi (54,4 mln doll) ipak matolar hissasiga to'g'ri. Pilla mahsulotlari eksport geografiyasida ham kengayish kuzatilmoqda. Xususan, 2020-yilda 14 ta davlatga eksport qilingan bo'lsa, joriy yilning 10 oyligida eksport qilingan davlatlar soni 16 taga etdi.

Asalarichilik. Markaziy Osiyo davlatlarining asalarichilik tarixi qishloq xo'jaligini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Bir qator mualliflarga ko'ra, O'rta Osiyoda (sobiq Turkiston o'lkasi) asal va asalari XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Ular birinchi marta asalarilar 1848-yilda, 1872-yilda Toshkentga, 1880-yilda Farg'onaga, 1898-yilda Samarqandga, 1894-yilda esa Kattaqo'rg'onga olib kelinganligini ta'kidlangan.

O'rta Osiyoda asalarichilikning paydo bo'lishi va rivojlanishining haqiqiy tarixini aniqlash uchun yaqin Sharqdagi asalarichilik tarixi - Fors, Afg'onistondagi materiallarni, shuningdek, Markaziy Osiyo madaniy yodgorliklarini o'rganish kerak. Mavjud adabiy ma'lumotlarga ko'ra, asalarichilik XIX asr oxiridan XX asr boshigacha sobiq Turkistonda qishloq xo'jaligi tarmog'i sifatida rivojlana boshladi.

Mahalliy aholi orasida uning tarqalishi rus askarlari va amaldorlari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Ta'kidlash joizki, Samarqand viloyatida asalarichilik ayniqsa muvaffaqiyatli rivojlandi. 1903-yilda bu erda birinchi tajriba asalarichilik xo‘jaligi ochildi. Dastlab, rus asalarichiligi bilan shug‘ullangan, ammo keyinchalik mahalliy aholi yangi foydali ish bilan qiziqib, uni muvaffaqiyatli rivojlantira boshladi. Bu 1902-yilda R.Tursunbayeva va M.Yaukashtayevni rus imperatorining hayvon va o‘simliklarni uyg‘unlashtirish jamiyati qoshidagi asalarichilar jamiyatining faxriy a‘zolari etib saylashi buning dalilidir.

Asalarilarning foydali va serdaromad tomonlari shundaki, ular o‘simlik gullarini chetdan changlatish yo‘li bilan ekinlar hosildorligini 10-60% gacha oshirishga sabab bo‘ladi. Respublikamiz sharoitida esa g‘o‘za, beda va dukkakli o‘simliklar, ozuqabop hamda poliz ekinlari maydonlari kengayib borishi tufayli, qishloq xo‘jalik ekinlarini changlatishda asalarilarning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Asalarilarning ana shunday beminnat xizmatlarini va u dehqonlarning qanotli yordamchisi ekanligini hisobga olib, hukumatimiz keyinigi yillarda asalarichilikni respublikada yanada rivojlantirish to‘g‘risida ko‘pgina qarorlar qabul qildi. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktabrdagi “Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi – 3327 sonli qarori qabul qilindi. Bu qaror yordamida respublikamizda asalarichilik bir muncha rivojlandi, uning moddiy-texnika ta‘minoti, kadrlar bilan ta‘minlash ishlari mustahkamlandi. Respublikamizda sotsial va iqtisodiy rivojlantirishning 2026-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlarida ham asalarichilikni jadal usulda rivojlantirish mo‘ljallangan. Mamlakat oziq-ovqat dasturini amalga oshirishda ham asalarichilik katta ahamiyatga egadir.

Mamlakat oziq-ovqat dasturini amalga oshirishda ham asalarichilik katta ahamiyatga egadir. Butun dunyoda asalarichilik fermerlik jamiyatlariga bir qancha bebaho foyda keltiradi. U ekinlarni changlatish orqali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini qo‘llab-quvvatlaydi va shu bilan changlatuvchiga bog‘liq hosildorlikni oshiradi. 2009–2022-

yillarda asalarichilik subyektlarining 21937 taga ko‘payib, ya’ni 38 foizga o‘sishi, shu bilan birga, asalari oilalari 96499 taga ko‘payib, ya’ni 71 foizga o‘sishi natijasida asal ishlab chiqarishda ham salmoqli natijalarga erishilgani kuzatilgan. 2020 - yilda 2329,4 tonna asal, 2010 - yilda 3171,9 tonna asal, 2020 - yilda 11786,1 tonna asal ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2011- yilda 2009 - yilga nisbatan 7456,7 tonna asal ko‘p ishlab chiqarilgan, ya’ni 2011 - yilda 2009 - yilga nisbatan asal ishlab chiqarish 62,5 foizga oshgan. 2000–2001- yillarda «O‘zbek-asal» uyushmasi tasarrufdagi xo‘jaliklarda 160 mingdan ziyod asalari oilasi mavjud bo‘lgan. Asalarichilik xo‘jaliklari o‘rnida fermer xo‘jaliklari tashkil etilishi munosabati bilan ularning soni teng yarmiga kamayib ketgan.

Asalari oilasini boqish texnologiyasini bilmaslik, asalarichilik jihozlarining noyobligi, asalari oilasini ko‘chirish xarajatlari, yonilg‘i-moylash mahsulotlarining qimmatligi, asalarichilar bilan yer egalari o‘rtasidagi tushunmovchiliklar, yetishtirilgan asalni sotishdagi ovoragarchiliklar (hozirgi kunda ayrim asalarichilar uyida 20–25 tonnagacha 10–15 yillik asal to‘planib qolgan), asalari oilasini ko‘paytirish va asalari kasalliklariga qarshi kurash maqsadida beriladigan har xil faol preparatlar va doridarmonlarning taqchilligi asalari oilasining kamayishiga olib keldi.

Respublikamiz florasidagi 85–90% yovvoyi va madaniy o‘simliklar faqatgina asalarilar yordamida changlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, tabiatning bir bo‘lagini kelajak avlod uchun saqlab qolishga, atmosferani kislorod bilan boyitishga, ekologiyani yaxshilashga hamda inson salomatligini mustahkamlashda zarur va noyob bo‘lgan tibbiyot mahsulotlarini yetishtirish, shuningdek, xalqimiz dasturxonini qimmatbaho asal bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Mamlakatning qishloq xo'jaligi tarmoqlar tarkibi va uning rivojlanishi.
2. Respublikada dehqonchilikning rivojlanish xususiyatlari.
3. Dehqonchilik tarmoqlari va uning geografiyasi.
4. Dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish dinamikasi.
5. Qishloq xo'jaligini rivojlanishida chorvachilikning roli va ahamiyati.
6. Chorvachilikning qanaqa tarmoqlari mavjud?
7. O'zbekistonda chorvachilikning qaysi tarmoqlari rivojlangan?
8. Go'sht-sut chorvachiligi bilan sut-go'sht chorvachiligining farqi nimada?
9. O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jaligi sohasidagi hamkorligi.

Agrar islohotlar - yerdan foydalanish tizimida davlat tadbirlari. Mamlakatlar va ularning tumanlarining iqtisodiy geografik sharoiti va tarixiy xususiyatlari islohotlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Agrar munosabatlar - yerga egalik qilish, tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini o'zlashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Agrobiznes - foydani ko'paytirish maqsadida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimida boshqarishni zamonaviy usullardan foydalanishga asoslangan qoidalarni qo'llash. Yirik qishloq xo'jalik korxonalarini ham agrobiznesda qatnashishlari mumkin, bunda ikki tomon o'rtasida qat'iy kelishuv hosil bo'ladi.

Agrosanoat birlashmalari - qishloq xo'jaligi, sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi va tijorat ishlari bilan shug'ullanuvchi korxonalar yig'indisi.

Agrosanoat integratsiyasi - qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste'molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir.

Agrosanoat majmui (ASM) - mamlakatni oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi xomashyosi bilan ta'minlovchi tarmoqlararo xo'jalik majmui.

Aralash tartibdagi hududlar - quruqlik, materik sayozligi (dengiz va okeanlarning 200 metr chuqurlikkacha bo'lgan shelfi) hamda iqtisodiy mintaqalar.

Biologik resurslar - tugaydigan, ammo tiklanadigan tabiat resurslari yoki tirik tabiat boyliklarining bir qismi (o'rmon, o'simlik, hayvonot va b.).

Dehqon xo'jaligi – o'z qaramog'ida bo'lgan mulk, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish asosida qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va sotishni amalga oshiruvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt.

“Ekologik barqaror rivojlanish” konsepsiyasi - iqtisodiy taraqqiyotning muhim shartlaridan biri sifatida tabiat va uning boyliklarini asrashni bildiradi.

Eksport - tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va kapitalni mamlakat tashqarisiga chiqarish.

Ekstensiv iqtisodiy o'sish - qo'shimcha ish kuchi ishlab chiqarish vositasi va resurslarini jalb qilish hisobiga, ya'ni mehnat va moddiy resurslarni ko'proq qo'shish hisobiga o'sish. Bunda oddiy mehnat sarflari qisqarmaydi, mehnat unumdorligi oshmaydi. Miqdoriy o'sish.

Erkin iqtisodiy hududlar - qo'shma tadbirkorlik hududlari, xorij kapitalini erkin amal qilishi uchun ajratilgan maxsus hudud, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish maqsadida tashkil etiladi.

Geografik (hududiy) mehnat taqsimoti - ijtimoiy mehnat taqsimotining turi bo'lib, alohida hududiy iqtisodiy birliklarning (mamlakat, rayonlar va b.) o'zaro aloqadorlikdagi ishlab chiqarish ixtisoslashuvi.

Hududiy mehnat taqsimoti - muayyan mamlakat doirasida ayrim hududlar yoki mintaqalardagi mehnatning ixtisoslashuvi. Har bir hudud doirasida ham ichki ixtisoslashuv yuz beradi. Masalan, agrar hududda donchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik yoki chorvachilikka ixtisoslashgan kichik hududiy bo'linmalar ham bo'ladi.

Ijtimoiy infrastruktura - deb moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan va aholi turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qiladigan tarmoqlararo tizim tushuniladi.

Infrastruktura - xalq xo'jaligi tarmoqlari faoliyatiga, bevosita sharoit yaratib beruvchi ishlab chiqarish va ijtimoiy tarmoqlar tizimi majmuasiga aytiladi.

Infratuzilma - ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish shart-sharoitini ta'minlovchi tarmoqlar majmui. Ishlab chiqarishni energiya bilan ta'minlash, transport, aloqa, informatika va boshqalar ishlab chiqarish I. ni tashkil qiladi. Aholining turmush tarzini ta'minlovchi uy-joy, sog'liqni saqlash muassasalari, o'quv yurtlari, fan va shu kabi sohalar ijtimoiy infratuzilmani tashkil qiladi.

Intensiv iqtisodiy o'sish - ishlab chiqarish ko'lami, ko'rsatilgan mahsulotlar va xizmatlar hajmining resurslarni tejimli ishlatish hisobidan oshib borishi, ular sifatini yaxshilanishi.

Investitsiya - investor tomonidan biror bir faoliyatni amalga oshirish uchun kapital mablag'larni, sarmoyalarni joriy qilish, foyda olish maqsadida sarf qilish. I. mamlakat ichida (ichki investitsiya) va xorijiy mamlakatlarda (tashqi investitsiya) amalga oshirilishi mumkin. Moliya I-chi qimmatbaho qog'ozlarni xarid qilish, pul mablag'larini jamg'arish va boshqalarni, real I. - moddiy ishlab chiqarishga sarflangan sarmoyalarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy geografik o'rin - iqtisodiy geografik holat iqtisodiy geografik obyekt (shahar, rayon, mamlakat) ning shu obyektidan tashqarida bo'lgan, lekin uning taraqqiyotiga ta'sir etadigan tabiiy va tarixiy-iqtisodiy obyektlarga nisbatan tutgan o'rni. Masalan, mamlakatning dengizga nisbatan o'rni, dunyo savdo yo'llariga nisbatan o'rni, qo'shni mamlakatlarga nisbatan o'rni, muayyan xalqaro siyosiy ahvol sharoitida mamlakatning siyosiy kuchlarga va ittifoqchilarga nisbatan munosabati va h.k. iqtisodiy geografik o'rin – mamlakat taraqqiyotining turli bosqichlarida turlicha bo'lishi va uning rivojlanishiga turlicha ta'sir etishi mumkin.

Iqtisodiy geografik xarakteristika - xo'jalik obyektlari (korxonalar, shaharlar, rayonlar) haqidagi bilimlarni muayyan reja asosida sistemali ravishda bayon etish. Bunda bu obyektlarning joylashish xususiyatlari va taraqqiyot istiqbollari ko'rsatiladi.

Iqtisodiy rayon - mamlakat xalq xo'jaligining hududiy bir bo'lagi. Har qanday iqtisodiy rayon uning geografik o'rni, tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga mos bo'lgan boshqa hududlar bilan oqilona mehnat taqsimotiga tayangan xalq xo'jaligining asosiy vazifalarini o'zida mujassamlashtirgan ixtisoslashuvga rayonning iqtisodiy va hududiy tarkiblari eng muhim elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va aloqadorlik unga yuklatilgan asosiy xalq xo'jaligi vazifalarini bajarishga kam, mahalliy ehtiyojlarni qondirishga ham imkon beruvchi majmua belgiga hududiy va tarmoqlar miqyosida boshqarish tizimiga egaligi bilan ajralib turadi. Har qanday iqtisodiy rayonning asosida hududiy ishlab chiqarish majmui yotadi.

Iqtisodiy salohiyat - jamiyatni tabiiy va inson resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini hamda undan foydalanish bo'yicha

imkoniyatlarning hali mavjudligini anglatadi va ana shu imkoniyatlar miqyosi bilan baholanadi.

Iqtisodiy samaradorlik - cheklangan resurslardan unumli foydalanib, tovar va xizmatlarga bulgan jamiyatning cheksiz talabini maksimal qondirishdir.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solib turish - bozor iqtisodiyotida davlat va jamiyat tashkilotlari tomonidan harakatdagi sotsial-iqtisodiy tizimni o'zgarib turgan sharoitga moslashtirish maqsadida amalga oshiriladigan qonuniy, ijro va nazorat qilish xususiyatiga ega bo'lgan tadbirlar tizimi.

Ishchi kuchi - ish qidirayotganlardan tashqari barcha ishlovchilar va ishlamoqchi bo'lganlar.

Ishlab chiqarish infrastrukturasi - bevosita qishloq xo'jalik ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi sohalar.

Ishlab chiqarish ixtisoslashuvi - ayrim korxonalarda bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarishga qaratilgan jarayonlarning to'planishi. Mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligining o'sishining asosiy omillaridan biri.

Ishlab chiqarish jarayoni - jamiyat ixtiyoridagi barcha resurslardan foydalanib, jamiyat a'zolari uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni yaratish.

Ishlab chiqarish munosabatlari - hayotiy ne'matlarning ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida kishilar o'rtasida paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar - ishchi kuchi yoki boshqacha aytganda, ma'lum malakaga, tajribaga ega bo'lgan kishilar hamda ishlab chiqarish vositalaridan tashkil topgan.

Ixtisoslashuv - ishlab chiqarishning muayyan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishga moslashuvidir. Ixtisoslashuv asosida mehnat taqsimoti turadi.

Jahon bozori - xalqaro mehnat taqsimotiga asoslanuvchi iqtisodiy hamkorlikni xilma-xil shakllari bilan o'zaro bog'langan mamlakatlar o'rtasidagi muntazam oldi-sotdi munosabatlari.

Ma'muriy rayon - iqtisodiy rayonga xos uch belgidan biri- boshqarish tizimiga ega bo'lgan, hududning kattaligi bo'yicha esa odatda iqtisodiy rayondan orqada turuvchi taksonomik bo'lak.

MDH – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlararo siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalardagi hamkorligi. 1992-yil dekabr oyida Minsk shahrida tashkil topgan. Sobiq SSSR davlatining Boltiqbo'yi mamlakatlaridan tashqari barcha davlatlar a'zo. MDH ustavi tashkiliy organlarga ega, Koordinatlashtirilgan konsultativ qo'mita Minsk shahrida joylashgan.

Mehnat resurslari - aholining mehnatga layoqatli qismi. Erkaklarning 16 – 59 yoshgacha, ayollarning 16 -54 yoshgacha bo'lgan qismi.

Mehnat taqsimoti - ijtimoiy mehnatning mustaqil vazifalarini bajaruvchi mehnat turlariga ajralish jarayonidan iborat. Mehnat taqsimoti yuz berganda bir mehnat turidan ikkinchisi, ikkinchisidan uchinchisi va hokazo ajralib chiqadi va shu jarayon uzluksiz davom etaveradi.

Moddiy ishlab chiqarish – moddiy shakldagi mahsulotlarni, masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar - joy va boshqalarni yaratish hamda ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xizmatlarni yaratish masalan, yuk tashish, yo'l xizmati ko'rsatish, ishlab chiqarish axborotini uzatish va hokazolar. Moddiy ishlab chiqarish birlamchi, unga qarab nomoddiy soha rivojlanadi.

Qishloq xo'jaligi - iqtisodiyotning eng muhim va yirik tarmog'i bo'lib, agrosanoat kompleksi (ASK)ning tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi aholiga oziq-ovqat, kiyim-kechak mahsulotlari bilan bir qatorda sanoat tarmoqlariga (oziq-ovqat, omuxta yem, to'qimachilik, farmatsevtika va boshqa) xom ashyo yetkazib berishdan iborat.

Qishloq xo'jalik ekin maydonlari - qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish uchun muntazam foydalaniladigan yerlardan iborat. Ularga haydaladigan yerlar, yaylovlar, ko'p yillik daraxtzorlar mansub.

Respublika tuzumi - qonun chiqaruvchi hokimiyat – parlamentga, ijroiya hokimiyati hukumatga tegishlidir.

Resurslar - tabiiy, insoniy, moddiy, moliyaviy va intellektual resurslardan iborat.

Salohiyat - ma'lum makon doirasidagi resurslarni umumlashtirish jamlash yo'li bilan baholash.

Qishloq xo'jaligi geografiyasi - zamonaviy geografiya fanlari tizimida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlari turkumiga mansub fan tarmoqlaridir. U sanoat va qishloq xo'jaligining tarmoqlar va hududiy tashkil etilishi, agrar (qishloq xo'jaligi) hududiy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadi.

Tabiiy resurslar - inson xo'jalik faoliyatida foydalaniladigan moddiy asosga ega tabiat komponentlari.

Tashqi iqtisodiy aloqalar - mamlakat iqtisodiy salohiyatining ko'zgusi hisoblanib, qishloq xo'jaligi - tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantiruvchi asosiy omillaridir.

Tipologiya - o'rganilayotgan obyektlar (mamlakatlar)ni sifat belgilari bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi tiplarga ajratish.

Xalqaro mehnat taqsimoti - alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvidir.

Xalqaro mehnat taqsimoti - ijtimoiy mehnatning turli davlatlar yoki davlatlar guruhi o'rtasida taqsimlanishi, ishlab chiqarishning baynalminal miqyosda ixtisoslashuvini bildiradi, davlatlararo iqtisodiy aloqalarni zaruratga aylantiradi. Xalqaro mehnat taqsimoti mehnat taqsimotining eng yuksak darajasi hisoblanadi.

Xalqaro tartibdagi hududlar - davlat chegaralaridan tashqarida bo'lgan va xalqaro huquqqa binoan dunyoning barcha davlatlari umumiy foydalanadigan yer sharidagi bo'sh makonlar.

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) - mamlakat iqtisodiy faoliyatining muayyan davr (oy, chorak, yil) davomidagi umumiy natijalarini tavsiflaydigan ko'rsatkich. YAIM mamlakat hududida joylashgan barcha korxonalar (chet el va qo'shma korxonalar ham shu hisobga kiradi) tomonidan jami ishlab chiqarish omillari bilan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning bozor qiymatlaridagi ifodasi.

Yalpi milliy mahsulot (YAMM) - mamlakatning ma'lum muddat (oy, chorak, yil) ichida umumiy iqtisodiy faoliyatini tavsiflovchi yakuniy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri. YAMM davlatning bozor narhlarida ifodalangan barcha birlamchi daromadlari (ularning mamlakat

hududida yoki uning tashqarisidagi ishlab chiqarish omillari tufayli yuzaga kelishidan qat'iy nazar) jami yig'indisini ifodalaydi.

Yalpi milliy mahsulot (YAMM) - milliy iqtisodiyotda bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga borib tushadigan provard mahsulot va xizmatlarning bozor baholaridagi summasi.

I. Normativ huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 15-dekabrdaqi “Fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 362-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 29-dekabrdaqi “2016-2020-yillar davrida qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2460-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-martdaqi “Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4243-son Qarori.

II. Asosiy o‘quv adabiyoti

4. Abdullayev S.N., Nomozov X.Q. Tuproq melioratsiyasi/ Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – 400 b.
5. Brazilian agriculture: prospects and challenges, OECD-FAO Agricultural Outlook, 2015, p. 61–109, DOI: 10.1787/ agr_outlook-2015-en.
6. Broadberry S., Gardner L. Africa’s growth prospects in a European mirror: a historical perspective, CAGE Online Working Paper Series, Competitive Advantage in the Global Economy (CAGE), 2013. -172, 26 p.
7. Bustos P., Bruno C., Jacopo P. Agricultural productivity and structural transformation: evidence from Brazil, American Economic Review, 2016, no. 106(6), p. 1320-65, DOI: 10.1257/aer.20131061.
8. Egamberdiyeva U.T., Rajabov F.T., Namozov J.A. Sanoat va qishloq xo‘jaligi geografiyasi, Toshkent: «Zebo Print», 2023. 238 b.
9. Jo‘rayev F. Qishloq xo‘jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish/ Darslik. - T.: Istiqlol, 2004. – 343 b.
10. Li M., Hualou L., Yingnan Z., Shuangshuang T., Dazhuan G., Xiaosong T. Agricultural labor changes and agricultural economic

development in China and their implications for rural vitalization, *Journal of Geographical Sciences*, 2019a, no. 29(2), p. 163–179.

11. Nabiyeu E., Qayumov A.A. O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati. - T., 2000. - 188 b.

12. Namozov J.A. va boshqalar. Suv resurslaridan qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida foydalanish geografiyasi (Toshkent viloyati misolida). T.: ZEBO PRINT’, 2025., 106 b.

13. Namozov J.A. Yer-suv resurslaridan foydalanish geografiyasi (Samarqand viloyati materiallari asosida). Toshkent: «ZEBO PRINT», 2022., 136 b.

14. Namozov J.A., Nizamiyev A.G., Do‘smonov F.A. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.:ZERO PRINT, 2023. - 348 b.

15. Namozov J.A., Xamroyeva F.A., Juraxujayev D.D. Jahon iqtisodiy geografiyasi. Samarqand, 2024.

16. Ne‘matov H. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida modernizatsiya. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 360 b.

17. Ne‘matov H. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida modernizatsiya. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 360 b.

18. Qurbonniyozov R. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1995. – 141 b.

19. Qurbonniyozov R. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1995. – 141 b.

20. Quziyev R.Q., Yuldoshev G‘., Akramov I.A. Tuproq bonitirovkasi. – T:Izd. AN, 1966. – 390 s.

21. Rajabov F.T., Egamberdiyeva U.T., Namozov J.A. Sanoat va qishloq xo‘jaligi geografiyasi. Toshkent: «Zebo Print», 2023. - 238 b.

22. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika, amaliyot. – T.: Mumtoz so‘z, 2013. – 348 b.

23. Soliyev A.S. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish. Ma‘ruzalar matni. - T., 2000.

24. Soliyev A.S. O‘zbekiston geografiyasi (O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). – T.: Universitet, 2014. – 404 b.

25. Soliyev A.S., Abdunazarov H. Yengil va oziq-ovqat sanoatining mintaqaviy muammolari.-T.: Fan, 2007.

26. Soliyev A.S., Nazarov M.I. Qishloqlar geografiyasi (Qishloq joylar geografiyasi). – T.:Fan va texnologiya, 2009.
27. Абдусалямов М.А. Производительные силы и совершенствование экономических связей Узбекистана –Т.: Фан, 1990.
28. Ата-Мирзаев О.Б., Тухлиев Н. Узбекистан: природа, население, хозяйство.-Т., 2009.
29. Колосовский Н.Н. Избранные труды.–Смоленск: Ойкумена, 2006.
30. Крючков В.Г. Территориальная организация сельского хозяйства М., 1976.
31. Крючков В.Г. Территориальная организация сельского хозяйства. (Проблемы и методы экономико – географического исследования). – М.: Мысль, 1978. – 268 с.
32. Курбанов К. Территориальная организация сельского хозяйства. – Т.: Фан, 1988.
33. Курбанов К. Территориальная организация сельского хозяйства. – Т.: Фан, 1988.
34. Лапкин К.И. Размещение и специализациясельскохозяйственного производства по зонам и районам Узбекской ССР. – Т.: Фан, 1988. – 390 с.
35. Носонов А.М. Территориальные системы сельского хозяйства (экономико – географические аспекты исследования). – М.: Янус-к, 2001. – 324 с.
36. Носонов А.М. Территориальные системы сельского хозяйства (экономико – географические аспекты исследования). – М.: Янус-к, 2001. – 324 с.
37. Ракитников А.Н. География сельского хозяйства. – М,: Мысль, 1970. – 342 с.
38. Ризаев М.Т. Агросаноат комплексининг ривожланиши. –Т.: “Мехнат”, 1986.
39. Рузиев А. Территориальная система агропромышленного комплекса. – Т.:Мехнат, 1986. – 144 с.

40. Территориальная дифференциация и типы сельского хозяйства. Вопросы географии. Сб. 107. – М.: Мысль, 1978. – 230 с.
41. Файзуллаев М.А. Жанубий Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги географияси (монография). – Қарши: Университет, 2019. -245 б.
42. Хрушев А.Т. География промышленности.-М.:Высшая школа, 1990.
43. Шульгин А.М. Мелиоративная география. – М.: Высш. школа, 1980. – 288 с.

III. Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz.
2. www.bibliotekar.ru.
3. www.stat.uz.
4. <http://geografiya.uz>.
5. www.ziyo.net.
6. www.stat.uz.
7. <http://www.worldstopexports.com>.
8. <https://www.wto.org>.
9. <http://xs.uz/ru>.
10. <http://uzbk.org>.
11. <https://www.un.org>.
12. <https://countrysimeters.info>.
13. www.worldbank.org.
14. www.gtmarket.ru.
15. www.centrasia.org.
16. www.uzland.uz.
17. www.state.gov.
18. www.un-arm.org.
19. www.ibt.uz/uz.
20. <http://fikir.uz>.
21. www.interfax.ru.
22. www.europarchive.org.
23. www.geographyofrussia.com.

**Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich
Namozov Jo‘rabek Abduazizovich**

Qishloq xo‘jaligi geografiyasi
(O‘quv qo‘llanma)

Muharrir: N.K.Choriyev
Musahhih: O.Sharapova
Texnik muharrir: X.Rahimova
Sahifalovchi: O.Mirzayev

ISBN – 978-9910-9891-3-1

2026-yil 10-fevralda Tahririy - nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2026-yil fevral- da original maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84_{1/16} “Times new roman” garniturasini.

Ofset qog‘ozini. Shartli bosma tabog‘i – 10,0.

Adadi: 30nusxa. Buyurtma № 795

SamDU Tahririy-nashriyot bo‘limiga chop etildi.
Manzil: 140104, Samarqand sh, Universitet xiyoboni, 15.



ISBN 978-9910-9891-3-1



9 789910 989131